

N.A.XUDAYBERDIYEVA

**TADBIRLARNI TASHKIL ETISH,
INSON RESURSLARI VA
VOLONTYORLIK
FAOLIYATI**



«O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI» NMIU



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA
SPORT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA
SPORT UNIVERSITETI

N.A.XUDAYBERDIYEVA



**TADBIRLARNI TASHKIL ETISH, INSON RESURSLARI
VA VOLONTYORLIK FAOLIYATI**


DARSLIK

70411201 - Menejment (yirik sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)
mutaxassislik talabalari uchun mo'ljallangan

TO'SHKEHT

"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMU

2023



UO'K: 361.1 (075)

KBK: 65.051

Xudayberdiyeva Nodira Abduyakubovna // "Tadbirlarni tashkil etish, inson resurslari va volontyorlik faoliyati" (Darslik), // "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMIU Toshkent – 2023, 368b.

Muallif:

N.A XUDAYBERDIYEVA – *O'zDJTSU Sport tadbirlarini tashkil etish kafedrası dotsenti falsafa fanlari nomzodi.*

Taqrizchilar:

N.To'xtaboyev – *O'z DJTSU Farg'ona filiali direktori pedagogika fanlari doktori, professor.*

K.Yarashev – *O'z DJTSU Sport tadbirlarini tashkil etish kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi.*

O'zDJTSU Kengashining 2023 - yil ... dagi ... - sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN: 978-9943-6575-7-5

© N.A.XUDAYBERDIYEVA, 2023

© "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMIU, 2023

ANNOTATSIYA

Mazkur darslik jismoniy tarbiya va sport universitetining 70411201- Menejment (yirik sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) mutaxassisligi uchun mo'ljallangan bo'lib, ta'limning quyi bosqichlarida talabalar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni yanada kengaytirish hamda rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan joriy etilgan "Tadbirlarni tashkil etish, inson resurslari va volontyorlik faoliyati" " fani dasturi asosida yaratilgan.

Unda magistrnlarning kasbiy faoliyat sohasi: tashkiliy-huquqiy shakldagi jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish (tijorat, no-tijorat, davlat, shahar), unda bitiruvchilarning boshqaruv apparati turli xizmatlarida ijrochilar yoki o'rta darajadagi rahbarlar sifatida ishlashini, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida faoliyat olib borishini, sport sohasidagi tashkiliy va boshqaruv muammolarini hal etish bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy va qo'shimcha(o'rta maxsus) kasb-hunar ta'limi tizimi muassasalari va tashkilotlarda inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlarni tahlil qilishning amaliy **ko'nikmalarini** rivojlantirish, fundamental ma'lumotlar berish, bilimlarning nazariy va uslubiy asoslarini egallash hamda **ularni amaliyotga tatbiq etish malakasini hosil qilish nazarda tutiladi.**

Mutaxassislikka oid nazariy ma'lumotlar turli-tuman asoslovchi manbalar, savol-javoblar hamda turli xil topshiriqlar bilan mustahkamlanib, talabalar uchun tushunarli, sodda, ilmiy atamalar bilan bayon etiladi.

Ushbu darslikdan universitetning jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi talabalari soha bo'yicha nazariy ma'lumotlarini boyitishi hamda soha mutaxassislari amaliy tavsiyalar olishda foydalanishlari mumkin.

АННОТАЦИЯ

Настоящий учебник предназначен для специальности 70411201-Менеджмент (организация и управление крупными спортивными мероприятиями) Университета физической культуры и спорта и направлен на дальнейшее расширение и развитие знаний и умений, приобретаемых студентами на начальных ступенях обучения. Он создан на основе программы предмета "Организация мероприятий, кадровая и волонтерская деятельность", внедренной Государственным университетом физического воспитания и спорта Узбекистана.

В нем область профессиональной деятельности мастеров: организация занятий физической культурой и спортом в организационно-правовой форме (коммерческая, некоммерческая, государственная, городская), в которой выпускники работают руководителями или менеджерами среднего звена в различных службах аппарата управления, работы в органах государственной власти и местного самоуправления, проанализировать новые подходы к совершенствованию управления персоналом в научно-исследовательских организациях, учреждениях и организациях системы высшего и дополнительного (среднего специального) профессионального образования, связанные с решением организационно-управленческих задач в области спорта развитие практических навыков, предоставление фундаментальной информации, приобретение теоретико-методических основ знаний, формирование навыков их практической реализации.

Теоретическая информация по специальности подкрепляется различными вспомогательными источниками, вопросами и ответами, разнообразными заданиями и объясняется простыми, понятными для студентов научными терминами.

Пособие может быть использовано студентами вузов, занимающимися физической культурой и спортом, для обогащения теоретических знаний в данной области, а профильными специалистами для получения практических рекомендаций.

ANNOTATION

This textbook is intended for the specialty 70411201-Management (organization and management of major sports events) of the University of Physical Culture and Sports and is aimed at further expanding and developing the knowledge and skills acquired by students at the initial stages of education. It was created on the basis of the program of the subject "Organization of events, personnel and volunteer activities", implemented by the State University of Physical Education and Sports of Uzbekistan.

In it, the area of professional activity of masters: the organization of physical culture and sports in the organizational and legal form (commercial, non-commercial, state, city), in which graduates work as leaders or middle managers in various services of the administrative apparatus, work in public authorities and local self-government, to analyze new approaches to improving personnel management in research organizations, institutions and organizations of the system of higher and additional (secondary specialized) professional education, related to the solution of organizational and managerial tasks in the field of sports, the development of practical skills, the provision of fundamental information, the acquisition of theoretical and methodological foundations of knowledge, the formation of skills for their practical implementation.

Theoretical information on the specialty is supported by various auxiliary sources, questions and answers, various tasks and is explained by simple, understandable scientific terms for students.

The manual can be used by university students involved in physical culture and sports to enrich theoretical knowledge in this area, and by specialized specialists to receive practical recommendations.

KIRISH

Darslik jismoniy tarbiya va sport universitetining 70411201-Menejment (yirik sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) mutaxassisligi yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, "Tadbirlarni tashkil etish, inson resurslari va volontyorlik faoliyati" fanining ***o'qitish konsepsiyasida ko'rsatilgan vazifalarni o'z ichiga oladi.*** Magistrarning kasbiy faoliyat sohasi: tashkiliy-huquqiy shakldagi jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish (tijorat, notijorat, davlat, shahar), unda bitiruvchilarning boshqaruv apparati turli xizmatlarida ijrochilar yoki o'rta darajadagi rahbarlar sifatida ishlashi, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida faoliyat olib borishi, sport sohasidagi tashkiliy va boshqaruv muammolarini hal etish bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy va qo'shimcha (o'rta maxsus) kasb-hunar ta'limi tizimi muassasalarida magistrarning tashkilotlarda inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlarni tahlil qilishning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda volontyorlik (ko'ngillilar) jamoasini amaliy ishlarini o'rgatish, ***ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish nazarda tutiladi.***

Darslikning asosiy mazmunini tashkil qilgan ma'ruza mashg'ulotlarining barchasi 30 soatlik kurs mazmunini qamrab olib, tadbirlarni tashkil etishda inson resurslari va volontyorlik faoliyatining turli tomondan o'rganishga aloqadordir. ***Xususan,*** fanning maqsad va vazifalari, asosiy tushunchalari, Yangi O'zbekistonda ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini rivojlanishi va uning istiqbollari, "inson resurslari", "volontyor" (ixtiyoriy ko'ngillilar) tushunchalari va ularning mohiyati, O'zbekistonda ommaviy sport -sog'lomlashtirish ishlarini tizimli tashkil etishning tashkiliy va boshqaruv asoslari, ommaviy sport tadbirlari, jismoniy tarbiya va sport orqali inson resurslarini rivojlantirish,

sport tadbirlarni tartibli va qiziqarli bo'lib o'tishida badiiy va musiqaviy namoyishlarning ahamiyati, shuningdek, volontyorlikka oid loyihani ishlab chiqish texnologiyalari o'rgatiladi.

Kitobda mavzular doirasida ilmiy terminlardan o'rinli foydalanishga ham e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni mazmun mohiyatining mavzuga singdirilishi, sport tadbirlarini tashkil qilish qonun-qoidalari, tadbirlarni o'tkazishning yo'nalishlari, vositalari va uslubiyati, o'tkazish bosqichlari haqidagi ma'lumotlarning berilishi, sharh va izohlarning kiritilishi, volontorlar guruhining sport musobaqalarida amalga oshirishi mumkin bo'lgan ishlari, yordamchi volontyorlarni rag'batlantirishni, ularni kerakli kiyim-kechak, jihozlar bilan ta'minlash hamda volontyorlik harakatida davlat rahbarlarining e'tibori masalalariga doir mavzular yetarli darajada yoritilgan.

Muallif shu talab va ehtiyozlarni hisobga olgan holda har bir mavzuni to'liq, izchillikda, uzviylik prinsiplari asosida tizimli tarzda ochib berishga harakat qilgan.

Darslik ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi "Asosiy qism" bo'lib, foydalanilgan materiallarning barchasi tadbirlarni tashkil etish, inson resurslari va volontiyorlik faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni yoritib berishdan iborat bo'lib, muallif mavzularni tushuntirishda ilmiy atamalarning izohlariga ham alohida to'xtalgan va sodda, aniq tushuntirib berishga e'tibor qaratgan. Har bir mavzuga oid topshiriq va savol-javoblar talabalarning imkon qadar ko'proq mavzuni bilishlari uchun mo'ljallangan, talabalarni har bir mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlarni to'la egallashlariga, so'ng mustaqil ishlashga da'vat etilgan. jarayonidagi o'ziga xosliklar haqida amaliy ko'nikmalrni shakllantirishga qaratilgan.

Darslikning "Fanni o'qitishning interaktiv texnologiyalari" qismida fan mavzulari uchun qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar sharhi, interfaol metodlar, bu metodlarning maqsadi, ularni tashkil etishning asosiy qoidalari, interaktiv usullarning


shakllari, o'qitish vositalari, interaktiv trening tashkil qilishning majburiy shartlari hamda interfaol ta'limning samaradorligi masalalarini amaliy jihatdan asosli o'rgatishga qaratilgan.

Darslik O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti magistr talabalari uchun fanni o'zlashtirishda, soha doirasida o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi. Darslikdan universitetlarning jismoniy tarbiya yo'nalishi magistr va talabalari hamda soha mutaxassislari foydalanishlari mumkin.

1-MODUL. "TADBIRLARNI TASHKIL ETISH, INSON RESURS- LARI VA VOLONTYORLIK FAOLIYATI" FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI, ASOSIY TUSHUNCHALAR.

REJA

1. "Tadbirlarni tashkil etish, inson resurslari va volontyorlik faoliyati" faniga kirish.
2. "Tadbirlarni tashkil etish, inson resurslari va volontyorlik faoliyati" fanining maqsadi, fanning vazifalari.
3. "Tadbirlarni tashkil etish, inson resurslari va volontyorlik faoliyati" fanining asosiy tushunchalari va fanga aloqador hukumat qabul qilgan qonunlar, qarorlar va farmonlar.



Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni omalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va

ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenyerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi tizimidagi sport????? maktablari o'quvchi-sportchilari o'rtasida "Bolalar sport o'yinlari" ni o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Talabalar sport o'yinlari"ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etilmoqda. Aholining keng qatlamlari, jumladan, umumta'lim maktabi o'quvchilari, professional va oliy ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, ular orasida iqtidorlilarini aniqlash maqsadida "Umumta'lim maktab sporti" festivali, "Jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa" ko'rik-tanlovini bosqichma-bosqich (tuman/shahar, hudud, respublika) o'tkazish tizimi ishlab chiqildi va jismoniy tayyorgarlik darajasi rivojlangan eng yaxshi umumta'lim maktabi, professional va oliy ta'lim muassasasi nominatsiyasi joriy etilib, taqdirlash yo'lga qo'yilmoqda.

Volontyorlik asli fransuzcha **volontaire** so'zidan olingan bo'lib, "ko'ngilli", "o'z xohishiga ko'ra ish qiluvchi" ma'nolarni anglatadi. Volontyorlik harakati - hozir dunyoda keng tarqalayotgan mashhur sohalardan bo'lib, istagan soha, maqom, lavozimdagi odamlar, ko'ngillilar qatorida bo'lib jamiyat, insonlarning turli muammolari yechimiga, ularning hayoti har tomonlama yaxshilanishiga xizmat qiluvchi, shunga doir turli loyihalar tuzuvchi va eng asosiysi, mablag' yoki biror moddiy yordam talab qilmaydigan, bir ezgu maqsad sari birlashgan guruhga aytiladi. Bunda esa, kishi o'z xohishi, savob qilish va yordam berish istagi orqali volontyorlarga qo'shilishi mumkin.

Masalan, e'tibor bergan bo'lsangiz, ba'zi supermarketlarda maxsus ehson qutilari bor. U yerga tushgan mablag' turli kasalliklar bilan og'rigan bolalar, odamlarning muolajasiga sarflanadi.

Volontyorlik termini va ushbu soha rivojlanishi ko'p yillik tarixga ega emas. U ilk marta Yevropada 1990 yili jamiyatning madaniy, iqtisodiy, ekologik yo'nalishlarida tuzilgan Xalqaro Ko'ngillilar Assotsiatsiyasining XI Kongressida volontyorlik harakati tuzilgandan boshlab, ommalasha boshladi.

Volontyorlar harakatini tashkil qilishdan asosiy maqsad esa aholini, ayniqsa, yoshlarni jamiyat hayotiga yana ham jalb qilish bilan, bag'rikenglik, o'zaro yordam, hurmat, sabr, o'zgalar muammosiga befarq bo'lmaslik, daxldorlik hissi va boshqa fazilatlarni rivojlantirish orqali, fuqarolik jamiyatini barpo qilish - bosh vazifa qilib belgilangan. Aynan shuning uchun butun dunyo beg'araz volontyorlikni targ'ib qilmoqda. Yevropa Hamjamiyati bu yo'lda ilk qadamini 2001 yilni "Volontyorlik yili" deb e'lon qilish bilan boshladi.



Agar volontyorlar soni 1987-yilda 80 million bo'lsa, 2009 -yilga kelib esa, 130 millionni tashkil etdi. U larning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi.

Volontyorlikka kirish esa, istagan odamning o'z individual harakatidan ham boshlanadi: masalan, tekinga, yaxshilik uchun qabrlarni ozoda saqlab, tozalab yurish, me'morchilik obidalarini ta'mirlash, quruvchilarga yordam berish va hokazo. Albatta, bu-

lar savob ish uchun qilingan yordam bo'lishi mumkin, lekin volontyorlik shunday kichik ishlardan boshlanadi.

Volontyorlar guruhi, boshqa sohalar kabi o'z maqsadlariga erishishda, oldilariga turli vazifalarni qo'yganlar:

- Mustaqillik;
- O'zaro birlik;
- Universallik;
- Insonparvarlik;
- Xolislik;
- O'zaro hurmat.

Har bir volontyor guruhi kimga yoki nimaga, nima uchun yordam berishayotganini aniq bilgan holda, loyihalarini aniq belgilab oladilar. Misol uchun, biz uchratgan volontyor qizlarning loyiha rejasi quyidagicha: ular IT, kompyuter dasturlari sohasida 15-18 yoshlar atrofida bo'lgan qizlarni jalb etish va shu orqali jamiyatda qizlarning rolini yanada oshirishdir. Ularning telefon ilovalari uchun 4 ta loyihasi bor:

1. Kimdir kelajakda qaysidir kasb egasi, masalan, xonanda bo'lmoqchi bo'lsa, o'ziga kerakli barcha ma'lumot, telefon raqamlari, kerak bo'lgan manzillargacha aks etgan, maxsus, bepul ilova ishlab chiqish;

2. Yurtimiz xaritalarini Google orqali yanada mukammalashtirish, xato yoki xarita to'lmagan joylarni to'ldirish, xaritani hamma tushunuvchi holatga keltirish. Bu orqali sayyohlarga, aholiga yordam berishga mo'ljallangan ilova ishlab chiqish;

3. Har kimda mavjud turli keraksiz buyumlarni muhtoj odamlarga qulay tarzda jo'natish uchun mo'ljallangan maxsus ilova ishlab chiqish;

4. Yoshlar qilmoqchi bo'lgan maqsadlarni amalga oshirishga, masalan, IELTS'ga tayyorlanuvchilar uchun yordam beruvchi, kerakli ma'lumot, xabarlarini yetkazuvchi maxsus ilova ishlab chiqish.

Yuqorida aytilgan, volontyorlar shunday ilova, dasturlarni xalq uchun, biz uchun qilishayotgan ekan, ular jamoatchilik fik-

rlari orqali qaysi loyiha ko'proq manzur va kerak bo'lishini bilib olishlari muhim. Shuning uchun, ular boshqalardan o'sha zahoti, kerakli fikrlarni olishdi.

Albatta, ana shunday o'sayotgan volontyorlar harakatiga parvozlar tilagan holda, aytmoqchimanki: hozirda dunyoda soatlab turli soha, texnologiya, axborot va xizmatlar rivojlanmoqda, ularning aksariyati esa, ezgu maqsad yo'lida emasligi barchamizga ayon...

Lekin, shunday xizmatlar orasida insonning hayotini, yashash tarzini, faoliyatini biron mablag' talab qilmay yaxshilovchi, bunga ko'maklashuvchi xizmatlar ham bor. Ana shu harakat a'zolari esa, o'ramizda yurib, izlanishmoqda, yordam berishmoqda. Shunday ekan, biz ularga yordam berishimiz, ularning loyihalarida qatnashib, yaxshilik yo'lida jamiyatni yangi pog'onaga olib chiqish uchun intilishimiz kerak.

2020-yildan boshlab sport sohasida "Tashkent Marathon" xalqaro marafoni, "Save Aral" xalqaro ekomarafoni, avtoralli va motokross sport musobaqalarini tizimli o'tkazish orqali sport turizmini rivojlantirish davlatimiz rahbarlari tomonidan e'tiborga olinib, maqsadli vazifalar belgilab qo'yilgan. Aholining barcha qatlamlari o'rtasida "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sinovlarini o'tkazishni joriy etish ham amalga oshirilmoqda.

Sport turlari bo'yicha terma jamoalar sportchilari uchun ilmiy-kompleks laboratoriyalar tashkil etish, tayyorgarlik jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sport sohasida samarali tibbiy va farmakologik ta'minotni yo'lga qo'yish, sport turlari bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan hududiy terma jamoa a'zolarini hududiy bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining o'smirlar bo'limlarida va undan katta yoshdagi hududiy terma jamoa a'zolarini tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazib borish mexanizmi joriy etilmoqda.

2020-yil 1-fevraldan boshlab bosqichma-bosqich olimpiya sport turlari bo'yicha respublika sport musobaqalarida doping-test namunalarini olish tizimi joriy etildi, qishki Olimpiya

sport turlari infratuzilmasini yaratish, ushbu sport turlarini ommaviylashtirish orqali professional sportchilarni tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston sport delegatsiyalarini nufuzli sport musobaqalariga tizimli tayyorlash bo'yicha joylarda Olimpiya tayyorgarlik markazini tashkillash ishlari jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. Xorijlik sportchi va muxlislarni keng jalb qilish hamda sport infratuzilmasidan samarali foydalanish maqsadida "xospitaliti xizmatlari"ni yo'lga qo'yish, "Sport Visa" qo'shimcha (elektron bo'lmagan) kirish vizasini joriy etish ham ko'zda tutilgan.

Sport sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish, shu jumladan, sport tashkilotlarida davlat ulushini kamaytirish bo'yicha zarur choralar belgilab qo'yilgan, sport lotereyalarini tashkil etish orqali sportni qo'shimcha moliyalashtirish tizimini kengaytirish, huquqni muhofaza qilish organlari va Qurolli Kuchlar tizimidagi ta'lim muassasalari, jumladan, "Temurbeklar maktabi" o'quvchi-talabalari uchun "Armiya o'yinlari" dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar va to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish ham nazorat qilib borilmoqda. Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, sport inshootlari va muassasalarining boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, "Sport.uz" axborot tizimi orqali sport inshootlarining telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini joriy etish maqsadga muvofiq deb qaralmoqda.

Davlat organlari, korxona va tashkilotlar xodimlari hamda aholi o'rtasida turli ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali aholining haftalik harakat faoliyatini oshirishga erishilmoqda, jismoniy tarbiya va sport sohasida yoshlar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda volontyorlik harakatini rivojlantirish, ommaviy sport tadbirlarida volontyorlar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, volontyorlarni tayyorlash bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish ham ancha sport tadbirlarini sifatli va tartibli bo'lib o'tishida xizmat qilmoqda.

Bugun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining turli qatlamlarini qamrab olgan samarali milliy tizim vujudga kelgani va u hozirdanoq yaxshi natijalar berayotgani na faqat o'zimizning, balki xorijiy mutaxassislar tomonidan ham tan olinib, e'tirof etilayotgani mazkur sohadagi ishlarning naqadar puxta o'ylab, uzoqni ko'zlab amalga oshirilganini ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, bunday olijanob ishlar o'tish davrining nihoyatda murakkab bosqichida amalga oshirila boshlan-gani bilan yana-da ahamiyatlidir. Sobiq ittifoq hududidagi boshqa yosh mustaqil davlatlar iqtisodiy muammolar girdobiga kirib, siyosiy mojarolarga ko'milib qolgan bir davrda bizning yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy ishlar jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar bilan hamohang tarzda amalga oshirildi.

Ana shu ezgu ishlar hozirgi kunda ham izchillik va qat'iyat bilan davom ettirilib, xalqimiz, avvalo, yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga mustahkam zamin bo'lmoqda, mamlakatimizda jismoniy-intellektual resurslarning ro'yobga chiqishini ta'minlamoqda. Buning zamirida yurtboshimizning "Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qura oladi" degan g'oyalari mujassam. Sodaroq qilib aytganda, yurtimizda sog'lom avlodni voyaga yetkazish vazifasiga qudratli davlatni shakllantirish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, huquqiy fuqarolik jamiyati barpo etish jarayoni-ning muhim sharti sifatida qaralmoqda. O'tgan tarixan qisqa davr – mustaqillik yillarida bu boradagi ishlarning keng quloch yoyishi va salmoqli natijalar berishining boisi ham shunda.

Zero, jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi bir avlod vakillarining maydonga chiqqani, ularning jahon miqyosida qo'lga kiritgan yutuqlari hammani g'ururlantiradi. Jumladan, boks bo'yicha Olimpiyada chempioni Muhammadqodir Abdullayev, jahon chempioni Artur Grigoryan, tennisimiz malikasi Iroda To'laganova, shaxmat va futbolimiz yulduzlari Rustam Qosimjonov hamda Mirjalol Qosimov kabi ko'p yoshlari-mizning sport sohasida erishgan ulkan yutuqlari mamlakatimizda amalga oshirilayot-

gan ijobiy islohotlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar mevasidir. Yoshlarimizning sog'lom va baquvvat bo'lib voyaga yetayotgani va O'zbekiston sharafigi dunyo miqyosida munosib himoya qilayotgani mamlakatimiz nufuzining tobora ortib borayotganidan darak beradi. Mana shunday sport yulduzlari timsolida yurtimizning yorug' kelajagiga ishonch mustahkamlanib boradi.



Bugungi kunda volontyorlik harakati dunyo bo'ylab keng tarqalayotgan mashhur sohalaridan biridir. Volontyorlik harakati yoshlarning mustaqil fikrlashini va ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Bu orqali ular jamiyatning bir bo'lagi ekanini his eta boshlaydi. Yoshlarda "Hamma narsaga o'z kuchim bilan erishaman" degan maqsad uyg'onadi.

O'zbekistonda nechta volontyorlar bor? Hozirda ularning faoliyatiga e'tibor qay darajada? Barcha volontyorlarni bir maqsad atrofida birlashtirish mumkinmi? Bu kabi qator savollar davom etaveradi. Barcha savollarga javob "Volontyorlar maktabi"da mujassam. Mazkur maktab respublikadagi ko'ngilli maqomini tasdiqlash, ushbu faoliyat bilan bog'liq g'oyalarni targ'ib qilish va mamlakatda ko'ngillilar faoliyatini ommalashtirish hamda rivojlantirishga qaratilgan loyiha asosida tashkil etigan. Volontyorlar maktabida texnologiya, iqtisodiyot, biznes, xayriya, san'at, o'zini rivojlantirish va boshqa sohalarida tajribali trenerlar tomonidan volontyorlarga master-klasslar, treninglar o'tkazilgan.



Yurtimizda ilk bor "Volontyorlar maktabi" tomonidan "Yurtimiz volontyorlari" tanlovi o'tkazilgan.

Tanlovda qatnashish istagidagi yoshlardan dastlabki bosqichda so'rovnoma to'ldirish (<https://forms.gle/5BHPjeiYyL4NC-HT9>) so'ralgan.

Ikkinchi bosqichda esa nomzodlar bilan suhbat o'tkazilgan. G'oliblar 2019-yil 30-noyabr kuni e'lon qilindi va taqdirlanishdi. Tanlov 13-oktabrdan 1-noyabrgacha davom etgan. Tanlov uchun ro'yxatdan o'tishning so'nggi kuni – 20-oktabr bo'lgan. Tanlovda 18 yoshga to'lgan, rus yoki ingliz tillarida erkin so'zlasha oladigan, volontyorlik tajribasiga ega yoshlar ishtirok etishi mumkin qilib belgilangan edi. Eng yaxshi volontyorlar 2019-yil dekabr oyida Moskvada bo'lib o'tadigan Xalqaro volontyorlar forumida qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritishdi.

Bugungi kunda poytaxtimizda, viloyat va tuman markazlarida sportning, ayniqsa, yoshlar orasida ommaviylashib borishini ta'minlovchi birlamchi omil-munosib shart-sharoitlar yaratildi. Zamonaviy sport inshootlari, o'yingoh va majmualarning barpo etilishi o'quvchi – yoshlarni ommaviy sport musobaqalari bilan to'la qamrab oladigan "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" o'yinlaridan iborat uch bosqichli milliy tizimning shakllanishiga asos bo'ldi. Natijada sport, jismoniy tarbiya yoshlar dunyoqarashiga ijobiy ta'sir etib, jismoniy-in-

telektual resurslar rivojining yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlamoqda.



Shuningdek, yurtimizda jismoniy tarbiya va sportning ta'limdan tashqari tizimi ham shakllanmoqda. Bu o'quv maskanlari, mahallalar qoshida turli sport to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yish, sport maydonchalari va majmualari barpo etish ishlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Birgina "Mahalla futboli" bellashuvlari yoki "Sportchi oila" musobaqalari sport nafaqat ta'lim davrida, balki ta'limdan tashqari paytda ham yoshlar hayotining tarkibiy qismiga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

Bularning barchasi yurtimizda har bir o'g'il-qiz sport bilan shug'ullanishi, jismoniy baquvvat bo'lishi, shu tariqa sog'lom turmush tarzini o'z hayotining ma'no-mazmuniga aylantirishi haqidagi fikrlar amalda tobora ko'proq o'z aksini topayotganidan darak beradi.

Bizga g'urur-iftixor bag'ishlaydigan yana bir muhim tarixiy dalil – ko'p asrlik o'lmas qadriyatlarimizdan biri bo'lgan kurashning butun dunyoda tan olinib, zamonaviy sport turlari qatoridan munosib o'rin egallab borayotganidir. O'zbek kurashi bo'yicha ko'plab mamlakatlarda maxsus uyushma va federatsiyalar tuzilayotgani, xalqaro darajadagi musobaqalar o'tkazilayotgani bizning milliy sport an'alarimizning insonparvarlik mohiyatini, mardlik va jasorat timsoli sifatida umumbashariy ahamiyatini xolisona namoyish etadi. Ayniqsa, dunyoning turli qit'a va mintaqalarida

yashaydigan turli millat va elat vakillarining bayrog'imiz rangidagi kiyimlarda maydonga tushishi, "halol", "yonbosh", "chala" degan o'zbekcha so'zlarning yangrashi, ota-bobolarimizdan bebaho meros bo'lib kelayotgan bu sport turining afzalligini o'z kuchi, iste'dodi bilan ko'rsatishga urinishi bejiz emas. Dunyoning turli burchaklaridan, goh olis Afrika mamlakatlaridan, goh yuksak taraqqiy topgan Yevropa qit'asidan yoki olis Lotin Amerikasidan kurash bo'yicha musobaqalar o'tkazilayotgani haqida kelayotgan xabar va yangiliklar har bir vatandoshimizni quvontirishi shubhasiz.

Odatda, ko'pchilik sport deganda insonning faqat jismoniy kamolotini, ya'ni uning kuch-quvvatga to'lib, sog'lom yurishini tushunadi. Bu—bir tomonlama noto'g'ri qarashdir. Zero, sport insonning jismoniy, ma'naviy va intellektual kamolotga yetishida ham juda katta ahamiyatga ega. Sport bilan shug'ullanuvchi odamning jismigina emas, fikru-xayoli, tafakkuri ham yangilanadi, sportga xos olijanoblik fazilatlarini shakllanib, behuda tashvishlardan xalos bo'lib, faqat yaxshi va ezgu ishlarni o'ylaydigan bo'ladi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport rivojiga katta e'tibor berilayotganining yana bir asosiy sababi nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham barkamol avlodni voyaga yetkazish zarurati bilan izohlanadi. Chunki sport xalqning, millatning g'ururini yuksaltiradi, ma'naviy kuch-qudrat baxsh etadi, qolaversa, butun jamiyatni ana shu g'urur tuyg'usi orqali birlashtiradi. Eng muhimi, sport sog'lom turmush tarzining asoslaridan biri sifatida yoshlarning o'z imkoniyat va salohiyatini, iqtidorini har xil bo'lmag'ur ishlarga emas, balki el-yurti obro'yini oshirishga, o'z jismoniy va ma'naviy kamolotini o'stirish yo'lida sarflashga safarbar etadi. Negaki, doimiy ravishda sport bilan shug'ullanadigan bolaning jismi ham, ruhi ham tetik bo'ladi, uning butun vujudi uyg'un tarzda kamol topadi. Uning o'y-xayoli faqat o'z iste'dodini namoyon etish, turli musobaqalarda g'alaba qozonish ishqini bilan band bo'ladi.

Fanning maqsadi:

- tadbirlarini tashkil etish aspektlari haqida ilmiy va professional tasavvurni shakllantirish;

- tadbirlarni tashkil etish, inson resurslari va valantiyorlik faoliyati"ni chuqur nazariy anglanishini ta'minlash, jismoniy tarbiya va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha pedagogning kasbiy faoliyatidagi asosiy nazariy-usuliy qoidalarini amalga oshirish malakasini shakllantirishdan;

- magistrlarda yirik respublika, shuningdek, xalqaro sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishning turli bosqichlarida boshqarish xususiyatlari va usullarini tahlil qilish bilan bog'liq fundamental ilmiy-amaliy baza yaratish;

- magistrlarda jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarish va tashkil etishni ta'minlovchi inson resurslarini boshqarish funktsiyalari, printsiplari, usullari to'g'risidagi tushunchani shakllantirish;

- bilimlarning nazariy va uslubiy asoslarini, shuningdek, inson resurslarini strategik boshqaruvini egallash;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida kasb faoliyatini samarali amalga oshirishga qaratilgan har tomonlama ilmiy va amaliy bilimlarga, inson resurslarini boshqarish sohasidagi vakolatlarga ega yuqori malakali kadrlarni shakllantirish;

- sport tadbirlarini samarali boshqarish va rivojlantirishni amalga oshirish vositasi sifatida volontyorlik (ko'ngillilikni) o'rganish;

- sport tadbirlari o'tkazish mexanizmlarida volontyorlik (ko'ngillilar) jamoasini institutsionalizatsiya qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.



VOLONTYORLAR MAKTABI



 /universe_evh

Fanning vazifasi: ommaviy sport tadbirlarining nazariy qoidalari va tushunchalarini, vosita hamda usullarini va tashkiliy shakllarini, shular bilan birga amalda sport tadbirlari faoliyatining vosita, metodlarini, qonuniyatlarini o'rgatish;

- ommaviy jismoniy tarbiya va sport ko'ngilochar tadbirlarni boshqarish va tashkiliy jihatdan boshqarishni tahlil qilish usullarini o'rgatish;

- tashkilotning inson resurslarini boshqarishning nazariy asoslari, usullari va shakllari, shuningdek, samarali texnologiyalarini o'rgatish.

- magistrlarda tashkilotning inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlarni tahlil qilishning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish.

- volontyorlik (ko'ngillilar) jamoasini institutsionalizatsiya qilish yuzasidan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish;

- inson resurslarini boshqarish sohasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi tushinchani shakllantirish.

Magistrlarning kasbiy faoliyat sohasi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish (tijorat, notijorat, davlat, shahar), unda bitiruvchilar boshqaruv apparatining turli xizmatlarida ijrochilar yoki o'rta darajadagi rahbarlar sifatida ishlaydi;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlari;
- bitiruvchilar o'z biznesini tashkil etadigan va rivojlantiradigan tadbirkorlar bo'lgan tuzilmalar;
- sport sohasidagi tashkiliy va boshqaruv muammolarini hal etish bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot tashkilotlari;
- oliy va qo'shimcha(o'rta-maxsus) kasb-hunar ta'limi tizimi muassasalarida faoliyat olib borishlari uchun yetarli darajada bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 6-noyabrda O'zbekiston Respublikasi **"VOLONTYORLIK FAOLIYATI TO'G'RI-SIDA"GI QONUNI QABUL QILINGAN.** QONUN 5 BOB, 25 TA MODDADAN IBORAT BO'LIB, QONUN Senat tomonidan 2019-yil 30-noyabrda ma'qullangan.

Qonunning 1-moddasida Qonunning maqsadi shunday beriladi: volontyorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilangan;

2-modda volontyorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan qoidalardan iborat bo'lib, Asosiy tushunchalar Qonunning 3-moddasida shunday berilgan:

volontyor – volontyorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs;

volontyorlar guruhi – ushbu Qonunda belgilangan normalar tatbiq etiladigan, volontyorlik faoliyatini birgalikda amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan, o'n nafargacha kishidan iborat bo'lgan shaxslarning ixtiyoriy guruhi;

volontyorlarni muvofiqlashtiruvchi – volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi, volontyorlik tashkiloti tomonidan tayinlangan yoki volontyorlar ishini tashkil etish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish uchun javobgar bo'lgan, volontyorlar guruhi tarkibiga kiruvchi volontyorlar tomonidan saylangan jismoniy shaxs;

volontyorlik – fuqarolar, ularning guruhlar yoki volontyorlik tashkilotlari tomonidan jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab ixtiyoriy faoliyatni amalga oshirish;

volontyorlik aksiyasi – volontyorlik tashkiloti, volontyorlar yoki volontyorlar guruhi tomonidan bajariladigan, ijtimoiy jihatdan aniq yo'naltirilgan, jamoat uchun foydali vazifalarni hal etishga qaratilgan bir martalik tadbir;

volontyorlik tashkiloti – qonunchilikka muvofiq tashkil etilgan va volontyorlik faoliyatini amalga oshiruvchi nodavlat notijorat tashkiloti;

volontyorlik faoliyati – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bepul asosda amalga oshiriladigan, erkin xohish-irodaga ko'ra bajariladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan, jamoat uchun foydali bo'lgan ixtiyoriy faoliyat;

volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi – davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar, shuningdek, volontyorlarni mustaqil ravishda yoki volontyorlik tashkilotlari orqali jalb qiluvchi jismoniy shaxslar.



Volontyorlik faoliyatining maqsad va vazifalari:

Volontyorlik faoliyatining maqsadlari jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman, jamiyatga yordam ko'rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlarda ularni tashkil etuvchilarning roziligi bilan ishtirok etish, jamiyatda fuqarolik nuqtai nazarini, o'zini o'zi tashkil etishni, ijtimoiy mas'uli-

yat, birdamlik, o'zaro yordam berish va rahm-shafqat tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir.

Volontyorlik faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat: fuqarolarni aholining turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan turli xil jamoat faoliyatiga jalb etish mexanizmlarini shakllantirish;

- ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko'rsatish;
- volontyorlik faoliyatini tashkil etishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;

- aholida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash;

- fuqarolar tomonidan ijtimoiy vazifalarni hal etish uchun o'zini o'zi namoyon etish va o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarini olish belgilangan.



5 Декабря
Всемирный день волонтеров



Volontyorlik faoliyatining asosiy prinsiplari – volontyorlik faoliyati qonuniylik, insonparvarlik, tenglik, ixtiyoriylik, beg'arazlik prinsiplariga asoslanishi, **volontyorlik faoliyatining shakllari va asosiy yo'nalishlarini belgilashda** volontyorlik faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlanadi:

- yakka tartibdagi volontyorlik faoliyati;
- volontyorlar guruhi tarkibidagi volontyorlik faoliyati;
- volontyorlik tashkiloti orqali volontyorlik faoliyati.
- kam ta'minlanganlarni, ishsizlarni, ko'p bolalilarni, boshpanasizlarni, qarovsiz qolganlarni, shuningdek, ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj shaxslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida volontyorlik yordami ko'rsatish;

– bemorlarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni, yolg'izlarni, qariyalarni hamda o'zining jismoniy, moddiy yoki boshqa o'ziga xos xususiyatlari sababli qo'llab-quvvatlashga va yordamga muhtoj bo'lgan shaxslarni parvarishlash;

– tabiiy yoki texnogen tushdagi favqulodda vaziyat oqibatida, alohida rejim, favqulodda holat joriy etilganda, ijtimoiy mojaro-lar, baxtsiz hodisalar natijasida jabrlangan fuqarolarga, shuning-dek, jinoyatlardan jabrlanganlarga, qochqinlarga yordam ko'rsa-tish;

– o'zining jismoniy yoki boshqa o'ziga xos xususiyatlari sa-babli o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishi cheklangan shaxslarga yordam ko'rsatish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy merosni, tarixiy-ma-daniy muhitni, dafn etish joylarini saqlab qolish bilan bog'liq tad-birlar o'tkazish;

– ommaviy sport, madaniy tadbirlarni va boshqa jamoat tad-birlarini tashkil etish bilan bog'liq milliy hamda xalqaro ahami-yatga molik tadbirlarni o'tkazishga ko'maklashish;

– alohida davr va favqulodda holat huquqiy rejimlarining amal qilishi vaqtida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga, boshqa harbiy idoralarga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar-ga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga volontyorlik yordami ko'rsatish.

Xulosa qilib aytganda, Volontyorlik faoliyati qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham amalga oshiri-lishi mumkin¹ligi e'tiborga olinishi kerak.

TAYANCH SO'Z VA TUSHUNCHALAR

Volontyorlik, globallashuv, sportni tashkil etish, inson resurs-lari, qonunlar, qarorlar, farmonlar, fanning mazmuni, fanning maqsadi, fanning vazifasi, boshqaruv organlari, bilim, ko'nikma,

¹ O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi "VOLONTYORLIK FAOLIYATI TO'G'RISIDA" GI QONUNI Toshkent sh., 2019-yil 2-dekabr, O'RQ-585-son.

malaka, olimpiya islohotlari, Xuan Antonio Samaranch, volontyorlik tashkiloti, volontyorlar ishini tashkil etish, ularning faoliyatni muvofiqlashtirish, nazorat qilish, volontyorlar guruhi, saylangan jismoniy shaxs, fuqarolar, volontyorlik tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxs, ixtiyoriy faoliyat, volontyorlik aksiyasi, aniq yo'naltirilgan, foydali vazifalar, volontyorlik tashkiloti, qonunchilikka muvofiq, nodavlat notijorat tashkiloti, volontyorlik faoliyati, yuridik shaxslarning manfaatlari, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan, ixtiyoriy faoliyat, volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi, davlat hokimiyati, boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jismoniy shaxslar.

MAVZU YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fanning maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
2. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport rivojiga berilayotgan e'tiborni nimalar orqali izohlab bera olasiz?
3. O'quvchi – yoshlarni ommaviy sport musobaqalari bilan to'la qamrab olishdan ko'zlangan maqsad nima?
4. Fanga tegishli asosiy tushunchalar haqida gapiring
5. Fanga aloqador hukumat qabul qilgan qonunlar, qarorlar va farmonlarda ko'rsatilgan masalalar haqida nimalarni bilasiz?
6. "Tadbirlarni tashkil etish, inson resurslari va volontyorlik faoliyati" faniga aloqador O'zbekiston Respublikasi **"VOLONTYORLIK FAOLIYATI TO'G'RI SIDA"** GI QONUNINING MAZMUNI HAQIDA GAPIRING, QONUNDAGI asosiy tushunchalar BILAN TANISHING VA HAR BIR TUSHUNCHANI IZOHLANG.
7. Qonunning qaysi moddasida "Volontyorlik faoliyati tashkilotchisining vakolatlari" belgilangan va uning mazmuni haqida gapiring?
8. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan mavzuga doir yana qaysi qarorlar va farmonlardan xabardorsiz?
9. Globallashuv nima?
10. Globallashuv jarayonlari butun dunyoda sportning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatayapdi?

11. Xalqaro olimpiya harakatida globallashuv jarayonlari qanday aks ettirilgan?

12. Xuan Antonio Samaranch tomonidan olib borilgan olimpiya islohotlarining mohiyati nimada edi?

5. Professional sport ligalari qanday tamoyillarga asoslanadi?

6. Amerika ligalarida jamoalarning professional mahoratini oshirishga qanday mexanizmlar yordam beradi?

7. Nima uchun davlatlar sportni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishadi, ularning hududlari?

8. Antonio Banfi shoularning barcha turlarini uch turga ajratdi. Ulardan ko'ra farq qiladimi?

9. Sportni rivojlantirishda davlat ishtirokining qaysi modellari bilasiz va ularning har birining xususiyatlari nimada?

10. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2023 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasining maqsadi va vazifalarini sanab bering (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13 -evraldagi 118-sonli qarori bilan tasdiqlangan).

12. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasining asosiy printsiplari nimalardan iborat?

13. O'zbekiston sport delegatsiyalarini nufuzli sport musobaqalariga tizimli tayyorlash bo'yicha qanday markazlarni tashkil etish talab qilinmoqda?

14. Nima maqsadda "xospitaliti xizmatlari"ni yo'lga qo'yish, "Sport Visa" qo'shimcha (elektron bo'lmagan) kirish vizasini joriy etish ko'zda tutilgan.?

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN

TOPSHIRIQLAR:

1. Ommaviy-sport tadbirlarini rivojlanishi tarixi.
2. O'zbekistonda ommaviy-sport tadbirlarini rivojlanishi.
3. Sport-sog'lomlashtirish tadbirlarida milliy o'yinlarni qo'llash shakllari.
4. Ertalabki gigiyenik gimnastikaning strukturasi.

2-MODUL. " YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINI RIVOJLANISHI VA UNING ISTIQBOLLARI.

REJA

1. O'tkaziladigan sport tadbirlari va bayramlarning inson harakat - faolligini oshirishdagi o'rni.

2.O'tkaziladigan sport tadbirlari va bayramlarning insonlar organizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishida hamda ularning faol dam olishiga imkoniyat yaratadigan asosiy omil sifatida.

3.Bugungi kunda Ommaviy sport - sog'lomlashtirish tadbirlari - jamiyatda sog'lom turmush tarzini ta'minlab beradigan tadbir sifatida.

4. Sog'liqni saqlashni bo'yicha pedagogika va sog'liqni saqlashni tejaydigan ta'lim texnologiyalari haqida.



Jismoniy tarbiyaning ahamiyati, uning qiymati, bolalar salomatligibilan chambarchas bog'liq hamda o'quvchilarning harakat faolligini oshiruvchi vosita sifatida ko'riladi. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishi ommaviy sport tadirilarini o'tkazish bevosita bog'liq.

Ya'ni sport musobaqalari, estafetalar, harakatli o'yinlar va x.k. shular jumlasidandir. Bunday o'yinlar, bayramlar qadim zamondan o'tkazilib kelingan. Masalan, har yili Respublikamizda o'tkaziladigan milliy sport bayramlari, O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davrida tiklana boshladi va yildan yilga uning keng ommaviyligi oshib bormoqda. Mashg'ulotlardan tashqari o'tkaziladigan sport tadbirlari va bayramlar o'quvchilarning harakat faolligini oshiradi, bolalar organizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ularning faol dam olishiga imkoniyat yaratadi.

Shuning uchun ham bunday tadbirlar bugungi kunda jismoniy tarbiyaning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki bu o'tkaziladigan tadbirlar yoshlarning harakat faoligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 542-sonli Qarorining² mazmuni va mohiyati Qarorning maqsadi- o'quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish tizimini takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar zaxirasini shakllantirish, shuningdek, sportchilarni tibbiy ta'minlash ishlarini tashkil etish nazarda tutilgan.

Qarorning 3-bandida. Quyidagilar sport klublarining asosiy vazifalari etib belgilangan:

- o'quvchilar va talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish, ularning muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

- o'quvchilar va talabalar o'rtasida sport turlari bo'yicha jamoalar tashkil etish, ular o'rtasida turli sport musobaqalari va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, xususan, "maktab ligasi",

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 542-sonli Qaroridan (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.07.2018-y., 09/18/542/1521-son; 31.10.2019-y., 09/19/898/3890-son).

“talabalar ligasi” tashkil etish orqali iste’dodli yosh sportchilarni aniqlash;

– umumta’lim maktablarida-o’quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o’qituvchilarini jalb qilgan holda iste’dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda bolalar va o’smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish, sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sport to’garaklari bo’yicha haftasiga kamida 4 soatdan sinfdan tashqari sport to’garaklari mashg’ulotlarini tashkil etish;

– jismoniy tarbiya va sport jarayoniga mashg’ulotlar o’tkazish uchun malakali trenerlar va mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, ilg’or tajribani joriy qilish.

Qarorning 5-bandida qo’yidagilar sport klublarining moliyalashtirish manbalari etib belgilangan:

Sport jamiyatning byudjetidan tashqari mablag’lari (umumta’lim maktablari huzurida tashkil qilingan sport klublari uchun); Assotsatsiya mablag’lari (o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalari huzurida tashkil qilingan sport klublari uchun);

Yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

Xorijiy va xalqaro tashkilotlar hamda homiylik davlat grantlari;

Qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar. Yurtimizda sog’lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib, millat genofondini asrash, oilada, jamiyatda sog’lom turmush tarzini shakllantirish, sport turida yuqori natija ko’rsata oladigan qobiliyatli, iste’dodli sportchilarni qidirib topish, sport turlarini rivojlantirish hamda ularning ommaviyligini oshirish, iqtidorli sportchilarni saralash va yuqori malakali murabbiylarni tayyorlash, sport inshootlari quvvatidan to’liq va samarali foydalanishni yo’lga qo’yishdan iboratdir.

Shuningdek, Oliy ta’lim muassasalarida respublikamiz hududlarida barpo etilgan barcha sport inshootlari quvvatidan to’liq va samarali foydalanishni yo’lga qo’yish, jismoniy tarbiya va sportni

yanada rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, ta'lim muassasalarida talabalarni sog'lomlashtirish va muntazam sport bilan shug'ullanishlari uchun sport seksiyalarini tashkil etish, talabalarining darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun oliy ta'lim muassasalari sport zallarida ular bilan o'tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqalar ko'lamini kengaytirish, qolaversa, ommaviy sportni umumxalq harakatiga aylantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarida "Sog'lomlashtirish" sport klubi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi. Talabalarni sport tayyorgarligi, ularni respublika va xalqaro musobaqalarga tayyorlashlari oliy va umumta'lim muassasalarida tashkil etilgan sport klublari orqali yo'lga qo'yiladi.

Oliy ta'lim muassasalari qoshida "Talaba" sport klublarini tuzish orqali talaba-yoshlarning darsdan tashqari ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini yanada takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalari zaxirasini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarining pedagog va boshqa xodimlarini sportga jalb qilish, shuningdek, sport klublari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, faollashtirishga hamda uning moddiy-texnik bazasini tubdan takomillashtirishga qaratiladi.

Ushbu "Talaba" sport klubini tuzish va faoliyat olib borishida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

sport klubi –bir yoki bir nechta sport turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqasi va tadbirlarini o'tkazishni tashkil etish, talaba-yoshlarning darsdan tashqari ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalari zaxirasini shakllantirishga ko'maklas-

huvchi a'zolik asosida tuzilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkiloti;

nodavlat notijorat tashkiloti–jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini-o'zi boshqarish tashkilotidir;

ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari–aholini jismoniy-tarbiya mashg'ulotlariga jalb etishga va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar;

6. Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarining tashkilotchilari qanday huquqlarga ega? Sanab bering.

7. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning vazifalari nimalardan iborat?

8. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi qanday tashkilot, vazifalari va tuzilishi haqida bilasizmi?

9. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi ustavi va maqsadlarini amalga oshirishda nimalarga asoslanadi?

10. Sport federatsiyasi (assotsiatsiyasi) mamlakatda sport sohasi bo'yicha qanday faoliyatni amalga oshiradi?

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 542-sonli Qarorining mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?

12. Qarorning 3-bandida sport klublarining asosiy vazifalari qilib nimalar belgilangan, mulohaza yuriting?

13. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" (2015 yil 4 sentyabrdagi ZRU-394-sonli) qonunida keltirilgan asosiy tushunchalarga ta'rif bering.

14. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining maqsad va vazifalarini ayting.

15. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining asosiy moddalariga tavsif bering.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN TOPSHIRIQLAR:

1. Sharq donishmandlarini shaxsning salomatlik madaniyati va uni jismoniy madaniyat bilan o'zaro bog'liqligi to'g'risida bildirgan fikrlari.
2. Sport klubining maqsadi, vazifalari va ishini tashkil qilish.
3. Sport seksiyalari, individual mashg'ulotlar ishini tashkil qilish.

3-MODUL. SPORT-OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHNING NAZARIY JIHATLARI, TASNIFI.

REJA

1. Ommaviy sport tadbirlari nima?

2. Sport tadbirlari ssenariysi haqida.

3. Ommaviy sport tadbirlari, sport tadbirlari ssenariysi, ommaviy sport va jismoniy tarbiya tadbirlari, musobaqalarni tayyorlash, uning nizomi hamda sistemasi, sport musobaqalari tizimi haqida.

4. Musobaqalar uchun zarur jihozlar, musiqiy hamrohlik, inson resurslari, volontyorlik harakati haqida.

Vatanimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligini ta'minlashning muhim sharti bo'lgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlod tarbiyasiga, jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish ishlariga istiqbolning dastlabki kunlaridanoq kirishildi, 1992-yil yanvarida "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"⁴gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining sog'lom avlodni voyaga yetkazish haqidagi qarashlarida har tomonlama erkin va mustaqil fikrlaydigan, o'z haq-huquqlarini tanqidigan, faqat o'z bilimi, kuchi va imkoniyatlariga (resurslariga) tayanadigan, Vatan va xalq manfaati uchun butun borlig'i bilan kurasha oladigan insonlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport harakatining o'rni va ahamiyati beqiyos ekani o'z ifodasini topdi. Davlat organlari, korxona va tashkilotlar xodimlari hamda aholi o'rtasida turli ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali aholining haftalik harakat-faoliyatini oshirishga erishildi.

⁴ "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni (47-moddasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli qarori bilan qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son).

Sport maktablarida ommaviy sport tadbirlarini uyushtirish

Barcha toifalardagi bolalar va o'smirlar sport maktablarida, asosan, sport mashg'ulotlarini o'tkazish va sport turlari bo'yicha maxsus musobaqalar tashkil qilinib borilsada, ularning ish faoliyatida ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish ham alohida o'ringa ega. Ayniqsa, sport o'yinlari, yengil atletika va boshqa ba'zi sport turlari ommaviylik mazmuniga egadir. Shu sababdan bu turlar bo'yicha musobaqalar uyushtirilganda, boshqa sport maktablari va umumta'lim maktab o'quvchilarining sport jamoalari ham ishtirok etishi mumkin. Ommaviy sport tadbirlarining asosiy shakllari tuman-shahar, viloyat va respublika birinchiliklari, spartakiyadalari, o'rtoqlik uchrashuvlari hisoblanadi. Bunday musobaqalarning zamirida sportchilarning tayyorgarligi, egallangan mahoratlar sinov hamda yirik sport musobaqalari, Xalqaro uchrashuvlar, Markaziy Osiyo, Osiyo va jahon chempionatlariga terma jamoa tayyorlash ko'rigi bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy sport tadbirlarining yana bir shakli va maqsadi shundaki, qaysi sport turi bilan shug'ullanishlaridan qat'iy nazar, o'z jamoalarida tashkil etilgan kross, futbol musobaqalari hamda "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarini bajarish uchun tashkil qilinadigan ommaviy musobaqalarda ishtirok etish shartdir. Bundan asosiy maqsad shuki, sportchilarning jismoniy tayyorgarliklari darajasini muntazam oshirib borishdir. Shu sababdan sport maktablarining kalendar rejalariga ommaviy sport musobaqalarini kiritish va ularni amalda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sport tadbirlari davlatning va uning barcha muassasalarining jismonan rivojlangan shaxsini shakllantirish, mamlakat fuqarolariga ta'lim berish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Sog'lom yo'l - yoshligidan sportga bo'lgan muhabbatni uyg'otadigan hayot. Bu davlatimizning asosiy vazifalaridan biridir.

Ushbu ish doirasida turli xil dasturlar, shu jumladan, TRP kompleksi va professional sportni rivojlantirish bo'yicha loyiha-

lar yaratilmoqda; ishlab chiqilgan taqvim rejaları mazmuni har xil sport va dam olish, madaniy va sport tadbirlari, bayramlar, festivallar bilan to'ldirilmoqda.

Ularning barchasidan turli muammo va masalalarni larni hal qilish uchun foydalaniladi. Ba'zilar jamoatchilik uchun ochiq va har qanday yoshda qatnashish bepul. Ular mahalla, tuman, shahar darajasida jismoniy tarbiya qo'mitalari tomonidan tashkil etilgan. Boshqalari sport to'garaklari va bo'limlarida amalga oshiriladi. Har qanday klubda, mashg'ulotlardan tashqari, siz klub a'zolari, ularning do'stlari, oila a'zolari ishtirokida ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish ustida ishlashingiz mumkin. Bu har qanday yoshdagi yoshlar yoki havaskor sportchilar uchun tashkil etilgan yirik sport brendlarining loyihalari, ularning imkoniyatlarini yengib o'tish dasturlari bo'lishi mumkin. Bunday loyihalarning ahamiyati shundaki, imkon qadar ko'proq odam sport bilan shug'ullanishini, sportga ommaviy ishtiyoqni rivojlantirishi mumkin. Professional tarzda mashq qilish va dunyo rekordlariga erishish shart emas, bu havaskorlik darajasi yoki ommaviy fitness mashqlari kabi sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida qatnashish bo'lishi mumkin.

"Umid nihollari" sport musobaqalarining tashkiliy asoslari, musobaqalarning tashkiliy va boshqaruv mexanizmlari har tomonlama o'rganilib, musobaqalar bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lishi isbotlangan. Musobaqalar bosqichlarini birinchi yil o'tkazish tartibi:

1. Maktab bosqichi (sinflararo musobaqalar). Maktab darajasidagi musobaqalar yilning sentyabr oyidan boshlanib, 1-4, 5-9, 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida sportning belgilangan turlari bo'yicha o'tkaziladi. O'quv yili davomida o'tadigan sinflararo musobaqalarning muddatlari va mas'ul shaxslari aniq ko'rsatilib, tasdiqlangan taqvim asosida, may-iyun oyigacha davom etadi.

Sentyabr-oktyabr oylarida maktabning sport turlaridan yaxshi natijalarni ko'rsatgan, ko'nikma va mahorati yuqori 1-4, 5-9 va 10-11-sinf o'quvchilari orasidan terma jamoalar shakllantirila-

di va ular keyingi bosqich-maktablararo-hudud bosqichi musobaqalarida qatnashadi.

Terma jamoa maktab sport klubi (jamoasining) qaroriga binoan tuzilishi, unga kirgan har bitta o'quvchining sportdagi yutuqlari barchaga ma'lum qilinishi va sport borasida boshqalarga o'rnak sifatida ko'rsatilishi lozim.

1-4, 5-9, 10-11-sinf o'quvchilarining sog'lomligini ta'minlashga qaratilgan musobaqalar bosqichini ushbu tarzda belgilanishi tavsiya etiladi:

- o'quv yili davomida "Umid nihollari" sport musobaqalarining bosqich o'yinlarida olti milliondan ortiq umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quvchilarini uzluksiz, ommaviy sport harakatida ushlab turilishi va bu orqali ularning sog'lomlik darajasini yuqori fiziologik me'yorga yetkazilishi;

- jismoniy tarbiya va sportga oid nazariy va amaliy bilimlarni, uslub va ko'rsatmalarni musobaqalar orqali egallanishi, mustahkamlanishi va rivojlashtirilishi;

- sport turlariga katta qiziqishi bo'lgan yoshlar orasidan jamoatchi instruktor va hakamlarning yetishtirib chiqarilishi;

- yoshlarda sport turlariga bo'lgan qiziqishlarning oshishi, musobaqalarga ommaviy ravishda jalb qilinib, raqobat asosida ular orasidan iqtidorli sportchilarni seleksiya (tanlab olinishi) qilinishi;

- joylarda sport to'garaklarining ochilishiga va yoshlarning sportga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishi;

- sport seksiyalari ishining faollashtirilishi, qiziqarli va bolalar salomatligiga foydali bo'lishi;

- maktab va undan tashqari sport inshootlarini talab darajasiga keltirish, yangilarini qurish va ularni sport anjomlari va jihozlar bilan ta'minlanishidan iborat.

2. Hudud bosqichi (hudud ichidagi maktablararo musobaqalar). Noyabr-dekabr oylarida maktablarning 1-4, 5-9 va 10-11 - sinf o'quvchilaridan tashkil topgan maktab terma jamoalari o'rtasida o'tkaziladi.

Hudud bosqichini amalga oshirish quyidagicha belgilangan:

- maktab bosqichi darajasida bolalar sportining haqiqiy holatining tahlili va uning asosida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi;

- maktab, maktabdan tashqari jismoniy tarbiya va sport turlari bo'yicha musobaqalarning, birinchi-maktab bosqichini uzluk-siz ravishda o'tkazilishini, saralanib chiqqan yoshlar harakati va mahorati bo'yicha mazkur maktab darajasida amalga oshirilayotgan ishlarning yo'lga qo'yilishi;

- sport seksiyalaridagi sport turlari, o'quvchilarning kundalik ommaviy musobaqalarda to'plagan tajriba va mahoratlarining ko'rilishi;

- maktab rahbariyati, jismoniy tarbiya o'qituvchilariga, sport seksiyalarining haqiqiy faoliyatiga, mehnat qilayotgan mutaxassislariga baho berish mumkinligi;

- hudud darajasida eng kuchli maktab jamoasini, mahoratli va istiqbolli yosh sportchilarning aniqlanishi va hudud terma jamoalari tuzilishida inobatga olinishi.

Noyabr oyida (kuzgi ta'tilda) maktablarning 1-4-sinf terma jamoalari uchun hudud final o'yinlari o'tkaziladi.

Mazkur musobaqalarda hududlar g'oliblari aniqlanadi va shu bilan 1-4-sinf maktab terma jamoalarining final o'yinlari yakunlanadi. Ularning natijalariga binoan g'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

1-4-sinf o'quvchilarining musobaqalar bosqichi ushbu tarzda belgilanadi va quyidagilar inobatga olinadi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan ko'nikma va sport turlarining faqat ilk asosini bilishlari va jismoniy harakatga o'yin tarzi orqali birlamchi qiziqishlarining shakllanishi;

- musobaqalarda jamoa bo'lib qatnashib, bir maqsad sari birlashish tajribasining yo'qligi;

- murabbiy kadrlar va sport yo'riqchilari bilan ta'minlanmagan;

- mahorat darajasi yetishmagani, boshqa hududlarga borib musobaqalashish salohiyati to'liq shakllanmagani;

- bellashuvlarning ommaviy tarzda tuman darajasiga olib chiqilishi maqsadga muvofiq emasligi, tashkiliy jihatdan hamda iqtisodiy tomondan samarasizligi.

3. Tuman bosqichi. Yanvar oyida (qishki ta'tilda) maktablarining 5-9- sinf o'quvchilaridan tashkil topgan hudud terma jamoalari o'rtasida tuman final bellashuvlari o'tkaziladi. Hududlararo musobaqalar bosqichida tumanda joylashgan bolalar va o'smirlar sport maktablarining sportchilari qatnashadi. Musobaqalar yakuniga asosan tuman chempioni aniqlanadi, g'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi. Ushbu bosqichda maktablar 5-9-sinf o'quvchilarining hudud terma jamoalari o'rtasidagi final o'yinlari yakunlanadi.

5-9-sinf o'quvchilarining musobaqalar bosqichini o'tkazilishini belgilashda quyidagilarga ahamiyat qaratiladi:

- hududlarda joylashgan Bolalar va o'smirlar sport maktablarida sport turlari bilan shug'ullanayotgan yoshlarni musobaqalarda ko'rsatayotgan natijalari asosida u yerda olib borilayotgan o'quv va amaliy mashg'ulotlarni sifati hamda sport bazasining haqiqiy ahvoli ko'rilishi;

- jamoalar safida qatnashayotgan o'quvchilarni sport musobaqalarida erishgan natijalari asosida joylarda ushbu yoshlar bilan shug'ullanayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport murabbiylarining bilimi va ishga munosabati aniqlanishi;

- maktab, maktabdan tashqari joylarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga moslangan sport bazasiga baho berilishi;

- jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan yondashuvni ilmiy va amaliy yoki maqsadsizligining ko'rilishi;

- hudud bosqichi darajasida bolalar sportining haqiqiy ahvoli va holati asosida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi;

- tuman darajasida eng kuchli hudud jamoasi, mahoratli va istiqbolli yosh sportchilar aniqlanishi va tuman terma jamoalariga nomzod sifatida belgilanishi nazarda tutiladi.

Tuman bosqichi o'yinlarida 8-9-sinf o'quvchilari orasidan yuqori natija ko'rsata olganlar, 10-11-sinf o'quvchilar terma jamoalari tarkibida hududlararo musobaqalarda qatnashish huquqiga ega bo'ladilar.

Yanvar-mart oylarida 8-11-sinf o'quvchilari hamda maxsus bolalar va o'smirlar sport maktablari sportchilaridan tashkil topgan hudud terma jamoalari o'rtasida bellashuvlar o'tkaziladi. Musobaqalar yakunida asosan tuman chempioni aniqlanadi, g'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

4. Viloyat bosqichi. Mart oyida (bahorgi ta'tilda) 8-11-sinf o'quvchilari, bolalar va o'smirlar sport, maxsus sport maktablari-ning sportchilaridan tashkil topgan tuman terma jamoalari o'rtasida viloyat final musobaqalari o'tkaziladi.

8-11-sinf o'quvchilarining viloyat darajasidagi musobaqalar bosqichini belgilashda qo'yidagilar hisobga olindi:

- tumanlarda faoliyat ko'rsatayotgan bolalar va o'smirlar sport maktabi, maxsus bolalar va o'smirlar sport maktablarining faoliyati samaradorligi aniqlanishi;

- tuman darajasida bolalar sportining haqiqiy ahvoli va holatining ko'rilishi, unga asosan tegishli xulosalar qilinishi va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi;

- viloyat darajasidagi musobaqalar orqali eng kuchli tuman jamoasining aniqlanishi va bellashuvlarda kuchli, mahoratli hamda istiqbolli yosh sportchilarning saralanishi;

- viloyat terma jamoasining shakllantirilishi.

Mazkur bosqichdagi musobaqalar viloyat va tuman markazlari hamda tuman ta'lim muassasalarining talabga javob beradigan sport bazalarida o'tkaziladi.

5. Mamlakat bosqichi. Aprel-may oylarida 8-11-sinf o'quvchilari hamda viloyat bolalar-o'smirlar va maxsus sport maktablari sportchilaridan tuzilgan viloyat terma jamoalari o'rtasida final musobaqalari o'tkaziladi.

Mamlakat darajasidagi final musobaqalari tartibini ishlab chiqishda ushbu tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblandi:

- musobaqalarning kompleks ravishda o'tkazilishi;
- musobaqalarni "Hudud va guruh musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish" Nizomiga binoan tashkil qilinishi;
- birinchi va ikkinchi yillarda o'tkaziladigan respublika final bosqichi musobaqalari jamoalarining mahoratini oshishiga turtki bo'lishi va ularning haqiqiy texnika darajasini aniqlashga qaratilishi;
- bitiruv imtihonlariga ta'sir qilmasligi;
- respublika finali musobaqalarining g'oliblariga oliy o'quv muassasalariga imtiyozli kirish huquqini faqat uchinchi yilda berilishi;
- yuqori mahoratli yosh sportchilarning respublika finaliga chiqishi va bellashuvlar natijasida kashf etilgan nufuzli sportchilarning mamlakat terma jamoalariga nomzod va a'zo sifatida qabul qilinishi;
- sport jamoalarini kompleks musobaqa o'tadigan joylarga borib kelishida masofani hisobga olgan holda hududlarning belgilanishi va bu orqali sarf-xarajatlarning tejallishi.

"Umid nihollari" musobaqalari final bosqichini birinchi yil o'tkazish tartibi.

"Umid nihollari" musobaqalari final bosqichi Nizom asosida, kompleks ravishda to'rtta hududda o'tkaziladi. Hududlar viloyat jamoalarining mahorat va imkoniyat darajasi asosida belgilanadi.

1. Birinchi hudud – Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari.

2. Ikkinchi hudud – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlari.

3. Uchinchi hudud – Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari.

4. To'rtinchi hudud – Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari.

Hudud tarkibidagi to'rtta viloyatlarda musobaqalar o'tkaziladi va ularning natijalariga asosan qatnashuvchilarning egallagan o'rnini belgilanadi. g'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

“Umid nihollari” musobaqalari final bosqichlarini ikkinchi yil o‘tkazish tartibi

Ikkinchi yilda bo‘lib o‘tadigan “Umid nihollari” musobaqalari-ning bosqichlari birinchi yilda o‘tkazilgan maktab, hudud, tuman va viloyat bosqichlarining tartibi asosida amalga oshiriladi.

Faqat ikkinchi yilda mamlakat darajasidagi final musobaqalarni o‘tkazish tartibi birinchi yildagi tartibdan farq qiladi. Birinchi yilda mamlakat final musobaqalari 4 hududda o‘tkazilgan bo‘lsa, ikkinchi yilda esa ushbu musobaqalar 2 guruhda aprel-may oylarida o‘tkaziladi.

Birinchi yildagi hudud musobaqalarida 1- va 2-o‘rinni egallagan viloyat jamoalari birinchi guruh davrasida, 3-4 o‘rinni egallagan viloyat jamoalari esa ikkinchi guruhda o‘zaro bellashadilar.

Guruh tarkibida o‘tkazilgan musobaqalarning natijalariga asosan har bitta viloyat jamoasining egallagan o‘rni belgilanadi. G‘oliblar diplom va sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

Birinchi guruhda mutlaq g‘olib bo‘lgan jamoa, uchinchi yilda Respublika final bosqichida ikkita jamoa bo‘lib qatnashish huquqiga ega bo‘ladi.

“Umid nihollari” musobaqa bosqichlarini uchinchi yil o‘tkazish tartibi

Uchinchi yilda bo‘lib o‘tadigan “Umid nihollari” musobaqalarining bosqichlari ikkinchi yilda o‘tkazilgan maktab, hudud, tuman va viloyat bosqichlari tartibi asosida amalga oshiriladi.

Uchinchi yilda mamlakat darajasidagi musobaqalar finali bir guruhda Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori bilan tasdiqlangan rejada belgilangan viloyatda aprel-may oylarida o‘tkaziladi.

1, 2, 3-o‘rinni egallagan viloyat terma jamoalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovg‘asi va Respublika Tashkiliy qo‘mitasining diplomlari bilan taqdirlanadi. Shaxsiy va jamoa

musobaqalarida 1, 2 va 3-o'rinlarni egallaganlar oltin, kumush va bronza medallari bilan taqdirlanadi.

"Barkamol avlod" sport musobaqalarining tashkiliy asoslari.

"Barkamol avlod" musobaqalari tartibini belgilashda quyidagilar inobatga olindi:

- o'quvchi-yoshlarning maktab va sport maktablarida to'plan-
gan jismoniy tarbiya va sportga oid bilim hamda tajribalarini aka-
demik litsey va kasb-hunar kollejlari rivojlantirilishi;

- musobaqalar bosqichini mantiqiy davomiyligi, ommaviylik-
dan sport mahoratiga chiqilishining ta'minlanishi;

- o'quvchilarning kundalik jismoniy harakati, davomiyligi-
ning "Barkamol avlod" sport musobaqalari dasturidan o'rin olgan
sport turlaridan o'tkaziladigan o'yinlarning uzluksizligi orqali ta'-
minlanishi;

- sport turlari bo'yicha qoidalarining yanada o'zlashtirilishi
hisobiga, o'quvchilarning bellashuvlardagi texnika qobiliyatlari
darajasining oshishi;

- yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan chanqoqligi
va talabchanliklarining ortishi hisobiga jismoniy tarbiya o'qituv-
chi va murabbiylarining o'z malaka hamda pedagogik mahoratini
muntazam oshirib turishlariga turtki bo'lishi;

- sport turlaridan malakali sportchilar va hakamlarning yetis-
hib chiqishi;

- yuqori mahoratli sportchilarning mamlakat terma jamoasi
safiga kirishi;

- yoshlarda kundalik sport harakatiga bo'lgan ehtiyojlar to'liq
shakllanishi va dars oralig'ida, undan keyingi vaqtdagi muso-
baqalar orqali yuqori sog'lomlik darajasiga yetishlari;

- qizlar sport harakatining faollashishi.

Musobaqalar o'tkazish to'g'risida "Nizom" qabul qilingan
bo'lib, tasdiqlangan sport musobaqalarining jadvali asosida har
bir musobaqa uchun alohida "Nizom" tuziladi. Jadval musobaqala-

rini tayyorlash va o'tkazish "Nizom" ishlab chiqishdan boshalanadi va bu "Nizom" musobaqa o'tkazishda asosiy hujjat hisoblanadi.

Musobaqa "Nizom"i jismoniy tarbiya jamoasining o'quv-mashg'ulot va sport ishlariga katta ta'sir ko'rsatadi. "Nizom"ni oldindan aniq bilish o'quv-sport ishlarini to'g'ri rejalashtirishga yordam beradi. "Nizom" musobaqada qatnashadigan barcha tashkilotlarga oldindan keragicha yuboriladi.

Musobaqa o'tkazayotgan tashkilot "Nizom" tuzishda quyidagilarni ko'rsatishi lozim:

1. Musobaqaning maqsadi va vazifasi. Musobaqaning maqsadi (o'quv ishiga yakun yasash, kuchli jamoalarni aniqlash, basketbolni ommalashtirish va h.k.) musobaqaning ko'lami va turiga bog'liq bo'ladi.

2. Musobaqaning o'tkazish joyi va vaqti. Musobaqa o'tkaziladigan shahar (inshoot) ko'rsatiladi va kunlari belgilanadi.

3. Musobaqani boshqarish. Musobaqani tashkil quluvchilar va rahbarlar hamda hakamlar birlashmasi va ularni tasdiqlovchi tashkilot ko'rsatiladi.

4. Musobaqa qatnashuvchilari. Musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni va nomi ko'rsatiladi; talabnomaga kiritiladigan qatnashuvchilarning eng ko'p soni, yoshi va ularning malakasi belgilanadi.

5. Musobaqani o'tkazish shartlari. Musobaqalar qaysi usul (aylanma, chiqib ketish, aralash) bo'yicha o'tkazilishi batafsil ko'rsatiladi. Qur'a tashlash vaqti, joyi va uning asosiy shartlari ma'lum qilinadi. Musobaqa natijalarini aniqlash tartiblari belgilanadi (ochkolar soni bir xil, durang, o'yinga kelmaslik va boshqa hollar).

6. Noroziliklarni taqdim etish shartlari va ularni ko'rib chiqish tartibi.

7. Tashkilotlarni, jamoalarni, qatnashuvchilarni va murabbiylarni mukofotlash. Tashkilotlar, jamoalar, qatnashchilar va murabbiylar qaysi o'rin uchun nima bilan mukofotlanishlari ko'rsatiladi.

8. Jamoalarni qabul qilib olish. Mablag' ajratuvchi tashkilotning kelish va ketish muddatlari, joylashtirish va ovqatlantirish sharoitlari ko'rsatiladi.

9. Talabnomani va qayta talabnomani taqdim etish turlari va vaqti -jamoalar va qatnashchilarni rasmiylashtirish tartibi hamda zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlar (pasport, toifa bileti va boshqalar) ko'rsatiladi.

10. Maxsus shartlar: jamoalar tarkibida baland bo'yli o'yinchilarning mavjudligi, himoyaning maxsus (yakka) tizimini qo'llashni talab qilish, musobaqada qatnashish uchun nazorat mezonlarini topshirish shartli qo'yilishi va h.k. Musobaqaga qatnashish uchun sportchini qo'yish masalasi nizomga muvofiq mandat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Musobaqaga qo'yish javobgarligini o'z zimmasiga bosh hakam, musobaqaning bosh doktori va mandat komissiyasi zimmasiga yuklatiladi.

"Barkamol avlod" sport musobaqalari bosqichlarining birinchi yil o'tkazish tartibi:

"Barkamol avlod" musobaqalarining bosqichlari belgilangan tamoyillar asosida, tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish tartibi har tomonlama o'rganilib, quyidagi tarzda o'tkazilishi taklif qilingan:

1. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji bosqichi (guruh va kurslararo musobaqalar). O'quv yurti darajasidagi musobaqalar yilning sentyabr oyidan guruh va kurslar o'rtasida sportning belgilangan turlari bo'yicha o'tkaziladi. Mazkur musobaqalar taqvim asosida may-iyun oyigacha davom etadi.

Sentyabr-yanvar oylarida o'quv muassasalarining terma jamoalari tuziladi va ular keyingi tuman bosqichi musobaqalarida qatnashadi.

Yangi uzluksiz ta'lim tizimiga to'la o'tilib, 10-11 sinflar tugatilguniga qadar, akademik litsey va kasb-hunar kolleji bosqichidan tuman bosqichiga to'g'ridan-to'g'ri chiqilardi, yangi ta'lim tizimi

to'liq joriy qilingandan keyin hududiy bosqich musobaqalari joriy qilinadi va mazkur bosqichdan tuman darajasiga chiqiladi.

2. Tuman bosqichi. Yanvar-fevral oylarida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari terma jamoalari o'rtasida tuman final bel-lashuvlari o'tkazilib, tuman g'olibi aniqlanadi.

3. Viloyat bosqichi. Fevral-mart oylarida tuman akademik lit-sey va kasb-hunar kolleji sportchilaridan tashkil topgan terma ja-moalari o'rtasida viloyat final musobaqalari o'tkaziladi.

Ushbu bosqichdagi musobaqalar viloyat va tuman markazla-ri hamda o'quv yurti sport bazalarida o'tkazilib, viloyat g'oliblari aniqlanadi.

4. Mamlakat bosqichi. Aprel-may oylarida viloyat Olimpiya zahiralari sport kolleji hamda akademik litsey va kasb-hunar kol-leji sportchilaridan tuzilgan viloyat terma jamoalari o'rtasida fi-nal musobaqalari o'tkaziladi.

"Barkamol avlod" musobaqalari final bosqichi kompleks ravishda to'rtta hududda o'tkaziladi:

1. Birinchi hudud – Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari.

2. Ikkinchi hudud – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlari.

3. Uchinchi hudud – Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Sir-daryo va Jizzax viloyatlari.

4. To'rtinchi hudud – Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari.

Hudud tarkibidagi to'rtta viloyatda musobaqalar o'tkaziladi va ularning natijalariga asosan qatnashuvchilarning egallagan o'rni belgilanadi. G'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Guruh tarkibidagi viloyatlarda sport turlari bo'yicha muso-baqalar o'tkaziladi va ularning natijalariga asosan viloyatlarning egallagan o'rni belgilanadi. G'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

“Barkamol avlod” sport musobaqalari bosqichlarini ikkinchi yil o‘tkazish tartibi:

Ikkinchi yilda bo‘lib o‘tadigan “Barkamol avlod” sport musobaqalarining bosqichlari birinchi yilda o‘tkazilgan akademik litsey va kasb-hunar kolleji, tuman, viloyat bosqichlarining tartibi asosida amalga oshiriladi. Ikkinchi yilda mamlakat darajasidagi final musobaqalarni o‘tkazish tartibi birinchi yildagi tartibdan farq qilib, ikkinchi yilda musobaqalar 2-guruhda aprel-may oylarida o‘tkaziladi.

Birinchi yildagi hudud musobaqalarida 1-2-o‘rinni egallagan viloyat jamoalari birinchi guruh davrasida, 3-4-o‘rinni egallagan viloyat jamoalari esa ikkinchi guruhda o‘zaro bellashadilar.

Guruh tarkibida o‘tkazilgan musobaqalar natijalariga asosan har bitta viloyat jamoasining egallagan o‘rni belgilanadi. G‘oliblar diplom va sovg‘alar bilan taqdirlanadi. Birinchi guruhda mutlaq g‘olib bo‘lgan jamoa, uchinchi yilda respublika final bosqichida ikkita jamoa bo‘lib qatnashish huquqiga ega bo‘ladi.

“Barkamol avlod” musobaqalari bosqichlarini uchinchi yil o‘tkazish tartibi.

Uchinchi yilda bo‘lib o‘tadigan “Barkamol avlod” sport musobaqalarining bosqichlari ikkinchi yilda o‘tkazilgan akademik litsey va kasb-hunar kolleji, tuman va viloyat bosqichlari tartibi asosida amalga oshiriladi.

Uchinchi yilda mamlakat darajasidagi musobaqalar finali bir guruhda Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”⁵ gi qarori bilan tasdiqlangan rejada belgilangan viloyatda aprel-may oylarida o‘tkaziladi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida” gi 244-son qarori. 03.06.2003 yil. (25.10.2018-yilda o‘z kuchini yo‘qotgan).

1-2-3-o'rinni egallagan viloyat terma jamoalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovg'asi va Respublika Tashkiliy qo'mitasining diplomlari bilan taqdirlanadi. Shaxsiy va jamoa musobaqalarida 1-2- va 3-o'rinlarni egallaganlar oltin, kumush va bronza medallari bilan taqdirlanadi. "Universiyada" sport musobaqalarining tashkiliy asoslari "Universiyada" musobaqalarining bosqichlari belgilangan tamoyillar asosida, uning tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish tartibi har tomonlama o'rganilib, quyidagi tarzda o'tkazilishi taklif qilingan:

"Universiyada" sport musobaqalari tartibini belgilashda quyidagilar inobatga olinadi:

- akademik litsey, kasb-hunar kolleji va sport maktablarida to'plangan sportga oid bilim hamda tajribani oliygohlarda ro'yo-bga chiqarilishi;

- talabalarining kundalik jismoniy harakati uzluksizligining "Universiyada" sport musobaqalari dasturidan o'rin olgan sport turlaridan o'tkaziladigan o'yinlar orqali ta'minlanishi;

- musobaqa bosqichlarini mantiqiy davomiyligi, kundalik sport harakatini ommaviyligining ta'minlanishi bilan oliy sport mahoratining namoyon etilishi;

- sport turlari bo'yicha qoidalarning yanada o'zlashtirilishi hisobiga talabalarda birinchi bosqich bellashuvlarida yuqori texnik mahoratning rivojlanishi;

- talabalarining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan chanqoqligi va talabchanliklari oshishi hisobiga jismoniy tarbiya o'qituvchi va murabbiylarini o'z malaka hamda pedagogik mahoratini zamon talabiga yetkazishlariga turtki bo'lishi;

- sport turlaridan malakali sportchilar va hakamlarning yetishib chiqishi;

- yoshlarda kundalik sport harakatiga bo'lgan ehtiyojlarning to'liq shakllanishi, dars va darsdan keyingi vaqtdagi musobaqalar orqali yuqori sog'lomlik darajasiga yetishlari;

- sport turlariga bo'lgan qiziqishning faollashishi;

- qizlarni sport harakatida faol holatga kelishi;

– yuqori mahoratli sportchilarning mamlakat terma jamoasi safiga kirishi;

– yoshlarda sport bilan shug'ullanish kundalik ehtiyojga aylanishi va har jihatdan sog'lomlik darajasiga yetishlari.

“Universiyada” sport musobaqalari bosqichlarining birinchi yil o'tkazish tartibi.

1. Oliy ta'lim muassasasi bosqichi (guruh, kurs va fakultetlararo musobaqalar). O'quv yurti darajasidagi musobaqalar yilning sentyabr oyidan boshlab guruh, kurs va fakultetlar o'rtasida sportning belgilangan turlari bo'yicha o'tkaziladi. Mazkur guruh, kurs va fakultetlararo musobaqalar har birining muddati, mas'ullari aniq ko'rsatilib, tasdiqlangan taqvim asosida may oyigacha davom etadi. G'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Sentyabr– guruh, oktyabr– kurs, noyabr – fakultet va dekabr oylarida oliy ta'lim muassasasining terma jamoasi shakllantiriladi.

2. Viloyat bosqichi. “Talaba” sport jamiyati boshchiligida oliy ta'lim muassasalarining terma jamoalari yanvar-mart oylarida “Musobaqalar dasturida” belgilangan sport turlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar darajasidagi musobaqalarda o'zaro bellashadilar. G'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi. Musobaqalar yakuniga binoan, sport turlaridan tuzilgan viloyat terma jamoalari mamlakat darajasidagi birinchilik musobaqalarida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar. Viloyat bosqichidagi musobaqalar viloyat va tuman markazlari hamda o'quv yurti sport bazalarida o'tkaziladi.

3. Mamlakat bosqichi. Viloyat terma jamoalari o'rtasida mamlakat darajasida birinchilik o'tkaziladi (birinchi va ikkinchi liga).

“Talaba” sport jamiyati viloyatlarda sport turlaridan o'tkaziladigan birinchilik musobaqalarini **O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi** bilan kelishgan holda boshqaradi. Birinchilik natijalariga asosan viloyatlarning sport turlaridan egallagan o'rni belgilanadi. G'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

“Universiyada” musobaqalar bosqichlarini ikkinchi yil o‘tkazish tartibi:

Ikkinchi yilda bo‘lib o‘tadigan “Universiyada” musobaqalarining bosqichlari birinchi yilda o‘tkazilgan tartib asosida amalga oshiriladi. Viloyat bosqichidagi musobaqalar viloyat va tuman markazlari hamda o‘quv yurti sport bazalarida o‘tkaziladi. Mamlakat bosqichi. Hududning oliy o‘quv muassasalari sportchilaridan tuzilgan sport turlari bo‘yicha viloyat terma jamoalari o‘rtasida mamlakat darajasida birinchiliklar o‘tkaziladi.

“Talaba” sport jamiyati viloyatlarda sport turlaridan o‘tkaziladigan chempionat musobaqalarini **O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi** bilan kelishgan holda bosqaradi. Birinchilik natijalariga asosan viloyatlarning sport turlaridan egallagan o‘rni belgilanadi. G‘oliblar diplom va sovg‘alar bilan taqdirlanadi. “Universiada” musobaqalar bosqichlarini uchinchi yil o‘tkazish tartibi Uchinchi yilda bo‘lib o‘tadigan “Universiada” musobaqalarining bosqichlari ikkinchi yilda o‘tkazilgan tartibi asosida amalga oshiriladi. Uchinchi yilda mamlakat darajasidagi musobaqalar finali Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan rejada belgilangan viloyatda, aprel-may oylarida o‘tkaziladi.

Toshkent shahrida oliy ta‘lim muassalarining katta miqdori joylashgani hisobiga poytaxt jamoasi final musobaqalarida ikkita terma jamoa bo‘lib ishtirok etadi.

1, 2, 3-o‘rinni egallagan viloyat terma jamoalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovg‘asi va Respublika Tashkiliy qo‘mitasining diplomlari bilan taqdirlanadi. Shaxsiy va jamoa musobaqalarida 1, 2 va 3-o‘rinlarni egallaganlar oltin, kumush va bronza medallari bilan taqdirlanadi.

Uzluksiz sport musobaqalari tizimi joriy etilgan davr mobaynida quydagi natijalarga erishildi:

1. Respublika "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" final musobaqalarining har birini uch yilda bir marotaba o'tkazish tartibi belgilanib, 6,5 milliondan ortiq o'quvchi va talabalarining asosiy qismini uch yil davomida uzluksiz ravishda harakatlantirish modeli tuzildi.

2. Barcha turdagi ta'lim muassasasi darajasidagi sinflar va guruhlararo, fakul'tetlararo bellashuvlarni yil davomida uzluksiz o'tkazish hisobiga o'quvchi yoshlarning ommaviy ravishda harakatlanish tartibi belgilandi.

3. Mamlakatimizdagi barcha turdagi o'quv muassasida o'tadigan bosqich musobaqalari hamda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining harakat faoliyatini, musobaqalar bosqichlari oralig'idagi o'zgarishlarni monitoring qilish mexanizmi ishlab chiqildi.

4. Sinflar va guruhlararo, maktablararo, litsey va kollejlarda, oliy ta'lim muassasalariaro, guruhlararo va tumanlararo bosqich o'yinlarini tasdiqlangan tartib asosida o'tkazilishi belgilangan.

Mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan hayotga joriy qilingan mazkur tizim har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu tizim musobaqalarida ishtirok etgan o'quvchi va talabalar nafaqat jismoniy, balki ma'naviy va intellektual jihatdan ham kamol topadi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu yagona tizim mamlakatimizda yangi barkamol avlodni tarbiyalash va uning shuhratini dunyoga tanitishga asoslangandir.



Musobaqalar o'tkazish uchun dastlab o'tkaziladigan joy keyin esa yangi boshlovchi yoki tajribali sportchi bo'ladimi, eng yaxshi sharoitlarda, musobaqada qatnashish va sport bilan shug'ullanish uchun yaxshi jihozlangan bo'lishi muhimdir. Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan barcha jihozlar xavfsiz va optimal bo'lishi kerak.

Stadionlar va sport-sog'lomlashtirish markazlari eng yirik sport va ko'ngilochar tadbirlar markazlari sifatida ustuvor ahamiyatga ega.

Bugungi kunda sport inshootlarini moliyalashtirish masalalari sport-ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazishda katta rol o'ynaydi. Sport inshootlari rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov sport bayramlarining muvaffaqiyati, birinchi navbatda, tadbirning ajoyib tomoniga (respondentlarning 62,3% javobiga) va kamroq darajada moliyalashtirilishga (14,2%) bog'liqligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, rahbarlar (41,2%) sport va ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish uchun qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini izlashga majbur bo'ladilar.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, sport homiyligida uchta komponent mavjud: **sport reklamasi, jamoatchilik bilan aloqalar, tovarlar va xizmatlarni sotishga ko'maklashish.** Homiy firmalar reklama (sportchi – mahsulot yoki xizmat) tovarlar va xizmatlar shuhrat darajasini oshirish uchun reklama tasvirni o'tkazish kabi asosiy maqsadlarga erishishdan iborat.

TAYANCH SO'Z VA TUSHUNCHALAR

Ommaviy sport, tadbirlar ssenariysi, tayyorlash, musobaqalarni tayyorlash, musobaqa nizomi, sistemasi, tizimi, zarur jihozlar, musiqiy hamrohlik, inson resurslari, volontyorlik, volontyorlik harakati, sport musobaqalari tizimi, sport jihozlari, musiqiy hamrohlik, inson resurslari, homiy, inshootlar, moliyalashtirish.

MAVZU BO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ommaviy sport tadbirlarining maqsadi va vazifasi haqida ma'lumot bering?

3. Ommaviy sport tadbirlari ssenariysi nima, u qanday tuzilishga ega?

4. Musobaqalarni tayyorlash, uning nizomi, sistemasi va tizimi haqida bilganlaringizni so'zlab bering.

4. Musobaqalarni o'tkazishda volontyorlik harakatining o'rnini qanday?

5. Musobaqalarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan jihozlarni sanab bering.

6. Musiqiy hamrohlik, inson resurslari tadbirlar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini yoritib bering?

7. "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi dastlabki qonun qachon qabul qilingan va uning mazmuni haqida gapiring?

8. Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va sport harakatining o'rnini va ahamiyati qay darajada ahamiyatli ekanligini hayotiy misollar bilan tushuntirib berishga harakat qiling?

9. "Barkamol avlod" musobaqalari bosqichlari va uni o'tkazish tartibi haqida gapiring.

10. "Universiyada" sport musobaqalari va uni o'tkazish tartibi haqida nimalarni bilasiz?

11. "Umid nihollari" sport musobaqalarining tashkiliy asoslari, boshqaruv mexanizmlari hamda o'tkazish tartibi haqida ma'lumot bering.

12. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining tamoyillarini sanab o'ting. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini aytib bering.

13. Sog'liqni saqlashni yaxshilash tamoyilining mohiyati nimada?

14. Sog'liqni saqlash bilan bog'liq jismoniy madaniyatning asosiy yo'nalishlariga tavsif bering.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN TOPSHIRIQLAR:

1. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyani odamning umumiy madaniyatidagi roli va ahamiyati.

2. Harakat- faolligining shakllari.

3. Mustaqil mashg'ulotlarni shakllari va tashkil qilinishi.

4-MODUL. OMMAVIY SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARINI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH VA TADBIRLARNING AXBOROT TIZIMINI YARATISH.

REJA:

1. Tadbirlar tarkibi, maqsad va vazifalarni shakllantirish, ularni barcha ishtirokchilarga yetkazish.
2. Sport musobaqalarining kalendar rejasi mazmuni va ushbu hujjatning ahamiyati.
3. Tadbir uchun yetarli darajada reklama, e'lon, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va keng ommani jalb qilish.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishini ilmiy asosda ta'minlash masalalariga juda katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, bu borada mazkur yo'nalishga oid fanlarni rivojlantirish, sport va jismoniy tarbiya tadbirlarini ilmiy asosda tashkil etish, ilmiy infrastrukturani rivojlantirish hamda mazkur jarayonlarda ilm-fan yutuqlari va sport sohasidagi ilg'or jahon tajribasiga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tgan davr ichida ommaviy sport harakatini samarali rivojlantirish yuzasidan mamlakatimiz ilm-fani oldiga bir qator vazifalar qo'yilib, ularning ijobiy hal etilishiga erishildi. Bunday vazifalar qatoriga mazkur masalaning huquqiy, iqtisodiy, pedagogik, tibbiy-biologik, ijtimoiy-falsafiy, yosh avlodni jismoniy barkamol qilib voyaga yetkazish hamda ushbu jarayonlarning tashkiliy jihatlarni ta'minlash kabi muammolar majmuasi kiradi.

Lekin, tahlillarning ko'rsatishicha, ertangi kun talablari asosida jismoniy tarbiya va sport fanini samarali tashkil etish va bosqarish, uni ustuvor tarzda rivojlantirish kabi masalalarni ishlab chiqish talab etiladi.

Alohida ta'kidlash kerakki, ilmiy tadqiqotlarni quyidagi mezonlar asosida amalga oshirish faoliyatimiz samaradorligini ta'minlaydi:

- tadqiqotlarning aniq maqsadga yo'naltirilganligi;
- boshqaruv va tadbirlarni rejalashtirish jarayonlarining natijaviyligi.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport fanini rivojlantirish yuzasidan qator tadbirlarni, jumladan, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- davlat grantlari, shartnoma va xorijiy grantlar asosida bajarilayotgan ilmiy loyihalar tajribasini umumlashtirgan holda, fundamental, davlat ilmiy-texnika va boshqa dasturlarni belgilash;

- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ustuvorliklariga javob beruvchi maqsadli mavzularni shakllantirish hamda tarqoq-mayda mavzulikka barham berish;

- ilmiy loyihalarni shakllantirishda "loyihaviy yondashuv"-ning ustuvorligini ta'minlash;

- oliy ta'lim muassasalari va manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda bajariladigan fanlararo va tarmoqlararo loyihalarni shakllantirishda ilmiy-tashkiliy tayyorgarlik ishlarini tizimli yo'lga qo'yish;

- ilmiy dasturlarning sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida loyihaga jalb etilgan va etiladigan ijrochilarning tarkibini tanqidiy baholash;

- innovatsiya loyihalarini shakllantirish jarayonini "fundamental izlanishlar - amaliy tadqiqotlar - innovatsiya ishlari dasturlari" uzviy bog'liqligi tamoyili asosida tashkil etish;

- grant loyihalarining o'z vaqtida, sifatli bajarilishini ta'minlashda monitoring va ilmiy jamoatchilik muhokamasi institutlaridan samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yish (ilmiy seminar, ilmiy kengash va boshqalar);

- ommaviy va professional sport samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan davlat talablari, namunali andozalar hamda turli yo'nalishlarga oid mezon va mexanizmlarni ishlab chiqish;

- jismoniy tarbiya va sport o'quv mashg'ulotlari sifati, aholining jismoniy va sport-texnikaviy tayyorgarligi monitoringining unifikatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish.

Jismoniy tarbiya va sport fanining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq:

- jismoniy tarbiya va sport sohasini bozor munosabatlari sharoitida samarali rivojlantirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

- jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi va shaxsning xususiyatlari-ni hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari, mezonlari, saralash mexanizmlarini asoslash;

- boy madaniy-milliy merosimiz, umuminsoniy qadriyatlar va mavjud ilg'or tajribalar asosida o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashning samarali tizimini ishlab chiqish;

- tarixiy-madaniy, sport va jismoniy tarbiya an'analari, etnopsixologiya, xalq pedagogikasi vositalari hamda jahon ilg'or tajribalaridan unumli foydalanishni asoslash.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarni amalga oshirishda quyidagi vositalardan samarali foydalanish ko'zda tutiladi:

- loyihaning bajarilishi jarayonlariga mos ravishda uning ilmiy seminarlardagi muhokamasini uyushtirish;

- monitoring komissiyalarining faolligi va xulosalarining obektivligini ta'minlash yuzasidan tegishli ilmiy-tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish.

Tahlillarning ko'rsatishicha, mazkur yo'nalishdagi oliy sport faoliyat samaradorligini oshirishda "Sport yutuqlarini rivojlantirish ilmiy markazi"ning tashkil etilganligi katta ahamiyat kasb etadi (taklif asosida mazkur markaz 2003-yilda tashkil etilgan).

"Sport yutuqlarini rivojlantirish ilmiy Markazi"⁶ning maqsadi oliy sport yutuqlarini rivojlantirish va jismoniy tarbiyani takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvorliklarini ishlab chiqish, fundamental va amaliy tadqiqotlarning dasturlarini asoslash hamda ilmiy izlanishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Markazning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- terma jamoalarni tayyorlashning metodologik va umum-uslubiy masalalarini asoslash;

⁶ "Sport yutuqlarini rivojlantirish markazi" Davlat korxonasi. 2005-yil, 5-aprel.

- ommaviy sport va sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya yuzasidan ilmiy tavsiya va takliflarni ishlab chiqish;
- sport marketingi va menejmenti yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish;
- yuqori malakali sportchilarda antidoping nazoratini tashkil etish va amalga oshirish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasida o'quv-trening, maslahat-yordam va axborot xizmatini amalga oshirish;
- soha bo'yicha ishlab chiqilgan yangi texnologiya va uslublarni ilmiy ekspertizadan o'tkazish va amaliyotda qo'llash uchun xulosa berish.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda, ushbu markazning ilmiy-tashkiliy faoliyatini yanada takomillashtirishning obyektiv zaruriyati mavjud bo'lib, mazkur jarayonlarda tadqiqotlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dolzarb muammolarni hal etishda fanlararo tadqiqotlarga ustuvorlik berish, tanlovlarning maqsadli-natijaviyligi va oshkoraligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu jarayonda quyidagi yo'nalishlarga ustuvorlik berish nazarda tutilgan:

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti hamda milliy xavfsizlikni ta'minlashda jismoniy tarbiya va sportning belgilovchi omillarini aniqlash;
- ustuvor darajadagi sport turlarini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar, biotabiiy sharoitlar va sport-tashkiliy tadbirlar majmuasini ishlab chiqish;
- sport sohasidagi jahon tendensiyalarining chuqur tahlili asosida jismoniy tarbiya va sport sohalarini rivojlantirish yuzasidan strategik xulosa va takliflarni asoslash.

Jismoniy tarbiya va sport fanini samarali tashkil etishni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarga mos ravishda Davlat grantlari asosidagi ilmiy loyhalar tanlovlarida qatnashish uchun quyidagi "sifatli tayyorgarlik" mexanizmi asosida yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir:

– Ilmiy markaz, **O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti** va izlanishlar olib borayotgan boshqa muassasalar, soha ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy loyihalarni asosiy iste'molchi muhokamasiga tavsiya etadi (**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, Sport turlari bo'yicha federatsiyalar va boshqalar**);

– iste'molchilar tomonidan loyihalar muhokamasi amalga oshirilib, maqsadga muvofiq loyihalar taqdim etilishi tavsiya qilinadi;

– tanlovga loyihalar bo'yicha hisobotlar va ilmiy natijalar birlamchi holatda iste'molchilar tomonidan baholanib, ilmiy natijalarning amaliyotda qo'llanishi yuzasidan kafolat majburiyati olinadi;

– tavsiya etilmagan loyiha ham grantga iste'molchining fikri ilova etilgan holda taqdim etilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarning sifatli va jahon talablari darajasida bajarilishi hamda xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikning imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida, jumladan, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– barcha ilmiy yo'nalishlar bo'yicha xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, xorijiy grantlarni bajarish va xalqaro ilmiy loyihalarda qatnashishni ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarni tizimli amalga oshirish;

– muhim ilmiy yo'nalish va salohiyatli bazaga ega kafedra, bo'lim va laboratoriyalar negizida nufuzli xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlikdagi tuzilmalarni tashkil etish;

– reja asosida, doimiy ravishda xorijiy olim va mutaxassislarining ixtisoslashtirilgan ma'ruza hamda treninglarini tashkil etish;

– xorijiy ilmiy markazlarda bo'lib qaytgan, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, shartnoma va grant asosida xalqaro ilmiy loyihalarda qatnashgan xodimlarning ilmiy muhokamasini tashkil etishni yo'lga qo'yish;

– xorijiy grantlarni jalb etish yuzasidan amaliy faoliyatni yanada kuchaytirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning ilmiy asoslarini kuchaytirishda "Sport yutuqlarini rivojlantirish respublika ilmiy markazi", O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va boshqa tuzilmalarning faolligini oshirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash bo'yicha:

- jismoniy tarbiya va sport bo'yicha o'quv adabiyotlarini yaratish yuzasidan manfaatdor muassasalar va vazirliklar bilan 5 yilga mo'ljallangan hamkorlik shartnomalarini imzolash;

- ta'lim muassasalari va keng iste'molchiga mo'ljallangan jismoniy tarbiya yuzasidan multimedia, ilmiy ommabop elektron kitob va albomlar yaratishni keng yo'lga qo'yish. Sport turlari bo'yicha maxsus trening elektron adabiyotlarni tayyorlash;

- ilmiy-tadqiqot jarayonlarida magistrlardan samarali foydalanish va ular asosida kadrlar rezervini shakllantirish ishlarini samarali yo'lga qo'yish;

- ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan iqtidorli yosh ilmiy xodimlar malakasini oshirish hamda ularning jahonning nufuzli ilmiy markazlarida ish olib borishlariga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni "Iste'dod" jamg'armasi bilan birgalikda ishlab chiqib, mazkur amaliyotni muntazam davom ettirib borishni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirish, ilmiy va ta'lim muassasalarining axborot tizimidagi samarali faoliyatini ta'minlash yuzasidan:

- sohada tadqiqotlar olib borayotgan ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining saytlarini zamon talablari asosida qayta shakllantirish, ularni muttasil boyitib va takomillashtirib borish;

- ilmiy axborotlar korporativ tizimini yaratish;

- ta'lim va ilmiy muassasalarning multimedia, elektron adabiyot va albomlar yaratish yuzasidan hamkorliklarini yo'lga qo'yish.

Tizimda ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini keskin oshirish yuzasidan qator tadbirlar, jumladan, quyidagilarni amalga oshirish zarur:

– tajriba-eksperimental bazani mustahkamlash va rivojlantirishda manfaatdor vazirlik va muassasalarning, jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

– xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan maqsadli dasturlarni, jumladan, qo'shma korxonalar, birgalikdagi laboratoriya va ilmiy markazlarni tashkil etish bo'yicha tegishli dasturlarni ishlab chiqish;

– o'quv, ilmiy, ommabop, elektron mahsulotlar (multi-media va boshqalar) ishlab chiqishni keng yo'lga qo'yish.

Korporativ boshqaruv va marketing ishlari yuzasidan birinchi navbatda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– jismoniy tarbiya va sport sohasi rahbar xodimlarida korporativ menejment ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi Oliy biznes maktabi⁷ bilan hamkorlikni yaqindan yo'lga qo'yish;

– sport sohasida kuchli marketing tizimini shakllantirish va rivojlantirish ishlarini yo'lga qo'yish.

Sport tashkilotlari va jamiyatlarining asosiy faoliyatlarini aks ettiruvchi omillardan biri-sport musobaqalarining kalendar rejasi hisoblanadi.

Qonunning 5-moddasi "Jismoniy tarbiya va sport subyektlari" haqida ma'lumot berilgan va jismoniy tarbiya va sport subyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari, shu jumladan, sport-texnika tashkilotlari, jismoniy tarbiya-sport jamiyatlari, sport klublari, sport tayyorgarligi markazlari;

- sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari;

- sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantiruvchi tashkilotlar;

– jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari;

– ixtisoslashtirilgan sport-ta'lim muassasalari;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tadqiqotlarni amalga oshiruvchi ilmiy tashkilotlar;

– jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi fuqarolar, sportchilar, sport hakamlari, trenerlar, sport bo'yicha agentlar hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislar, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ishtirokchilari hamda tomoshabinlari;

– ushbu Qonunga muvofiq boshqa organlar va tashkilotlar kirishi qayd qilingan.

Qonunning 2-bob 6-moddasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash haqida shunday deyiladi:

– sportchilarning sport tadbirlarida ishtirok etishini ta'minlash;

– jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari tomonidan moddiy-texnika va axborot resurslaridan, shuningdek, ilmiy-tadqiqotga oid va texnik ishlanmalar hamda texnologiyalardan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– davlat mulkida bo'lgan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarini saqlash;

– sport tayyorgarligi bo'yicha yangi bazalar va markazlarni, sport-ta'lim muassasalarini, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan sport-ta'lim muassasalarini, shuningdek, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarini qurish hamda ishlab turganlarini rekonstruksiya qilish;

– sport klublari va maktablari, sport-ta'lim muassasalari, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan sport-ta'lim muassasalari, sport-sog'lomlashtirish oromgohlari, tibbiy-jismoniy tarbiya dispanserlari faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– jismoniy tarbiya va sport vositalaridan aholining, shu jumladan, ayollar va yoshlarning, shuningdek, nogironlarning sog'lig'i-

ni mustahkamlash maqsadida foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- nogironlarning va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarning paralimpiya hamda surdlimpiya o'yinlarida, nogironlar o'rtasidagi maxsus olimpiadalar va boshqa sport tadbirlarida ishtirok etishini rivojlantirish hamda ta'minlashga ko'maklashish;

- sport tadbirlarini, ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish;

- jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarining xalqaro hamkorligiga ko'maklashish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dasturlarni, ilmiy-uslubiy tizimlarni va kompleks ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish yo'li bilan amalga oshirilishi belgilangan bo'lsa, 7-moddada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- jismoniy tarbiya va sport sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini hamda maqsadli dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini, shuningdek, sport turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalarini shakllantirish tartibini belgilaydi;

- xalqaro hamda respublika miqyosidagi Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini, shuningdek, Sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini tasdiqlaydi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining, boshqa davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda yo'naltiradi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyor-

lash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi, 8-modda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari belgilangan va unga ko'ra:

Maxsus vakolatli davlat organi:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini hamda maqsadli dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunchilik ijrosi us-tidan monitoring va nazoratni, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi tahlilini amalga oshiradi;

- o'z vakolatlari doirasida jismoniy tarbiya va sport sohasida-gi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek sport normativlari-ni ishlab chiqishni amalga oshiradi hamda ularni tasdiqlaydi;

- sport markazlarini va dopingga qarshi markazlarni, jismo-niy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim muassasalarini hamda ilmiy tashkilotlarni tashkil etish bo'yicha takliflar kiritadi va ularning faoliyati tashkil etilishini ta'minlaydi;

Sport turlari bo'yicha yagona sport tasnifini, shuningdek, u to'g'risidagi nizomni, sport turlarini va sport turlarining tarmoq-larini e'tirof etish, ularning reyestrini yuritish tartibini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

- sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestrini yuritadi, uni yuritish tartibini belgilaydi;

- xalqaro va respublika miqyosidagi Sport va ommaviy jismo-niy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantiradi hamda manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda ularning moliyalashtiri-lishi va o'tkazilishini ta'minlaydi;

- sport unvonlari, sport razryadlari va malaka toifalarini be-rish tartibini tasdiqlaydi;

– trenerlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etadi;

– qabul qilib olishda va sport musobaqalari o'tkazilishidan oldin jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish yoki sport inshootlarining belgilangan standartlarga muvofiqligini tekshiradi;

O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari tarkiblarini va ularning yaqin zaxirasini tasdiqlaydi, O'zbekiston sport delegatsiyalarini jamlaydi, ularning tayyorgarlik ko'rishini hamda xalqaro sport musobaqalarida va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarida ishtirok etishini ta'minlaydi;

– sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etadi hamda o'tkazadi, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

– jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport uchun mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarilishini tashkil etishga ko'maklashadi;

– yangi jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari qurilishini hamda ishlab turganlari rekonstruksiya qilinishini tashkil etishga ko'maklashadi;

jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ilmiy, o'quv, ilmiy-ommabop va ommaviy adabiyotlar tayyorlanishi va nashr etilishini, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasida foto- va videomateriallar chiqarilishini tashkil etadi;

– davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari ommalashtirilishini tashkil etadi;

– jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, Qonunning keying qismi 9-modda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining jismoniy tarbiya va

sport sohasidagi vakolatlari" haqida O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi:

- jismoniy tarbiyadan sog'liqni mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va davolash vositasi sifatida foydalanadi;

- mamlakatda sport tibbiyotini o'rganish va rivojlantirish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi, dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- aholining jismoniy jihatdan kamol topishi holati tahlilini o'tkazadi va tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanayotgan shaxslarning tibbiy monitoringini tashkil etadi;

- sportchilarning sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rishini tibbiy jihatdan ta'minlashda ishtirok etadi;

- sport tibbiyoti sohasidagi xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

- sportchilar va boshqa mutaxassislar sport jarohatlarini olganda ularga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etadi, shuningdek, ularni jismoniy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazadi;

- aholining jinsi va yoshi toifasiga qarab, jismoniy mashqlar dasturini shakllantirishga doir uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqadi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- sog'lomlashtirish markazlarini, davolash-jismoniy tarbiya dispanserlarini tashkil etadi hamda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Qonunning 10-moddasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari" haqida bo'lib,

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

- o'quv-tarbiya jarayonining sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishini ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etadi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda ishtirok etadi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari ("Barkamol avlod") hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari ("Universiada") o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etishda ishtirok etadi;

- oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda tashkilotlari sport obyektlarining moddiy-texnika va resurs bazasi saqlanishi hamda rivojlantirilishini ta'minlaydi;

- o'quvchilar va talabalarga sog'lom turmush tarzini, sport bilan shug'ullanishning muhimligi, jismoniy va ma'naviy komillikka intilish tushunchasini singdirishga, ularni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga hamda zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- o'quvchilar va talabalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy shakllari hamda usullarini, jinsi va yoshiga qarab ularga sport ko'nikmalarini singdirishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni hamda joriy etishga ko'maklashishni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi qayd etilgan.

Qonunda ahamiyatli jihatlardan biri 12-moddada berilgan bo'lib, unga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari belgilangan va Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini hamda maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi hamda amalga oshiradi;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tadbirlarning mahalliy budjetdan moliyalashtirilishini ta'minlaydi;

– jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarini tashkil etishga ko'maklashadi hamda ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi;

– aholi o'rtasida sport normativlarini topshirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

– ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazishga, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko'maklashadi;

– tegishli hududda jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlaridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

– havaskorlik jismoniy tarbiya-sport harakatini rivojlantirish uchun fuqarolarning ish joyi, yashash joyi hamda dam olish joyida shart-sharoitlar yaratadi;

– jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport uchun mo'ljalangan tovarlar ishlab chiqarilishini tashkil etishga ko'maklashadi hamda Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin ekanligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, muhim tomonlaridan biri 3-bob, 14-moddada Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar haqida fikr borib:

Sportchilar, trenerlar, sport hakamlari va O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda kasblari va lavozimlarining tasniflangan ro'yxati belgilanadigan boshqa mutaxassislar jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislardir, sport turlari bo'yicha sportchi, trener va sport hakami kasblari

va lavozimlariga doir malaka talablari maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarning kasblari va lavozimlariga doir malaka talablari esa qonunchilikda belgilanishi ta'kidlanadi.

O'zbekiston olimpiya harakati – O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi haqida Qoninning 17-moddasida berilgan bo'lib, O'zbekiston olimpiya harakati Xalqaro olimpiya harakatining tarkibiy qismini tashkil etishi, uning maqsadi olimpiya harakati prinsiplarini ommalashtirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko'maklashish, sport sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, Olimpiya o'yinlarida hamda Xalqaro olimpiya qo'mitasi boshchiligidagi o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratligi; O'zbekiston olimpiya harakati O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi – respublika nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan boshqarilib, ushbu qo'mita o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Xalqaro olimpiya qo'mitasining Olimpiya xartiyasiga hamda o'z ustaviga muvofiq amalga oshirib, Davlat O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasiga o'z ustavida belgilangan maqsadlarini amalga oshirishiga har tomonlama ko'maklashgan holda, O'zbekiston olimpiya harakatini tan oladi va qo'llab-quvvatlashi ta'kidlangan. Shuningdek,

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi:

– olimpiya harakati prinsiplarini ommalashtiradi, yuksak yutuqlarga erishiladigan sportni va ommaviy sportni rivojlantirishga ko'maklashadi;

Xalqaro olimpiya qo'mitasining Olimpiya xartiyasiga muvofiq Olimpiya o'yinlarida hamda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi boshchiligidagi o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida O'zbekiston Respublikasi nomidan ish yuritadi;

– sportchilarni Olimpiya o'yinlarida hamda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi boshchiligidagi o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishga tayyorlashning zarur darajasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

- sportda dopingning oldini olish hamda unga qarshi kurashishga, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitish va zo'ravonlikning har qanday shakllari yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashadi;

Xalqaro olimpiya qo'mitasining hamda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining olimpiya ramzlari, shiori, bayrog'i, madhiyasidan, "olimpiya", "olimpiyada" nomlaridan foydalanishga bo'lgan huquqlarini O'zbekiston Respublikasi hududida himoya qilish choralarini ta'minlaydi;

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi o'z vakolatlarini maxsus vakolatli davlat organi, sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi;

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi belgilangan.

Sport federatsiyalari (uyushmalari, 18-modda) va Sport federatsiyalari (uyushmalari, 19-modda) reyestrining vazifa va vakolatlari haqida shunday deyilgan:

Sport federatsiyasi (uyushmasi) mamlakatda sport turini yoki sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirishni amalga oshiradi hamda respublika va xalqaro miqyosdagi barcha tadbirlar va musobaqalarda sportchilar va boshqa mutaxassislar nomidan ish yuritadi;

Sport federatsiyasining (uyushmasining) rasmiy nomi no-davlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi hamda unda sport federatsiyasi (uyushmasi) faoliyatining hududiy sohasi, shuningdek sport federatsiyasi (uyushmasi) qaysi sport turini yoki sport turlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan bo'lsa, o'sha sport turi yoki sport turlari ko'rsatilishi lozim;

Sport federatsiyalarining (uyushmalarining) tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, ushbu Qonunda nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, no-davlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi;

Sport federatsiyalari (uyushmalari) to'g'risidagi ma'lumotlar ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestriga kiritilishi kerak. Maxsus vakolatli davlat organi sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestrini yuritishni amalga oshiradi.

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestrda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- tegishli sport federatsiyalarining (uyushmalarining) nomlari;
- tegishli sport federatsiyalari (uyushmalari) qaysi sport turi ni yoki sport turlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan va o'z faoliyatini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha sport turi yoki sport turlari;

- tegishli sport federatsiyalari (uyushmalari) rahbar organlarining shaxsiy tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- sport federatsiyalarining (uyushmalarining) xalqaro sport tashkilotlariga a'zoligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestrda ko'rsatilgan ma'lumotlar ochiq bo'ladi va ulardan hamma foydalanishi mumkin, bundan tegishli sport federatsiyalari (uyushmalari) rahbar organlarining shaxsiy tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, agar bu ma'lumotlar qonunchilikka muvofiq ochiq bo'lmasa va undan hamma foydalanishi mumkin bo'lmasa, mustasno.

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestrini yuritish va undan ma'lumotlar taqdim etish tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi ta'kidlangan.

O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari (20-modda). O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosining ajralmas qismi, aholida vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, xalqaro maydonda mamlakatning obro'-e'tiborini yuksaltirishga intilish tuyg'ularini tarbiyalash poydevoridir.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari, shuningdek boshqa tashkilotlar:

O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashadi hamda ularni aholi o'rtasida yoyish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlarining xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini mustahkamlashga ko'maklashadi.

O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlarini Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazish (21-modda).

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari bu tadbirlarni o'tkazish shartlarini, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazishni moliyalashtirish shartlarini belgilaydi, bunday tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'ladi, ushbu tadbirlarni to'xtatish va bekor qilish, ularni o'tkazish vaqtini o'zgartirish va ularning yakunlarini tasdiqlash huquqiga ega.

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari quyidagi mutlaq huquqlarga ega:

- jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining nomi va ramzlaridan foydalanish;

- jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazish joyida tovarlar, ishlar va xizmatlar reklamasini joylashtirish;

- jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida foydalaniladigan sport ekipirovkasi, sport uskunalari va anjomlarini ishlab chiqaruvchilarni belgilash;

- jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini ularning tasviri va (yoki) ovozi har qanday usullar bilan va (yoki) turli texnologiyalar yordamida translatsiya qilish orqali, shuningdek mazkur translatsiyani yozib olishni va (yoki) tadbirni fotosuratga hamda videotasvirga tushirishni amalga oshirish orqali yoritish.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining nomlaridan, ular asosida tuzilgan so'z birikmalaridan hamda mazkur tadbirlar ramzlaridan uchinchi shaxslarning foydalanishi jismoniy tarbiya yoki

sport tadbirlari tashkilotchilari bilan yozma shaklda tuziladigan kelishuvlar asosida amalga oshiriladi, bunday nomlardan, ular asosida tuzilgan so'z birikmalaridan va mazkur tadbirlar ramzlaridan axborot maqsadida yoxud ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yoritish huquqini olgan uchinchilari shaxslar tomonidan ushbu huquqlarning foydalanish hol-lari bundan mustasno.

Ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari tomonidan tasdiqlangan, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining to'g'ri ko'rsatilgan nomlaridan foydalanilishi kerak. Bunda mazkur nomlar reklama hisoblanmaydi.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yoritish huquqidan uchinchilari shaxslar faqat jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilarining yozma ruxsatlari bilan yoxud uchinchilari shaxslar tomonidan ushbu huquqlarning bunday tadbirlar tashkilotchilaridan sotib olinganligi to'g'risidagi yozma shakldagi kelishuvlar asosida foydalanishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari to'g'risidagi qoidalarining, nizomlarning (reglamentlarning) mazmuniga doir alohida sport turlarining xususiyatlarini nazarda tutadigan umumiy talablar maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Faqat rasmiy sport musobaqalarigina O'zbekiston Respublikasi chempionati, kubogi yoki birinchiligi maqomiga va nomiga ega bo'lishi mumkin.

Rasmiy sport musobaqalarini o'tkazishga ushbu Qonun 26-moddasiga muvofiq tasdiqlangan sport turlarining qoida-lari asosidagina yo'l qo'yiladi.

Xalqaro sport tadbirlari O'zbekiston Respublikasi hududida faqat bunday tadbirlarni o'tkazish to'g'risidagi qarorning tegishli sport turlari bo'yicha sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishib olinishi sharti bilan o'tkazilishi mumkin.

Sport turlarini va sport turining tarmoqlarini e'tirof etish. Sport turlarining reyestri (22-modda).

O'zbekiston Respublikasida belgilangan tartibda e'tirof etilgan sport turlari va sport turining tarmoqlari sport turlari reyestriga kiritiladi.

Sport turlarini va sport turining tarmoqlarini e'tirof etish hamda ularni sport turlari reyestriga kiritish tartibi, shuningdek ushbu reyestrni yuritish tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Sport unvonlari, sport razryadlari, malaka toifalari. Sport turlari bo'yicha yagona sport tasnifi (23-modda).

O'zbekiston Respublikasida quyidagi sport unvonlari, sport razryadlari, malaka toifalari belgilanadi:

a) sport unvonlari:

Xalqaro toifadagi O'zbekiston sport ustasi yoki xalqaro grossmeyster;

O'zbekiston sport ustasi yoki O'zbekiston grossmeysteri;

b) sport razryadlari:

O'zbekiston sport ustaligiga yoki O'zbekiston grossmeysterligiga nomzod;

birinchi sport razryadi;

ikkinchi sport razryadi;

uchinchi sport razryadi;

o'smirlar uchun birinchi sport razryadi;

o'smirlar uchun ikkinchi sport razryadi;

o'smirlar uchun uchinchi sport razryadi;

v) sport hakamlarining malaka toifalari:

xalqaro toifali sport hakami;

milliy toifali sport hakami;

birinchi toifali sport hakami;

ikkinchi toifali sport hakami;

uchinchi toifali sport hakami;

sport bo'yicha hakam;

g) trenerlarning malaka toifalari:

xalqaro toifali trener;

oliy toifali trener;

birinchi toifali trener;

ikkinchi toifali trener;

d) yo'riqchi-uslubchilarning malaka toifalari:

oliy toifali yo'riqchi-uslubchi;

birinchi toifali yo'riqchi-uslubchi;

ikkinchi toifali yo'riqchi-uslubchi.

Sport unvonlari, sport razryadlari hamda malaka toifalarini berish tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Sport turlari bo'yicha yagona sport tasnifi sport turlari reyestriga kiritilgan sport turlari bo'yicha tegishli sport unvonlari va sport razryadlarini berish uchun bajarilishi zarur bo'lgan normalar hamda talablarni, shuningdek ularni bajarish shartlarini belgilaydi. Sport turlari bo'yicha yagona sport tasnifi to'g'risidagi nizomda mazkur normalar, talablar va shartlarning mazmuni, shuningdek sport turlari bo'yicha sport unvonlari va sport razryadlarini berish tartibi belgilanadi.

Sport turlari bo'yicha yagona sport tasnifi va u to'g'risidagi nizom maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi (24-modda).

Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi rasmiy sport yoki ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari ro'yxatini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi sport terma jamoalarini xalqaro sport tadbirlariga tayyorlash va ularning ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar ro'yxatini belgilovchi hujjatdir.

Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari xalqaro va respublika miqyosidagi Sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga sport turlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kiritiladi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi Sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi tegishli kalendar yil boshlanguniga qadar tasdiqlanadi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi Sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritilgan sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari rasmiy sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlaridir.

Qonunga ko'ra sportchining huquq va majburiyatlari (25-modda) aniq belgilab berilgan bo'lib,

Sportchi:

- sport turi yoki sport turlarini tanlash;
- tanlangan sport turi yoki sport turlari bo'yicha sport musobaqalarida ushbu sport turlari qoidalari hamda sport musobaqalari haqidagi nizomlarda (reglamentlarda) belgilangan tartibda ishtirok etish;

Sport turlari bo'yicha yagona sport tasnifi normalari va talablarini bajarganda sport unvonlari va sport razryadlarini olish;

- qonunchilikda belgilangan tartibda jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish;

- tanlangan sport turi yoki sport turlari bo'yicha sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi;

jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organlar yoki mansabdor shaxslarga yoxud sudga belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Sportchilarning ayrim toifalari qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozli pensiya olish huquqiga ega.

Davlat boshqaruvi organlari, jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari, sport markazlari, boshqa jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari sportchilarga zarur ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratishi va ularning sog'lig'i muhofaza qilinishini ta'minlashi shart.

Sportchi:

- jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida ishtirok etish hamda o'quv-mashq mashg'ulotlari paytida, shuningdek sport obyektlarida bo'lganda xavfsizlik talablariga rioya etishi;

– ushbu Qonunda (27-modda) nazarda tutilgan dopingga qarshi qoidalarga rioya etishi;

– doping nazoratini o'tkazish maqsadida dopingga qarshi qoidalarga muvofiq o'zining turgan joyi haqida axborot taqdim etishi;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi odob normalariga rioya etishi;

– o'zi ishtirok etayotgan jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari to'g'risidagi qoidalarga, nizomlarga (reglamentlarga) hamda jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilarining talablari-ga rioya etishi;

– sanitariya-gigiyena, tibbiy talablarga rioya etishi, muntazam ravishda tibbiy tekshiruvlardan o'tishi shart.

Sportchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va uning zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Sport turlari qoidalari (26-modda).

Sport turlari reyestriga kiritilgan sport turlarining qoidalari xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq qo'llaniladi, bundan harbiy-amaliy, O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari mustasno.

Harbiy-amaliy, O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari qoidalari qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqiladi.

Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish (27-modda).

Dopingga qarshi qoidaning buzilishi, shu jumladan, sportda foydalanish taqiqlangan substansiyadan va (yoki) usuldan foydalanish yoki foydalanishga urinish sportda "doping" deb e'tirof etiladi.

Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish dopingga qarshi xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan dopingga qarshi qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Quyidagi bir yoki bir nechta qoidabuzarlik dopingga qarshi xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan "dopingga qarshi qoidalarining buzilishi" deb e'tirof etiladi:

– sportchining taqiqlangan substansiyadan va (yoki) taqiqlangan usuldan foydalanganligi yoki foydalanishga uringanligi;

– musobaqa paytida yoki musobaqadan tashqari paytda sportchi organizmidan, shuningdek, sport musobaqasida ishtirok etayotgan jonivor organizmidan olingan namunada taqiqlangan substansiyalarning yoxud ular metabolitlarining yoki markerlarining mavjud bo'lishi;

– sportchining namuna olinishi uchun kelishdan bosh tortganligi, sportchining dopingga qarshi qoidalarga muvofiq xabardor qilingandan keyin namuna olinishiga uzrli sabablarsiz kelmaganligi yoki sportchining namuna olinishidan boshqacha tarzda bo'yin tovlaganligi;

– sportchidan musobaqadan tashqari paytda namuna olinishi imkoniyatiga taalluqli dopingga qarshi talablarning buzilganligi, shu jumladan, o'zining turgan joyi haqidagi axborotni taqdim etmaganligi hamda uning testlashda ishtirok etish uchun kelmaganligi;

– doping nazorati elementini soxtalashtirish yoki soxtalashtirishga urinish;

Jahon dopingga qarshi agentligining Taqiqlangan substansiyalardan terapevtik foydalanish uchun xalqaro standartga muvofiq beriladigan ruxsatnomasiz terapevtik foydalanish uchun taqiqlangan substansiyalarga va (yoki) taqiqlangan usullarga ega bo'lish;

– taqiqlangan substansiya va (yoki) taqiqlangan usulni tarqatish.

Sportchilar, shuningdek, trenerlar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislar tomonidan sportchilarga nisbatan dopingga qarshi qoidalarining buzilishiga, sport musobaqasida qatnashayotgan jonivorga nisbatan taqiqlangan substansiya va (yoki) taqiqlangan usulning qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Sportchi tomonidan, shuningdek, sport musobaqasida qatnashayotgan jonivorga nisbatan taqiqlangan substansiya va (yoki) taqiqlangan usuldan foydalanilganligi fakti faqat Jahon dopingga

qarshi agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bilan tasdiqlanadi.

Doping nazorati testlarni o'tkazishni rejalashtirish, namunalarni olish, saqlash, tashish, laboratoriyada tahlil qilish, testdan keyingi muolajalar, shuningdek, tegishli eshituvlarni o'tkazish va apellatsiyalarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladigan jarayondir.

Dopingga qarshi ta'minot sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazishdan iborat.

Testlash doping nazoratining elementlari bo'lib, testlarni o'tkazishni rejalashtirish, namunalarni olish, saqlash va Jahon dopingga qarshi agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan laboratoriyaga tashishni o'z ichiga oladi.

Testlash musobaqa paytida yoki musobaqadan tashqari paytda amalga oshiriladi. Musobaqa payti deganda, agar tegishli sport turi bo'yicha xalqaro sport federatsiyasi (uyushmasi) qoidalarida yoki dopingga qarshi xalqaro tashkilot tomonidan boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, sportchining va (yoki) jonivorning muayyan musobaqada ishtirok etishi bilan bog'liq payt tushuniladi. Musobaqa paytiga kiritilmagan vaqt musobaqadan tashqari paytdir.

Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- doping nazoratini o'tkazish;
- sportchilarning, trenerlarning, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarning dopingga qarshi qoidalarni buzganlik uchun javobgarligini belgilash;
- taqiqlangan substansiyalar va (yoki) taqiqlangan usullar qo'llanilishining oldini olish;
- doping nazoratini o'tkazuvchi mutaxassislarning malakasini oshirish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalarining qo'shimcha ta'lim dasturlariga dopingga qarshi qoidalar, sportda dopingning sportchilar sog'lig'i

uchun oqibatlari, dopingga qarshi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi bo'limlarni kiritish;

- ommaviy axborot vositalarida dopingga qarshi targ'ibot olib borish;

- sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;

- sportchilarning ish qobiliyatini tiklash vositalari va usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;

- doping nazoratini o'tkazish tartibida nazarda tutilgan doping nazoratini o'tkazish shartlarini buzganlik uchun jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarining javobgarligini belgilash;

- sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan iborat.

Sport pasporti (28-modda).

Sport pasporti yagona namunadagi hujjat bo'lib, sportchining jismoniy tarbiya-sport tashkilotiga mansubligini va uning sport malakasini tasdiqlaydi.

Sport pasportida quyidagilar ko'rsatiladi:

- sportchining familiyasi, ismi, otasining ismi; jinsi; tug'ilgan sanasi; sportchining jismoniy tarbiya-sport tashkilotiga mansubligi; tanlangan sport turi yoki sport turlari va sport turining tarmoqlari; sport unvonlari va sport razryadlari berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar; sport unvonlari va sport razryadlarini berish uchun zarur normalar hamda talablar bajarilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar; sportchi tibbiy tekshiruvdan o'tganligi to'g'risidagi belgi; sport musobaqalarida erishilgan natijalar; sportchining sport diskvalifikatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar; davlat mukofotlari va boshqa shakldagi rag'batlantirishlar to'g'risidagi ma'lumotlar; trenerning familiyasi, ismi, otasining ismi; tanlangan sport turi yoki sport turlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar.

Sportchining jismoniy tarbiya-sport tashkilotiga mansubligi sportchi va jismoniy tarbiya-sport tashkiloti o'rtasida tuzilgan

mehnat shartnomasi asosida va (yoki) sportchining jismoniy tarbiya-sport tashkilotiga a'zoliqi asosida aniqlanadi.

Sport pasportlarini yuritish, berish va almashtirish, ularni hisobga olish yagona tizimining amal qilish tartibi Sport pasporti to'g'risidagi nizomda belgilanadi. Sport pasporti to'g'risidagi nizom va sport pasportining namunasi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish (4-bob, 29-modda).

Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- asosiy ta'lim dasturlari doirasida davlat ta'lim standartlari bilan belgilangan hajmlarda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha majburiy mashg'ulotlarni, shuningdek qo'shimcha ta'lim dasturlari doirasida qo'shimcha (fakultativ) jismoniy mashqlar va sport mashg'ulotlarini o'tkazish;

- ta'lim oluvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan, yoshlarning jismoniy tarbiya-sport tayyorgarligi bo'yicha tadbirlar majmuini o'tkazish uchun sport jihozlari va anjomlari bilan ta'minlash; ta'lim oluvchilarda individual qobiliyatlari va sog'lig'i holatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalarini shakllantirish; o'quv mashg'ulotlari paytida jismoniy tarbiya tadbirlarini amalga oshirish; ta'lim oluvchilarning jismoniy tarbiyasi tashkil etilishi ustidan tibbiy nazorat olib borish; ota-onalarda yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarda bolalarining sog'lig'i va ularning jismoniy tarbiyasiga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish; bolalar va yoshlarning jismoniy tayyorgarligini hamda jismoniy rivojlanishini har yili monitoring qilish; ta'lim oluvchilar ishtirokida sport tadbirlarini, shu jumladan xalq ta'limi tizimining ta'lim muassasalari o'quvchilari ("Umid nihollari"), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari ("Barkamol avlod") hamda oliy ta'lim muassasalari talaba-

lari ("Universiada") ishtirokida uch bosqichli sport musobaqalari tashkil etilishi va o'tkazilishiga ko'maklashish.

Fuqarolarning ish joyi, yashash joyi hamda dam olish joyida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish (30-modda).

Ish beruvchilar, ularning birlashmalari va xodimlar yoki ularning vakillik organlari o'rtasidagi jamoa shartnomalari, kelishuvlari va mehnat shartnomalariga:

- xodimlarga jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, jismoniy tarbiya, sport, rehabilitatsiya qiluvchi hamda xodimlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga bog'liq bo'lgan boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun sharoitlar yaratish haqidagi;

- xodimlarga va ularning oila a'zolariga ushbu qismning ikkinchi xatboshida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun sport obyektlari, sport jihozlari va anjomlaridan foydalanish imkoniyatini berish haqidagi;

- sport obyektlariga, sport jihozlari va anjomlariga lozim darajada xizmat ko'rsatilishi hamda ularning ta'mirlanishini ta'minlash, bunday obyektlar, jihozlar va anjomlarni saqlashni, ularga xizmat ko'rsatishni hamda ularni ta'mirlashni amalga oshiruvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash haqidagi qoidalar kiritilishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarning yashash joyi va dam olish joyi bo'yicha jismoniy tarbiya hamda sportni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratadi, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni jalb etish yo'li bilan sharoitlar yaratadi.

Sanatoriy-kurort muassasalari, dam olish uylari va turistik bazalar rahbarlari fuqarolarning sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va davolash maqsadida fuqarolarning davolanishi hamda dam olishi jarayonida jismoniy tarbiya komponentlaridan foydalanish uchun sharoitlar yaratadi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mehnat jamoalari kasaba uyushmalari qo'mitalari bilan birgalikda xodimlarni hamda ularning oila a'zolarini jismoniy tarbiya va sport bilan faol

shug'ullanishga, shu jumladan ish kuni davomida ishlab chiqarish gimnastikasini tashkil etish hamda o'tkazishga jalb etish maqsadida ixtiyoriy ravishdagi muntazam jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlari va sport tadbirlari o'tkazish bo'yicha sharoitlar yaratishi hamda ishlarni tashkil etishi mumkin.

Yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash (5-bob,32-modda).

Yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash ixtisoslashtirilgan sport ta'limi muassasalari, shu jumladan, olimpiya zaxiralari kollejlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, shuningdek, jismoniy tarbiya-sport jamiyatlari, sport-texnika tashkilotlari, sport klublari, sport tayyorgarligi markazlari, maktablar hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib, ularni tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tegishli sport kiyim-boshi, sport ekipirovkasi, sport jihozi va anjomi, biologik va tibbiy-tiklovchi preparatlar bilan ta'minlash, shuningdek, ularning kuch-quvvat sarfini hamda jismoniy resurslarini kompensatsiya qilish, tibbiy xizmat ko'rsatishni (profilaktika, davolash) ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarning o'rni qoplanishini moliyalashtirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini sport turlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq holda tayyorlash mazkur sport turi bo'yicha trenerlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Sport zaxirasini tayyorlash bosqichlari(33-modda).

Sport zaxirasini tayyorlashda sportchilarni tayyorlashning quyidagi bosqichlari belgilanadi:

sport-sog'lomlashtirish bosqichi; boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi; o'quv-mashq bosqichi; sport mahoratini takomillashtirish bosqichi; oliy sport mahorati bosqichi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan bosqichlar tarkibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Qonunda Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik faoliyat (36-modda) haqida quyidagi qaydlar belgilangan:

Tegishli ma'lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslarning jismoniy tarbiya va sport sohasida, shu jumladan, davolash jismoniy tarbiyasi sohasida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga qonunchilikda belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari (6-bob, 37-modda), O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalarini shakllantirish (38-modda).

O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari asosiy va zaxira tarkiblaridan tashkil topishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari tarkibiga kiruvchi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarining ro'yxati tegishli sport turlari bo'yicha sport federatsiyalari (uyushmalari) bilan kelishilgan holda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalarini respublika budjeti mablag'lari hisobidan moddiy-texnikaviy ta'minlash, shu jumladan sport ekipirovkasi bilan ta'minlash, ilmiy-uslubiy, tibbiy-biologik, tibbiy, dopingga qarshi ta'minlash maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Sport turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalariga nomzodlar ro'yxatlari har yili sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan shakllantiriladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalariga nomzodlar ro'yxatlarini shakllantirishning umumiy prinsiplari va mezonlari, ushbu ro'yxatlarni tasdiqlash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rish va ishtirok etish uchun O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari sport turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalariga nomzodlarning tegishli ro'yxatiga kiritilgan shaxslar orasidan sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan shakllantiriladi.

Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari (7-bob, 39-modda).

Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari xususiy yoki ommaviy mulk bo'lishi mumkin.

Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarini xususiy lashtirish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z hududida jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarining rejalashtirilishi, loyihalashtirilishi, qurilishi, foydalanishga topshirilishi hamda ulardan berilgan toifalariga muvofiq maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlaridan foydalanish shartlari, normalari, talablari hamda qoidalari, shuningdek, ularga tegishli toifalarni berish tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarida fuqarolarning ayrim toifalariga qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozli asosda xizmatlar ko'rsatilishi mumkin.

Ta'lim muassasalarini, turar joy dahalarini zarur jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari majmuini barpo etmasdan qurishga va rekonstruksiya qilishga, shuningdek, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarini shu hudud doirasida ularga teng inshootlarni barpo etmasdan tugatishga yo'l qo'yilmaydi.

Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarining namunaviy shtat birliklarini belgilash normalari hamda talablari, ijara haqini hisoblash uslubi va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek ta'lim muassasalari, korxonalar, turar joy dahalarining

asosiy jismoniy tarbiya-sog'lolashtirish va (yoki) sport inshootlari bilan eng kam ta'minlanish normativlari qonunchilikda belgilanadi.

Sport obyektlari bo'lmagan ayrim yer va suv hududi uchastkalarida, shuningdek havo hududi uchastkalarida sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazishga bu uchastkalarni vaqtinchalik sport obyektlari (trassalari) sifatida rasmiylashtirgan holda qonunchilikda belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarining tibbiy ta'minoti(40-modda).

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarining tashkilotchilari bu tadbirlar ishtirokchilarini tibbiy yordam bilan ta'minlashni amalga oshirishi shart.

Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish(41-modda).

Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining mablag'lari;

– tadbirkorlik faoliyati va boshqa xo'jalik faoliyatidan tushadigan daromadlar; aholiga pullik jismoniy tarbiya-sport va sog'lolashtirish xizmatlari ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar; yuridik va jismoniy shaxslarning beg'araz yordami; jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari ishtirokchilarining a'zolik badallari; sport turlari bo'yicha maxsus jamg'armalarning mablag'lari; sport ramzlari, timsollaridan foydalanganlik uchun korxonalar va tashkilotlarning ajratmalari; chet el investitsiyalari mablag'lari; xalqaro tashkilotlardan keladigan tushumlar; qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida xavfsizlik normalari va qoidalariga rioya etilishini, fuqarolarning sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilinishini ta'minlash(42-modda).

Jismoniy tarbiya-sog'lolashtirish, ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazadigan tashkilotlar jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari hamda sport musobaqalari o'tkaziladigan joylarning xavfsizlik texnikasi qoidalariga va sanitariya qoidala-

ri, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq lozim darajada texnik jihozlanishini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari hamda sport musobaqalari ular ishtirokchilarining va tomoshabinlarning sog'lig'iga, sha'ni va qadr-qimmatiga ziyon yetkazilmaydigan tarzda o'tkazilishi kerak.

Sportchilarning sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishiga olib keladigan, shuningdek ularning sport jarohatlari olishiga sabab bo'ladigan tayyorgarlik uslublaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarida ishtirok etishi vaqtida sog'lig'iga ziyon yetkazilgan sportchilar, trenerlar va sport hakamlariga qonunchilikka muvofiq tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya beriladi.

Muassasalar va tashkilotlarning voyaga yetmagan sportchilar bilan o'zaro munosabatlari belgilangan tartibda faqat ularning ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud ular tarbiyalanayotgan ixtisoslashtirilgan muassasalarning roziligi va ishtirokida amalga oshiriladi.

Sport musobaqalarida ishtirok etuvchi shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda sug'urta polisiga ega bo'lishi shart.

Sport jihozi, anjomi va sport kiyim-boshi (43-modda).

Sport jihozi, anjomi va sport kiyim-boshi xalqaro va (yoki) davlat standartlari, normalari hamda talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Jismoniy tarbiya va sportning ilmiy-uslubiy hamda texnik ta'minoti (44-modda).

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda o'tkazishni ta'lim muassasalari va tarkibida ilmiy markazlar tashkil etiladigan boshqa tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, belgilangan tartibda tashkil etilgan hamda o'z faoliyatini davlat buyurtmalari va boshqa buyurtmalar asosida olib boradigan laboratoriyalar amalga oshiradi.

Ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar jismoniy tarbiya vositalari bilan aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni ishlab chiqadi hamda amaliyotga joriy etadi, sport zaxiralarini va O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalarini xalqaro sport tadbirlariga tayyorlashni ilmiy jihatdan ta'minlashni takomillashtiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi, boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari ta'lim muassasalari va tashkilotlariga jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda, shuningdek dolzarb ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmalari hamda boshqa buyurtmalarni shakllantirishda ko'maklashadi, ilmiy-tadqiqot ishlarining yakunlarini tahlil qiladi va ularning faoliyatiga yordam ko'rsatadi.

Qonunning 8-bobida Yakunlovchi qoidalar berilgan bo'lib, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xalqaro hamkorlik (45-modda), nizolarni hal etish (46-modda), jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik (47-modda) qonun bilan tartibga solingan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xalqaro hamkorlik xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Yuqorida Qonun mazmunidan ko'rish mumkinki, belgilanganidek, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" juda katta ahamiyatga molik mazmun aks ettirilgan.

Jismoniy tarbiyaning rivojlanishi ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liqdir. Ular sport musobaqalari, estafetalar, harakatli o'yinlar va x.k.

Shuni ham aytish kerakki, bunday o'yinlar, bayramlar qadimdan o'tkazilib kelingan. Masalan, har yili respublikamizda o'tkaziladigan milliy sport bayramlari.

Agar sport tibbiyoti o'z taraqqiyotining birinchi o'n yilliklarida tibbiy nazoratda o'z e'tiborini sportchilarning harakat organlarining shikastlanishiga qaratgan bo'lsa, hozirgi kunda yangi, sport tadbirlari yo'nalishi paydo bo'lmoqda. Ushbu yo'nalish hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning natijasida qator kasalliklarning kelib chiqishi va o'sishi kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda eng yomon kasalliklar sifatida yurak qon kasalliklari, onkologik va oshqozon-ichak kasalliklari tilga olinmoqda. Yurak-qon kasalliklari asosida ateroskleroz va uning rivojlanishiga sabab bo'luvchi patologik holatlar yotadi. Bular-semizlik, qand kasalligi, arterial gipertoniya, harakatning cheklanganligi, ruhiy stresslar va ovqatlanishning buzilishi va boshqalar.

Yoshlarni sport tadbirlarida tarbiya qilish davlat ahamiyatiga molik ish bo'lib, hukumatimiz unga katta ahamiyat bermoqda.

Ishlab chiqilgan Qonun, o'z navbatida, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishga ehtiyojni oshirish, jismoniy tarbiyaga noan'anaviy yondashuvni ta'minlash, salomatlikni asrash va mustahkamlash, shaxsni har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi. Ayni vaqtda sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning ilmiy konsepsiyasi maqsadli dasturlash usuliga asoslanadi.

Musobaqalar kalendar rejasiga muvofiq sport tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi. Musobaqaning kalendar rejasi (taqvimi) kelgusi davrda o'tkazilishi rejalashtirilgan sport tadbirlari ro'yxatini, ularning turlarini tartibga soluvchi, ularni o'tkazish sanalari va joylarini, ishtirokchi tashkilotlar, ishtirokchilar va hakamlar tarkibini belgilovchi normativ hujjatdir, shuningdek, ushbu musobaqalarni o'tkazishning taxminiy qiymatini ham o'z ichiga oladi.

Odatda, kalendar rejasi bir yil yoki mavsum uchun tuziladi va uchta bo'limni o'z ichiga oladi:

- 1) jismoniy tarbiya va dam olish faoliyati;
- 2) kompleks chora-tadbirlar;
- 3) sport musobaqalari.

Sport musobaqalarining kalendar rejasini quyidagi shaklda tuzish tavsiya etiladi:

Sport klubining ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari-
ning kalendar rejasi

T / r

Tadbir nomi

Sanalar

Manzil

A'zolar

O'tkazish uchun mas'ul (tashkilot, muassasa x.k.)

1. "Jismoniy va ko'ngilochar mashg'ulotlar" bo'limi turli xil ommaviy musobaqalarni o'z ichiga oladi, masalan, "Quvnoqlik va salomatlik", "Oila boshlanishi", "Sport kunlari", "Muzda baliq ovlash" musobaqalari, "Sport oilasi", "Yuguruvchilar kuni", "Chang'i-chilar kuni", "Suzuvchilar kuni" kabi. Muhim sanalarga bag'ishlangan kun, musobaqalar va boshqalar.

2. "Kompleks tadbirlar" bo'limida yozgi va qishki sport turlari bo'yicha sport kunlari, tuman, shahar sport kunlarida ishtirok etish va boshqalar rejalashtirilishi mumkin.

3. "Tadbirlar nomi" ustunida kalendar rejasining bo'limlari va ular bilan bog'liq jismoniy tarbiya va sport tadbirlari (ularni o'tkazish tartibi bo'yicha) nomlari ko'rsatiladi.

"Sana" ustunida tadbirlarni o'tkazish sanalari, "O'tkazish joyi" ustunida rejalashtirilgan tadbirlar o'tkazilishi kutilayotgan sport inshootlarining nomi ko'rsatiladi. "Ishtirokchilar" ustunida kimning tadbirlarda ishtirok etishiga ruxsat berilganligi ko'rsatilgan (masalan, har bir kishi, kamida 1-toifali sportchilar, ustaxonalarining birlashgan jamoalari, maktab sinflari va boshqalar). "Xulq-atvor uchun javobgar" ustunida xatti-harakatlar uchun mas'ul bo'lgan tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari (klub kengashi, federatsiya kengashi va boshqalar) yoki mas'ul shaxslarning (jamoalar murabbiylari va boshqalar) nomlari (lavozimlari) ko'rsatilgan (jadval).

Maktab o'quvchilari uchun ommaviy sport tadbirlari rejasini taqvimini quyidagicha tuzish mumkin:

T/r	Tadbir nomi	Ishtirokchilar ning yoshi, tug'ilgan yili	Qolgan jamoalar	Sanalar	Manzil	Tadbir uchun mas'ul
1	Chang'i poygasi (estafeta poygasi)	Talabalar	Universitet jamoasi	20.09. 2022	Uchrashuv bo'yicha	Sport federatsi yasi
2	Prezident tanlovi	Maktab o'quvchilari	BO'SM o'quvchi lari	2022 yil noyabr	Maktab sport zallari	Tumanlar bo'yicha o'smirlar sport maktabi metodistlari

Shuningdek, tuman (shahar) sport musobaqalarida va sport turlari bo'yicha musobaqalarda qatnashish;

Sport ish rejasini tuzish metodikasi (taqvim);

Sport taqvimi 1 yil muddatga ham tuziladi. Talabalar musobaqalari taqvimi talabalarning tanlangan sport turi bo'yicha sport tasnifi va musobaqa qoidalarini o'z ichiga oladi.

Universitetda har bir sport turi bo'yicha sport tadbirlarining tegishli kalendar rejalari ishlab chiqilib, ular oldindan talabalar e'tiboriga havola etiladi. Jismoniy mashqlarning turli tizimlari bilan shug'ullanadiganlar uchun ko'rgazmali chiqishlar yoki boshqa tadbirlar rejasi tuzilishi mumkin.

Sport musobaqasining mohiyati va o'ziga xosligi.

Ko'pgina tadqiqotchilar sport musobaqasini - sportga xos bo'lgan raqobatni boshqa raqobat shakllaridan ajratmaydilar, ya'ni har qanday musobaqaviy faoliyat sport sifatida qabul qilina-di (hech bo'lmaganda sportni boshqa musobaqalardan ajratishga harakat qilinmaydi).

Sport musobaqalarining umumiy tuzilishi va xususiyatlari:

Raqobat sportning ajralmas atributi sifatida uni sportning boshqa elementlaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlar-ga ega. Ko'plab tadqiqotlar tahliliga asoslanib, sport musobaqa-larining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat deb taxmin qilishimiz mumkin:

- musobaqalar ishtirokchilari faoliyatini qat'iy tartibga solishdir.

Sport musobaqalarining asosiy hujjati. Sport musobaqalari uchun umumiy xavfsizlik talablaridan iborat.

Har qanday tanlovning majburiy hujjati tanlov to'g'risidagi **nizomdir**. Unda tanlovning maqsadi, vazifalari, mohiyati va dasturi belgilanadi; ishtirokchilarning miqdoriy tarkibi, yoshi, jinsi va sport malakasi; voqea joyi va sanasi; arizalarni topshirish tartibi va muddatlari; to'lov shartlari ko'rsatiladi.

Sport musobaqalari va oliy sport yutuqlari haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish tendensiyalari, sport musobaqalari va eng yuqori sport yutuqlari haqida. Sport paydo bo'lishining boshidanoq murabbiylar o'z shogirdlarining muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligiga nima sabab bo'layotgani haqida o'ylashgan. Jahon sportidagi yutuqlarning o'sishi pedagoglar va olimlar oldida bir qator muhim savollarni yanada keskin qo'ydi

Sport musobaqalarini rejalashtirish va tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanadi: - ierarxiya - turli darajadagi musobaqalarning bo'ysunishida ifodalanadi: boshlang'ich sport jamoasi (jismoniy tarbiya jamoasi) - tuman - shahar - viloyat va boshqalar; - jamoaviy o'rinlar - ta'minlaydi.

Sport musobaqalarini reklama qilish

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sport biznesi va sport musobaqalarining ichki reklamasi sohasidagi vaziyatni sezilarli darajada o'zgartirdi. Reklama professional jamoalarning sport menejerlari va musobaqalar tomoshabinlari o'rtasidagi asosiy aloqalardan biriga aylandi. Sport reklamasida:

Sport musobaqalarining tasnifi;

Sport musobaqalarini tasniflash masalasi mahalliy fanda yetarli darajada ishlab chiqilgan. Bundan 50 yil oldin S.L. Axelrod musobaqalarni maqsad va vazifalarga ko'ra - chempionatlar, sport kunlari, o'rtoqlik, tasnif, "chaqmoq", rekordlar, ommaviy, ochiq kabi turlarga bo'lishni taklif qilgan.

Musobaqani o'tkazish byudjeti.

Musobaqani o'tkazish uchun va ishtirok etish katta xarajatlarni talab qiladi. **Musobaqalarda** ishtirok etish xarajatlari

smetasi, albatta, unda ishtirok etish maqsadlarini qo'ygandan keyin tuziladi, uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni aniqlash usuli hisoblanadi. Iqtisodiy rejalashtirish vositasi sifatida smeta sport tadbirida ishtirok etish zaruriyatini keltirib chiqaradigan maqsadlarga erishish uchun sarflanishi kerak bo'lgan chegaralarni belgilaydi.

Iloji boricha batafsil bo'lishi kerak bo'lgan byudjetni tayyorlash, ishtirok etishni tashkil etish mas'ul shaxs zimmasidadir.

Deyarli barcha jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari byudjetdan (daromad va xarajatlarni smetasidan) tashqari, ayrim tadbirlar - o'quv-mashg'ulot yig'inlari, musobaqalar va boshqalar uchun xarajatlarni smetasini ishlab chiqadilar.

Ushbu hisob-kitoblar ommaviy sport tadbirlarining kalendar rejasiga muvofiq va ishtirokchilar, kuzatuvchilar soni, ish haqi va amaldagi normativlar bo'yicha tasdiqlangan ko'rsatkichlar asosida tuziladi; zarur xizmatlar (oziq-ovqat, sayohat, turar joy va boshqalar).

TAYANCH SO'Z VA TUSHUNCHALAR

Qonun, o'zgartish, qo'shimchalar kiritish, ommaviy sport-ko'ngilochar tadbirlar, jismoniy rehabilitatsiya, sport bo'yicha agent, sport diskvalifikatsiyasi, sport federatsiyasi, milliy sport turlari, xalq o'yinlari, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, Mahalliy davlat hokimiyati organlari, tadbirlar ssenariysi, ssenariy tuzish uslubiyati, musobaqa nizomi, ierarxiya, kalendar reja, mablag' smetasini tuzish, diplom afishalar, chiptalar tayyorlash rejalari.

MAVZU BO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qachon o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan va bunga qanday ehtiyoj sezildi? Izohli javob berishga harakat qiling.

2. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qachon qabul qilingan va Senat tomonidan qachon ma'qullangan?

3. Qoninning umumiy tuzilishi va hajmi, necha bob va moddan iboratligi haqida bilib oldingizmi? Bilganlaringiz asosida guruhdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

4. Qoninning eng muhim moddalarining mazmun – mohiyatini to'liq o'zlashtirib oldingizmi?

5. "Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni tashkil etish" haqida Qonunning qaysi bobida fikr yuritilgan?

6. Qonunning "Ta'lim tizimida, fuqarolarning ish joyi, yashash joyi hamda dam olish joyida jismoniy tarbiya va sport" hamda "Sport zaxirasini tayyorlash", "O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari va ularni shakllantirish" to'g'risida boblarida nimalar haqida so'z boradi?

7. "Jismoniy tarbiya va sportning moddiy, tibbiy, moliyaviy hamda boshqa ta'minoti" hamda "Yakunlovchi qoidalar" deb nomlangan har bir bob haqida mustaqil tushunchaga ega bo'lishingiz lozim.

8. Qonunda sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish qanday belgilab qo'yilgan? Bu haqida mulohaza qiling.

9. "Dopingga qarshi qoidalarining buzilishi" degan jumлага izoh bering.

10. Sport turlarini va sport turining tarmoqlarini e'tirof etish hamda ularni sport turlari reyestriga kiritish tartibi Qonunda qanday belgilangan?

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari qaysi moddada belgilab qo'yilgan, mazmuni haqida gapiring?

12. Qaysi modda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari" ning belgilanishiga bag'ishlangan va mzmun-mohiyati nimadan iborat?

13. Sport musobaqalarini o'tkazishni reklama qilish kerakmi, agar shunday bo'lsa, nima uchun?

14. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sport biznesi va sport musobaqalarining o'tkazilishini sezilarli darajada o'zgartirgan. Qaysi

tomondan va nima sababdan? 15. "Reklama professional aloqalardan biriga aylandi" jumlasini izohlang.

16. Sport reklamasi mazmuni haqida gapiring.

17. Bundan necha yil oldin olim S.L. Axelrod tomonidan musobaqalarni maqsad va vazifalari belgilab berilgan edi, uning tasnifi haqida ma'lumotga egamisiz? Fikr yuriting.

18. Tadbirlar ssenariysi va ssenariy tuzish uslubiyati haqida bilanlaringizni ayting.

19. "Ierarxiya" atamasi ma'nosiga izoh bering va misollar keltiring.

20. Sport tadbirlarining kalendar reja, tadbirlarda qatnashishda mablag' smetasini tuzish haqida so'zlang?

20. O'tkaziladigan sport tadbirlari uchun diplom afishalar qanday tayyorlanadi va siz ham shunday afishalar tayyorlashda ishtirok etganmisiz? Shular haqida batafsil ma'lumot bering.

21. Tadbirlar o'tkazishda musobaqa nizomi kim tomonidan va qanday mazmunda tayyorlanadi?

22. Musobaqalarga borishda sportchilar uchun chiptalar kim tomonidan sotib olinadi va chiptalar tayyorlash rejalarini kimlar mas'ulligida amalga oshiriladi?

23. Zamonaviy ilmiy metodikada ilmiy xarakter mezonlari qanday?

24. Jismoniy madaniyatni sog'lomlashtirish nazariyasi va metodikasini o'rganish mavzusi nima?

25. Sog'liqni saqlash bilan bog'liq jismoniy madaniyatning maqsadi va vazifalarini ayting.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN

TOPSHIRIQLAR:

1. Jismoniy tarbiyani rivojlanishiga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri.

2. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyada targ'ibot-tashviqot ishlarining usullari.

3. Shug'ullanuvchilarni o'z organizmi holatini o'zi nazorat qilishi.

6-MODUL. MOTIVATSIYA - SPORT VA OMMAVIY TADBIRLARDAGI ISHTIROKCHILARNI BOSHQARISH FUNKSIYASI SIFATIDA.

REJA:

1. Mamlakatimizda professional, ommaviy sportni, shu jumladan, sport o'yinlari va qishki sport turlarini rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

2. Ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda, sport tayyorgarligi jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, barcha sport turlari bo'yicha milliy chempionatlar darajasi va sifatini oshirish.

3. Xalqaro va mintaqaviy musobaqalar tashkil etish, nosog'lom sport raqobatiga va taqiqlangan preparatlar ishlatilishiga qarshi tizimli choralar ko'rish.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirishni 2026-yilda 33 foizga chiqarish, Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, O'zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish, yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog'lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish, barpo etiladigan har bir "Yashil hudud"da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun "Salomatlik yo'laklari" hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish, Vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini va aholini sport tadbirlariga jalb qilish, ular o'rtasida musobaqalar tashkil qilish, Milliy olimpiada sport o'yinlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, sport o'yinlari o'tkaziladigan sport obyektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash, Milliy olimpiada o'yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g'olib va sovrindorlarni munosib rag'batlantirish,

Milliy olimpiada o'yinlariga tayyorgarlik ishlarining borishini ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritilishini tashkil etish, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko'rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022-yilda 62 foizga, 2026-yilda 85 foizga oshirish, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallari bitiruvchilarini sport ta'limi muassasalariga jalb etishdan asosiy maqsad - inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishdek buyuk ishlarni amalga oshirishga bel bog'langan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan "Qishki sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁸gi qarori imzolangan.

O'zbekistonda qishki sport turlarini 2020–2023 yillarda rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Unda belgilanishiga ko'ra quyidagilar Dasturni moliyalashtirish manbalari etib belgilangan:

Investitsiya dasturi doirasida nazarda tutiladigan mablag'lar;

– sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutiladigan Davlat budjeti mablag'lari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar, Toshkent shahar mahalliy budjetlari, jamg'armalar, sport federatsiyalari (uyushmalari), klublari, xorijiy investorlar, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari mablag'lari;

– yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

– qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

2023-yil 1-yanvarga qadar Qishki sport turlari assotsiatsiyasi, Xokkey federatsiyasi, ularning hududiy bo'linmalari, qishki sport turlari bo'yicha professional klublari va nodavlat bolalar sport maktablari:

⁸ Qishki sport turlarini 2020–2023 yillarda rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti "Qishki sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

– mol-mulk solig'i hamda jalb qilingan xorijiy sportchilar va mutaxassislarning daromadlariga ijtimoiy soliqlar stavkalarini 50 foizga kamaytirilgan holda to'laydi;

– qishki sport turlari bo'yicha sport obektlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan sport asbob-uskunolari, inventarlari va maxsus professional sport kiyimlari, transport vositalari, shu jumladan, maxsus transport vositalarini olib kirganlik uchun bojxona boji to'lashdan ozod qilinadi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirligining:

2020 – 2023 yillarda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida hududlarda xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy sport asbob-uskunolari bilan jihozlangan yengil konstruksiyali yopiq muz qoplamali maydonlarni qurish;

– qishki sport turlari bo'yicha xorijiy mutaxassis va trenerlarni ishga jalb qilish hamda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida belgilangan tartibda xizmat uylari sifatida uy-joy ajratish to'g'risidagi takliflari ma'qullandi.

Belgilab qo'yilishicha, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida barpo etiladigan yopiq muz qoplamali maydonlarning loyi-

ha-smeta hujjatlari majburiy tartibda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi bilan kelishiladi.

Jismoniy tarbiya va sport vazirligi:

Davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga 2020/2021 o'quv yili uchun ajratilgan qabul parametrlarini yo'nalishlar bo'yicha taqsimlashda qishki sport turlari uchun o'rin ajratilishini ta'minlaydi;

2020/2021 o'quv yilidan boshlab Davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida qishki sport turlari kafedrasini tashkil qiladi;

Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda 2020-yilning yakuniga qadar Jismoniy tarbiya va sport vazirligi "Sertifikatlashtirish va kompyuterlashtirish markazi" davlat korxonasining Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan "Beldirsoy" sport bazasida xalqaro va respublika darajasidagi musobaqalarni o'tkazish uchun yengil konstruksiyali bino va inshootlar barpo etish, yo'l-transport infratuzilmasini yaxshilash, dor yo'lini zamonaviy anjom, asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta'minlash ishlarini amalga oshiradi;

Qishki sport turlari assotsiatsiyasi va Xokkey federatsiyasi bilan birgalikda prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi qoshidagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatan-doshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'ar-masining xorijda ta'lim olish, stajirovkadan o'tish va malaka oshirish dasturlari bo'yicha ochiq stipendiya tanlovlarida qishki sport turlari bo'yicha professor-o'qituvchilar tarkibi va trenerlar-ning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Qishki sport turlari assotsiatsiyasi, Xokkey federatsiyasi, ular-ning hududiy bo'linmalari, qishki sport turlari bo'yicha profession-al klublar va nodavlat bolalar sport maktablariga olti oydan ko'p bo'lgan muddatga tuzilgan shartnomalar asosida jalb qilingan xo-rijij sportchilar va mutaxassislar O'zbekiston soliq rezidenti deb hisoblanadi.

Toshkent shahar hokimligi, Jismoniy tarbiya va sport vazir-ligining Toshkent shahar hokimligi tizimidagi "Oromgoh" davlat

unitar korxonasining Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon qishlog'ida joylashgan ikkita dor yo'li hamda chang'ida uchish trassasini tegishli hududi bilan birgalikda Sportning qishki va murakkab texnik turlari bo'yicha respublika oliy sport mahorati maktabiga operativ boshqaruv huquqi asosida tekin berish to'g'risidagi taklifi ma'qullangan.

Mamlakatimizda professional, ommaviy sportni, shu jumladan, sport o'yinlari va qishki sport turlarini rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash jarayonida dam olish orqali motivatsiyani oshirish mumkin.

Motivatsiya (lot. *movēre* "harakat qilish" so'zidan) - harakat qilish uchun turtki; inson xulq-atvorini boshqaradigan, uning yo'nalishini, tashkiliyligini, faolligini va barqarorligini belgilovchi psixofiziologik jarayon; insonning o'z ehtiyojlarini faol ravishda qondirish qobiliyatidir.

Motivatsiya - bu shaxsni ma'lum bir tarzda harakat qilishga majbur qiladigan ichki va tashqi motivlar tizimi.

Bir qarashda, bu mavhum va uzoq narsa, ammo busiz na istaklar, na ularning amalga oshishi quvonchi mumkin emas. Darhaqiqat, hatto sayohat ham u yerga borishni istamaganlarga baxt keltirmaydi.

Motivatsiya bizning manfaatlarimiz va ehtiyojlarimiz bilan bog'liq. Shuning uchun u individualdir. Shuningdek, u shaxsning intilishlarini belgilaydi va ayni paytda uning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqadi⁹.

Tashqi motivatsiya (tashqi) - ma'lum bir faoliyat mazmuni bilan bog'liq bo'lmagan, lekin subyektdan tashqaridagi holatlar tufayli yuzaga keladigan motivatsiya.

Ichki motivatsiya (ichki) - tashqi sharoitlar bilan emas, balki faoliyatning o'zi bilan bog'liq motivatsiya.

Ijobiy va salbiy motivatsiya. Ijobiy rag'batlantirishga asoslangan motivatsiya ijobiy deb ataladi. Salbiy rag'batlantirishga asoslangan motivatsiya salbiy deb ataladi.

⁹ <https://iklife.ru/samorazvitie/motivaciya-cto-eto-takoe-osnovnye-xarakteristiki-i-vidy>.

O'zingizning motivatsiyangiz haqida aniqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun quyidagi savollarga javob bering:

Nega men shu sohani tanlaganman ?

Men qanday ehtiyojlarni qondirishni xohlayman?

Men musobaqadan qanday natijalarni kutyapman va nega ular men uchun muhim va nimani anglatadi?

Meni muayyan tarzda tinimsiz o'z ustimda ishlashimga, harakat qilishimga nima majbur qiladi?

Asosiy xususiyatlar

Motivatsiya hodisasini quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflash mumkin:

Tashkilot, harakatlar ketma-ketligi.

Tanlangan maqsadlarning barqarorligi.

Ishonchlilik, faollik.

Ushbu parametrlarga ko'ra, har bir shaxsning motivatsiyasi o'rganiladi, bu, masalan, maktabda muhim ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar kasb tanlashda katta ahamiyatga ega. Masalan, sportchi, doimiy ravishda harakatda bo'lishi, yuqori natijalarni – o'rinlarni egallashga e'tibor qaratishi va maqsadga erishishda faol bo'lishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti inson hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. XX asr o'rtalarida birinchi elektron hisoblash mashinalarining (kompyuterlarning) yaratilishi yuqori texnologiyalar davrining boshlanishini belgiladi. Vaqt o'tishi bilan texnologiya takomillashtirildi va jamiyat hayotining turli sohalariga tobora ko'proq kiritildi. Turli xil innovatsiyalarning keng tarqalishi hayotimizni sezilarli darajada soddalashtirishi va vazifalarni hal qilish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, eng yangi texnologiyalar qo'llaniladigan sohalar ham takomillashtirilib, kengaytirilib, o'zining imkoniyatlari versiyasini ko'paytirmoqda.

Diagnostika uskunalari ham bir joyda turmaydi, bu bizni boshqarishga imkon beradi, mashg'ulot jarayonida sportchining holati, turli xil foydalanish yuki paytida sportchi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiluvchi qurilmalar va tizimlar juda ham zarur. Sport

amaliyotida sportchilar texnikasini tahlil qilish va tuzatish uchun harakatlarning tasvirini takrorlash imkonini beruvchi video qayd etish moslamalari faol qo'llaniladi.

Sportda qo'llab-quvvatlash reaksiyasini qayd etuvchi tenso-metrik qurilmalardan yetarlicha keng foydalanilishi bilan birga, turli mashqlarni bajarish, mashg'ulotlar va raqobatbardosh testlar davomida real vaqt rejimida tadqiqot olib boradigan portativ qurilmalar ishlab chiqilgan. So'nggi paytlarda jamoaviy sport turlarida sportchining harakatlarini nazorat qilish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar faol qo'llanilmoqda.

Diagnostika uskunalari yordamida to'plangan ma'lumotlar sportchilarning turli sport turlari bo'yicha faoliyatini optimallashtirishga imkon beradi, bu ularga sport ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun eng yaxshi tiklash vositalarini tanlash imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar sportchilarga nafaqat mashg'ulot paytida, balki dam olish vaqtida ham yordam beradi. Axborot tizimlari yordamida har bir sportchining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turli xil dam olish turlari yig'ilib, jismoniy va psixologik jihatdan tiklanish, bu esa yanada samarali mashq qilish, tezroq ishlashga imkon beradi.

Tezlik va ko'p qirralilikka asoslangan innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, ularning sport sohasida tarqalishiga ta'sir qildi. Dunyoda zamonaviy texnologiya sport faoliyatining ajralmas qismiga aylandi.

Ularni qo'llash doirasi ko'p qirrali bo'lib, sport anjomlari yoki yugurish yo'lakchasi va futbol uchun qoplamalar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yangi materialdan iborat.

Havaskor va professional sportda ham, mashg'ulotlarda qo'llaniladigan yangi avlod asboblari va kuzatuv tizimlari bunday zamonaviy texnologiyalarga misol bo'la oladi.

Apple Watch aqlli soatlari kabi "aqlli" narsalar juda ko'p funksiyalarni: nafas olish chastotasi va yurak urishi ritmini aniqlash, aloqa qurilmasi vazifasini va yana ko'p ishlarni bajaradi.

Bunday texnologiyalarning asosiy vazifasi - sportchilar va murabbiylarga sportchining jismoniy holatini bashorat qilish va muvofiqlashtirishda yordam berish, shuningdek, eng samarali bo'lgan va sportchining natijalarini yaxshilashga yordam beradigan uslubiy kompleksni tanlashda yordam berishdir. Bu orqali har yili sport sohasidagi zamonaviy texnologiyalar va sportchilarni tayyorlash tizimi rivojlanmoqda.

Murakkab rivojlanish usullari u yoki bu tarzda jismoniy tayyorgarligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan shaxs hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi.

Professional sportda zamonaviy texnologiyalar rivojlangan jamiyatning boshqa sohalarida ham qo'llanila boshlandi, ular ham insonning jismoniy faoliyatini yaxshilashga qaratilgandir.

O'zbekistonda sportga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va uning rivojlanishi va sportda yutuqlar ko'payishi uchun bosqichma-bosqich barcha zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Mashg'ulotlar va musobaqalar o'tkaziladigan joylar, sport anjomlari, sportchilar liboslari modernizatsiya qilinmoqda.

Mashg'ulot paytida sportchining holatini baholash va to'g'ri taqsimlash, uning tanasiga yuk tushmaslik imkonini beruvchi kompyuter va multimedia texnologiyalari joriy etilmoqda.

Asosiy muammo shundaki, texnik ko'nikmalarni yaxshilash sust, deyarli yo'q, o'quv jarayonida uslubiy yordam, funksionallikni oshirishga qaratilgan yuqori malakali sportchilar tayyorlash metodologiyasini ishlab chiqish lozim.

Vaqt o'tishi bilan Innovatsion texnologiyalar sport maydoniga katta ta'sir ko'rsatib, jamiyat va ilmiy taraqqiyotning rivojlanishi takomillashmoqda. So'nggi yillarda taraqqiyot tobora tezlashdi, yangi texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga kirib, misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlarga erishish, yangi cho'qqilarni zabt etish imkonini berib, biz uchun yangi ufqlarni ochmoqda,

Qanchalik yuqori texnologiyali asbob-uskunalar bo'lishidan qat'i nazar, ular kishilarsiz foydasiz bo'ladi.

Shunday qilib, biz shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi kunda sport zamonaviy texnologiyalarsiz mavjud bo'lolmaydi va ularning qo'llanilishi uning barcha sohalar va ko'rinishlar turlarini qamrab oladi.

Texnik vositalar mashg'ulotlar paytida xavfsizlik va samaradorlikni oshiradi va musobaqalarda obyektiv hakamlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, innovatsion g'oyalar paydo bo'lishi bilan sportda yoshi va jinsidan qat'iy nazar, u bilan shug'ullanish va sog'lom turmush tarzini olib borish istagida bo'lganlar borligini hisobga olish lozim.

XXI asr taraqqiyot asri bo'lish bilan bir qatorda, ayrim jiddiy global muammolari bilan bashariyatni xavotirga solayotgani sir emas. Ularni yuksak aql-idrok, aniq va chuqur o'ylangan amaliy chora-tadbirlar, taklif va tashabbuslar orqali hal etish bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro jinoyat huquqi va unga turdosh bo'lgan institutlar doirasida xalqaro tinchlik va xavfsizlikka g'oyatda jiddiy tahdid sifatida e'tirof etilayotgan agressiya, urushning udum va qoidalarini buzish, harbiy mojarolar davrida inson huquqlarining vahshiy buzilishlari, genotsid, terrorizm kabi illatlarga qarshi kurash jahon hamjamiyati tomonidan universal ravishda XX asrning boshlarida boshlangan. Xalqaro va milliy munosabatlarda huquqqa aniq rioya etilishini ta'minlash, qurollar poygasini to'xtatish, xalqaro huquqning yadrosini tashkil etadigan inson huquqlari va xalqaro gumanitar huquq, xalqaro jinoyat huquqi sohaları bo'yicha xalqaro shartnomalarning barcha davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishiga erishish kabi maqsadlar jahon hamjamiyati uchun hanuz o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Negaki, insoniyat terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik moddalarning noqonuniy aylanmasiga barham berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsada, lekin hali-hanuzgacha bu jinoyatlar sodir etilmoqda va ularning soni tobora ortmoqda. Davlatlar yuqorida sanab o'tilgan xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga qarshi birgalikda xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar doirasida o'z

kuchlarini va barcha imkoniyatlarini birlashtirgan holda harakat qilishmoqda. Bunday maqsadlarni amalga oshirish masalasida O'zbekiston Respublikasi ham turli xildagi xalqaro hamda mintaqaviy va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni davom ettirmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada BMT minbaridan turib dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani, ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat berayotganligini, bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganligini shuningdek, xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblashini aytib o'tgan. Bundan tashqari, giyohvand moddalar va ularning noqonuniy aylanmasi dunyodagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston, butun Markaziy Osiyo uchun asosiy giyohvand moddalar xavfi dunyoda opiatlar ishlab chiqarishda yetakchi hisoblanuvchi qo'shni Afg'oniston orqali o'tadi. Mintaqani MDH mamlakatlari bilan bog'laydigan transchegaraviy va transkontinental havo, temir yo'l va avtomobil yo'llari giyohvand moddalar kontrabandasi uchun qulay "tranzit koridorlar" hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashning samaradorligini oshirish jahon xaritasida suveren davlat sifatida shakllangan O'zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rish zarurligini ta'kidlaganida ham namoyon bo'moqda. Bundan tashqari, mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarimizning jamiyatda erkin va farovon yashashlari uchun, iqtisodiyotning yanada rivojlanishi uchun ham jinoyatchilikka barham berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb

etadi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan Harakatlar Strategiyasining 2.4-bandida ham jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish masalalari¹⁰ kiritilganligi, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish choralari ko'rilyotgani, Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirishida global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish¹¹ ham yuqoridagi fikrlarni yana bir bor isbotlaydi. Yuqorida keltirilgan omillar sababli O'zbekiston Respublikasining mintaqadagi jinoyat sohasida yo'lga qo'yilgan hamkorlik hamda uning huquqiy asoslarini, shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hamda Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan nafaqat xalqaro jinoyatchilik balki, transmilliy xarakterdagi jinoyatlarga barham berish borasidagi o'zaro hamkorligini o'rganib, uni tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan, shu sababli ham mintaqaviy tashkilotlar bilan jinoyatchilikka qarshi kurash masalasi va boshqa masalalar yuzasidan ham hamkorlikni oshirishdan manfaatdor hisoblanadi. Ushbu mintaqada jinoyatchilikka qarshi kurash masalasida Shanxay hamkorlik tashkiloti hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASI TO'G'RISIDA qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.

¹¹ 2022 – 2026 YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQ-
QIYOT STRATEGIYASI.

TAYANCH SO'Z VA TUSHUNCHALAR

O'zbekiston, Markaziy Osiyo, professional sport, ommaviy sport, sport o'yinlari, qishki sport turlari, rivojlantirish, rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash, ilg'or xalqaro tajriba, zamonaviy texnologiyalar, joriy etish, sport turlari, milliy chempionatlar, daraja, sifat, Xalqaro musobaqalar, mintaqaviy musobaqalar, nosog'lom sport raqobati, taqiqlangan preparatlar, tizimli choralar.

MAVZU BO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mamlakatimizda professional, ommaviy sportni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida gapiring.

2. Mamlakatimizda sport o'yinlari va qishki sport turlarini rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qanday tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va qay ahvolda deb o'ylaysiz? Hayotiy jarayonlardan misollar keltirib asoslang.

3. "Ilg'or xalqaro tajribani hisobga olish" deganda nimalarni tushunish kerak?

4. Sport tayyorgarligi jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdan ko'zlangan maqsad nima?

5. Barcha sport turlari bo'yicha milliy chempionatlar darajasi va sifatini oshirish imkoni mavjudmi, buning uchun nimalar qilish kerak?

6. Xalqaro va mintaqaviy musobaqalar tashkil etishning afzalliklari haqida ma'lumot bering.

7. Nosog'lom sport raqobatiga yo'l qo'ymaslikning qanday imkoniyatlari mavjud?

8. Mamlakatimizda, hukumatimiz tomonidan taqiqlangan preparatlar ishlatilishiga qarshi qanday tizimli choralar ishlab chiqilgan? Fikrlaringizni asosli manbalar yordamida tasdiqlashga harakat qiling.

9. O'zbekiston xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda qaysi davlatlar bilan hamkorlikda ish olib bormoqda?

10. Transmilliy xarakterdagi jinoyatlarga barham berish borasidagi o'zaro hamkorlik masalalariga to'xtaling va izohlang.

11. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan "Harakatlar Strategiyasi"ning mohiyati haqida so'zlang?

12. O'zbekistonning "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning mazmuni va mohiyati hamda qabul qilinishi haqida gapiring.

13. Motivatsiya va uning mohiyati va ko'rinishlari haqida ma'lumot bering.

14. "Sog'lomlashtirish jismoniy madaniyati" atamasining ma'nosini kengaytiring.

15. Sog'liqni saqlash bilan bog'liq jismoniy madaniyatning asosiy yo'nalishlarini ayting.

16. Sog'lomlashtirish jismoniy madaniyati qanday funktsiyalarni bajaradi?

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN TOPSHIRIQLAR:

1. Sog'lomlashtiruvchi-rekreativ jismoniy tarbiyani millatning salomatligini mustahkamlashdagi roli.

2. Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtiruvchi guruhlarini tashkil qilinishi tamoyillari.

7-MODUL. SPORT VA OMMAVIY TADBIRLARNI BOSHQARISHDA NAZORAT VA TAHLIL FUNKSIYASI. SPORT-OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH SAMARADORLIGINI KO'RSATKICHLARI

REJA:

1. Sport musobaqalari tizimi, musobaqalarni tayyorlash, uning nizomi hamda sistemasi, musobaqalarning turlari, sport tadbirlarini o'tkazishning yo'nalishlari, sport tadbirlarini o'tkazishning vositalari.

2. Sport tadbirlarini o'tkazishning nazariyasi va uslublari, sport tadbirlari ssenariysini tuzish uslubiyati, ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish bosqichlari.

Sport musobaqalari o'ziga xos faoliyat bo'lib raqiblarning harakatini tartibga solishda katta rol o'ynaydi, ularning ayrim qobiliyatlarini obyektiv ravishda solishtirib ko'rishga va jismoniy sifatlarni maksimal darajada namoyon bo'lishini, musobaqa davomida harakatlanishni maksimal darajada ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Sporthozirgiko'rinishdabirqatoro'zigaxosxususiyatlarigaega:

1) Sport musobaqalar faoliyatida, raqobat darajasini ketma-ket yutuqlarga bo'lgan talablarni ortib borishi, sport musobaqalarining tizimiga asoslanib tashkil etiladi (yuqori ringga quyi musobaqalarda qatnashganlar qo'yiladi yoki pastdan yuqoriga).
2) Musobaqada bevosita bajariladigan harakatlarning, boshqarilish sharoitlarini va yutuqlarini baholash usullarini tenglashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Bu tenglashtirish musobaqalar o'tkazishning umumiy me'yorlari sifatida muayyan qoidalar bilan mustahkamlanadi.

3) Musobaqalashuvchilarni xatti-harakatlari noantagonistik raqobat tamoyillariga muvofiq tartibga solinadi.

Sportchi tanlab olgan turidagi ko'rsatkichlarni, individual holda o'z imkoniyatlariga qarab namoyish qiladi. Bu natijalar yo jismoniy g'alabani yoki raqibni yutish (ballarda, gollarda, ochkolarda va h.k.) natijasini yaxshilash uchun vaqt birligida, masofada, og'irlikda belgilanishi mumkin.

Yuqori sport natijasi, sportni shu kundagi rivojlanishida inson imkoniyatlarini etaloni bo'lib hisoblanadi. Ularga taqqoslab har bir inson o'zining sport natijalarini solishtirishi yoki natijalarini yaxshilashni rejalashtirishi mumkin. Yuqoridagilardan sport natijalarini etalonlik va rag'batlantiruvchi roli yaqqol ko'rinadi. Sport natijalari ko'pgina sabablarga ko'ra har doim ko'p omilli hodisadir.

Quyidagilar sport natijalari taraqqiyotga ta'sir etuvchi omillar bo'lib hisoblanadi:

1) Sportchining individual talanti va yuqori natijaga tayyorgarlik darajasi.

2) Sportda tayyorgarlik tizimining samaradorligi, uni mazmuniga, tahlil etilishiga va material - texnik tomondan ta'minlanganligiga.

3) Sport harakatining kengligiga va uni rivojlanishining umumiy ijtimoiy sharoitlariga bog'liq.

Sport musobaqalarining xususiyatlarini o'rganish, sport sohasidagi mutaxassislarni qiziqtirib kelgan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Birinchidan - musobaqa sportni asosiy mazmunini tashkil etadi.

Ikkinchidan - sport musobaqalari, sport mashg'ulotidan genetik va bo'ysunishi bo'yicha "kattadir". Ma'lumki, inson ma'naviyati va madaniyatini rivojlanishida, har xil yakkama yakk kurash va sport elementlari o'rtasida o'yinlar birinchi bo'lib tashkil topgan. Keyinchalik esa ularni shakllari, uslublari va elementlari tashkil topa boshlagandan keyin tayyorgarlik ko'rish yo'llari aniqlana boshlangan. Hozirgi kunda sportda bu yo'nalishni ko'p sohasi bo'yicha sportchilar tayyorlashni ilmiy asoslangan tizimi tashkil qilinib, sport mashg'ulotlarini ham o'z ichiga oladi.

Uchinchidan - sport musobaqalari sportchining jismoniy tak-tik-texnik imkoniyatlarini, zaxiralarini va sport jamoasini imkoniyatlarini aniqlashda "Poligon" bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun faqat musobaqa vaqtida psixologik qarama-qarshiliklarni yengish uchun raqobatchilik hosil qilinadi hamda sportchini musobaqa faoliyatini psixologik strukturasi aniqlanadi. Musobaqalar tizimi o'z ichiga bir qator rasmiy va norasmiy musobaqalarni birlashtirib, sport faoliyatini nisbatan alohida shakl sifatida tashkil qiladi. Bular ma'lum tartibda o'zining masshtabi, ahamiyati, sportchini tayyorlash bosqichlari va boshqa sharoitlariga qarab tavsiflanadi.

Musobaqalarda asosiy o'rinlarni absolyut birinchiliklar (shaxsiy va jamoa) dunyo va olimpiyada o'yinlari ham egallaydi. Bunday asosiy maqsadga yo'naltirilgan musobaqalar sportchini tayyorlashga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, mashg'ulotning ayrim bosqichlari rejalashtiriladi, yuqori sport natijalarga optimal ravishda tayyorlash vaqti va boshqalar aniqlanadi. Boshqa ko'pgina musobaqalar tayyorgarlik uchun o'tkaziladi. Sport mashg'ulotlarini umumiy vaqtidan 10-15% musobaqa vaqtini aniqlaydi.

Musobaqa faoliyati - bu tartiblashtirilgan raqobat bo'lib, o'z qobiliyatini obyektiv ravishda solishtirish va maksimal darajada natija ko'rsatilishini ta'minlash hamda tartibga solishdir. Bu bir qancha maxsus xususiyatlarga ega:

1. Musobaqa tizimida raqobatni oshib borish darajasiga qarab hamda yutuqqa bo'lgan talabga nisbatan (dastlabki va rasmiy musobaqalarda) faoliyatini tashkil qilishga.

2. Musobaqa o'tkaziladigan vositalarni amalga kiritishda sportchini faoliyati, shart-sharoiti va yutuqlarini baholash yo'llarini tartiblashtirish, ma'lum qoidalar hamda musobaqani umum me'yorlari bilan mustahkamlanadi.

3. Musobaqaga qatnashuvchilarni xulqi va o'zini tutish tartibiga ham bog'liq.

Sport musobaqalari - his-hayajon holatidagi ko'rinishda bo'lib hozirgi kunda 100 dan ortiq sport turi bo'yicha musobaqalar

o'tkazilmoqda. Har qaysi sport turi, musobaqa o'tkazish uchun o'zining metodologik asosiga, qatnashish sharti, o'tkazish qoidasi, g'oliblarni aniqlash va boshqa talab qilinadi.

Musobaqa qisman, sportchini tayyorlash tizimiga kiradi, chunki faqatgina shaxsiy sport tayyorgarligiga ega bo'lmasdan, ijtimoiy vazifalarni hisobga olgan (targ'ibot, ko'rgazmalilik va b.q.) holda ham musobaqalar tashkil qilinadi.

Sport musobaqasi - o'yin shaklida raqobat qilish shakli bo'lib, jismoniy tayyorgarligi, harakat malakasi va mashqlarni bajarish san'ati yoki o'ylash va tafakkur qilishni rivojlantirishni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Yosh sportchilardan tortib mahoratli sportchilargacha musobaqalarda qatnashish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musobaqalarga qatnashmay turib sport faoliyati haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Musobaqalar - sportchilar uchun, rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi va shu paytning o'zida sportchidan yuklamaning tobora oshirib borish, irodani tarbiyalash, sport kurashiga o'rganish va mashq jarayonini nazorat qilishga o'rgatadi. Sportchining musobaqalarda ko'p qatnashishi qanchalik tajribaga ega bo'lishligini amaliyot ko'rsatib turibdi. Negaki sportning barcha turlari bo'yicha bellashuvlar soni ortib ketdi.

Musobaqa davrida sportchi ishtirokining soni, eng avvalo, sport turi xususiyatiga bog'liq. Sport turlarida musobaqalar (haftasiga 1-2 musobaqa kunlari) chidamlilikda alohida talablar qo'yadigan va uzoqroq tiklanishni talab etadigan sport turlaridagiga qaraganda ko'proq o'tkaziladi.

Sportchini musobaqalarda ishtirok etishga tayyorgarlik tizimida quyidagilarni hisobga olish zarur:

- sportchi uchun musobaqalar hafsala bilan tanlanishi va asta-sekin murakkablashib boradigan bo'lishi lozim;
- musobaqada kuch jihatdan teng bo'lgan sportchilar qatnashishi kerak;

– yuqori darajadagi yutuqlarga erishish uchun muhim bo'lgan musobaqalarda qatnashish zarur;

– vaqtni u yerdan bu yerga ko'chish va h.k.va kuchni ko'p talab qiladigan musobaqalarning ko'payib ketishi mashq ishlarini cheklab, sportchi tayyorgarligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin;

– musobaqalar taqvimini (kun, taqsimot, musobaqalar qiyinligi darajasi) shunday sharoit yaratishi kerakki, bunda sportchiga katta imkoniyat yaratilsin. O'tkazilayotgan barcha musobaqalar shu maqsadga qaratilmog'i zarur.

Shunday qilib, sport musobaqalari erishilgan yutuqlarni namoyish qilish, ayrim sportchi va jamoaning yutuqlarini baholash va solishtirish usuli ekan.

Sportchilarni musobaqa vaqtidagi faoliyati musobaqa faoliyati deb yuritiladi. Musobaqa faoliyati eng yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan ayrim harakat, usul, kombinatsiyalardan iborat, tayyorgarlikning texnik, jismoniy, taktik, ruhiy-integral darajasi bilan ta'minlanadi. Sport musobaqalarida qatnashish musobaqa faoliyati ko'rinishining shakli bo'lib, sport bellashuvi vaqti cheklangan raqiblikdir, bu jarayonda bellashayotganlarning qobiliyatlari obyektiv ravishda solishtiriladi.

Musobaqalarni yuqori saviyada o'tkazish ularni tayyorlash darajasi qanday bo'lganligiga bevosita bog'liqdir.

Tayyorgarlik ishlariga hujjatlarni tayyorlash (ishlab chiqish), musobaqa o'tkaziladigan joylarni tayyorlash, qatnashuvchi jamoalar bilan ish olib borish va shu kabilar kiradi.

Har bir musobaqaga tayyorgarlik unga **nizom tuzish** bilan boshlanadi. Nizom musobaqa o'tkazishda asosiy hujjat bo'lib hisoblanadi. U yoki bu tashkilot Nizomni oldindan aniq bilishi, unga o'quv-trenirovka ishlarini to'g'ri rejalashtirishiga yordam beradi. Shuning uchun **Nizomni** o'z vaqtida qatnashuvchi tashkilotlarga oldindan yuborishlari o'ta zarur.

Nizom musobaqani o'tkazuvchi sport tashkiloti tomonidan tuziladi, hamda quyidagilarni ifodalaydi:

Musobaqaning maqsadi va vazifalari. Ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- a) o'quv-trenirovka ishlarining yakunini tekshirish;
- b) sportchilarning (birot sport turi bo'yicha, masalan voleybol, basketbol va b.sh.) tayyorgarligini tekshirish va kuchlarini aniqlash;
- v) sportchilarning sistemali ravishda trenirovka qilishga va sport mahoratlari oshirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;
- g) ma'lum bir sport o'yinini omma o'rtasida keng yoyish va boshqalar.

Musobaqalarni o'tkazish joyi va vaqti. Musobaqa o'tkaziladigan shahar (baza) ko'rsatiladi va kunlari belgilanadi.

2. Musobaqani boshqarish. Musobaqani tashkil qiluvchilar qaysi tashkilotligi, rahbarlari, hakamlar hay'ati va ularni tasdiqlovchi tashkilot ko'rsatiladi;

3. Musobaqalarda qatnashuvchi tashkilotlar va sportchilar. Musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni va nomi ko'rsatiladi; talabnoma (zayavka)ga kiritiladigan qatnashuvchilarning ko'pi bilan qancha bo'lishligi, ya'ni soni, yoshi va ularni malakasi belgilanadi.

4. Musobaqalarni o'tkazish shartlari. Qur'a tashlash vaqti, joyi va uning asosiy prinsiplari (tamoyillari) ma'lum qilinadi. Musobaqa qaysi o'yin sistemasi (aylanma, aralash) bo'yicha o'tkazilishi ko'rsatiladi.

5. Norozilik (protest)larni taqdim etish shartlari va ularni ko'rib chiqish tartibi belgilanadi. Jamoalarni va qatnashuvchilarni mukofotlash. G'olib jamoa va sovrindorlarni mukofotlash, estaliklar taqdim qilish ko'rsatiladi.

6. Jamoalarni qabul qilib olish. Agar musobaqalar sportchilarning doimiy turar joylarida o'tkazilmasa, uqholda mablag' ajratuvchi tashkilot, kelish va ketish muddatlari, joylashtirish hamda ovkatlantirish qanday tashkil etilishi ko'rsatiladi.

7. Talabnoma (zayavka)ni va qayta talabnomani taqdim etish turlari va vaqti, jamoalar va qatnashuvchilarni rasmiylashtirish

(pasport, reyting daftarchasi, klassifikatsiya bileti, talabalik guvohnomasini taqdim qilish) tartibi.

Nizom tuzilgandan so'ng, musobaqani o'tkazish uchun ketadigan mablag' smetasi tuziladi. Unga asoslanib mazkur musobaqani o'tkazadigan tashkilotlar pul vositalarini ajratadi.

Smeta tuzilganda quyidagilar ko'rsatiladi:

Musobaqa nomi

O'tkazish vaqti va joyi

Hakamlarning soni va ish haqi

Qatnashuvchilar soni (shu jumladan, boshqa shaharlardan kelganlar) ularni

joylashtirish, ovqatlantirish va yo'l harajatiga ketadigan mablag'.

Musobaqa o'tkazish joyini ijarasi.

Mehmonxona ijarasi.

Musobaqa o'tkaziladigan joyni badiiy bezatish uchun ketadigan harajat.

Afisha, dasturlar, qaydnomalar va yozish-chizish uchun kerakli qog'oz, qalam,

ruchka va shu kabilar harajati.

Diplom, esdalik sovg'alar, mukofotlar va shu kabilarga sarf bo'ladigan harajat.

Transportga ketadigan harajat.

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun harajat (ishchilar, farroshlar, tibbiy xodimlar).

Musobaqa o'tkazish uchun bosh hakam va bosh kotib tasdiqlanadi.

Yirik musobaqalarni o'tkazish uchun barcha tadbirlarni bevosita musobaqa o'tkazadigan joyda 5-7 kishidan iborat tashkiliy qo'mita tashkil qiladi. Uning vazifasiga musobaqa o'tkaziladigan joyni tanlash va jihozlash, asbob-anjomlarni tayyorlash, trenirovka va joylashish joylarini aniqlash, ovqatlanishni tashkil qilish, kotiblarni tayyorlash, musobaqa oldidan xabar berish kiradi. Musobaqadan oldin xabar berish gazeta, radio, televidenie orqali

3. Tadbirlarni o'tkazishda gigiyenik omillarning asosiy vazifasi va afzalliklari nimalardan iborat?

3. Alkogol ichimliklar ichish, chekish va salbiy odatlar bilan mashg'ul bo'lmaslik uchun o'smirlar bilan qanday profilaktik tadbirlarni olib boorish zarur?

4. Gigiyenik sharoitlarni yaratishda moddiy texnika bazasi bilan ta'minlanganlikning qanday ahamiyati bor?

5. Alkogol ichimliklar ichish, chekishning ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishga qay darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi? Misollar bilan izohlang.

6. Ichish, chekish va salbiy odatlar bilan mashg'ul bo'lmaslik uchun o'smirlar orasida qanday ishlarni amalga oshirish zarur?

7. Jismoniy faoliyatning qaysi turlarini bilasiz?

8. Optimal yukni qaysi omillar aniqlaydi?

9. Sog'liqni saqlashni doimiy me'yorida tutish texnologiyalari to'g'risida umumiy tushuncha bering.

10. Sog'liqni saqlash texnologiyalarini yo'naltirilganligi va harakatning mohiyati jihatidan tavsiflang.

11. Sog'likni saqlash pedagogikasi tamoyillarini sanab o'ting.

12. "Zarar yetkazmang!" jumlasini jismoniy tarbiya darslarida qanday tushuntirasiz?

13. Jismoniy tarbiya darslarida himoya va murabbiylik strategiyasini birlashtirishga misollar keltiring.

14. Bolalarning sog'ligi uchun javobgarlikni shakllantirish printsipini qanday tushunasiz?

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN TOPSHIRIQLAR:

1. Katta va keksa yoshdagi odamlar hamda nogironlar bilan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish mashug'ulotlarini tashkil qilish shakllari.

2. Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlarini tashkil qilish shakllari.

10-MODUL. "INSON RESURLARI" TUSHUNCHASI VA MOHIYATI.

REJA:

1. Inson resurslarini haqida tushuncha.
2. Inson resurslarini boshqarish sohasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi tushinchani shakllantirish.
3. Inson resurslarini boshqarish funksiyalari, prinsiplari, usullari to'g'risidagi tushunchani shakllantirish, bilimlarning nazariy va uslubiy asoslarini, shuningdek, inson resurslarini strategik boshqaruvini egallash.

Ma'lumki, jismonan sog'lom, bilimli va ma'naviy yetuk insonni tarbiyalash masalalari jahon, ayniqsa, Sharq faylasuflari hamda mutafakkirlari tomonidan chuqur o'rganilgan. Chunonchi, Arastu, Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushid, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Qubro kabi ulug' allomalarning asarlari va nazariy ta'limotlari shular jumlasidandir.

Qolaversa, yurtimizda azaldan yoshlarni aqliy va jismoniy jihatdan uyg'un tarbiyalashning milliy an'ana va qadriyatlarimizga mos qoidalari, ularni amalga oshirishning sharqona uslub va shakllari bo'lgan.

Yosh avlodni ham jismoniy, ham aqliy jihatdan yetuk va komil etib tarbiyalash vazifasi qo'yilgan davrlarda ikki tarbiyaviy yo'nalishni uyg'un holda olib borish va samaradorligini ta'minlash bosh masala hisoblangan. Shu tufayli ajdodlarimiz o'z milliyligini, ma'naviy boyligini saqlabgina qolmasdan, ezgulik, taraqqiyot, ma'rifat, mustaqillik sari intilganlar. Millatimizga xos ana shunday obyektiv intilish, millatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlar Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, A.Avloniy kabi buyuk mutafakkir hamda ma'rifatparvarlar xatti-harakatlari tufayli sayqal topib bordi, xalqimiz har qanday og'ir sharoitlar-

da ham sog'lom va yetuk farzandlar tarbiyalash vazifasini ustivor hisobladi.

Bu faollik nafaqat dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilikni, sanoat va qurilishni rivojlantirishda, balki jamiyat va oila hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zaro uyg'unlashtirishda ham namoyon bo'lgan. Jismoniy va intellektual yetuk insonning faolligi, aql-zakovati, kuch-qudrati quyidagi yo'nalishlarda, ayniqsa, zarur va samaralidir. Birinchisi – haqiqatni bilish; ikkinchisi – yaxshilik qilish, saxovatli bo'lish; uchinchisi – go'zallikni yaratish, boyitish, asrab-avaylash; to'rtinchisi – xalq, millat manfaatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida fidoyi bo'lish va ularni himoyalash.

Binobarin, insonning ijtimoiy faolligi uning fuqarolik mas'uliyati, millatparvarlik, vatanparvarlik fazilatlarini bilan jismoniy imkoniyatlarining xalq, millat, Vatan manfaatlarini yo'lida safarbar eta olishi bilan baholanadi.

Buyuk bobokalonimiz Amir Temur davridan keyin hukm surgan O'rta Osiyo xonliklarida yoshlarning faqat bir qismi harbiy tayyorgarlikka jalb etilgan bo'lsa, mustamlaka yillarida (1874-yildan keyin) Turkistonning musulmon aholisi harbiy xizmatga mutlaqo jalb etilmagan, 1934-yildan keyin O'zbekiston va Markaziy Osiyoning tub millat yigitlari aksariyat hollarda quruvchi batalonlar va temir yo'l harbiy qismlariga jalb etilgan.

Sobiq tuzum davrida siyosiy, mafkuraviy va ijtimoiy muhit yoshlarning jismonan sog'lom, har tomonlama komil inson bo'lib voyaga yetishlariga to'sqinlik qilardi. Qishloq hududlaridagi maktablarning moddiy-texnik bazasi nochor bo'lgani, milliy sport o'yinlarimizning deyarli yo'qotilgani jismoniy tarbiya va sportning darajasiga, bu boradagi tarbiyaviy ishlar saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan kundan boshlab, yoshlarning jismoniy-intellektual resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy va tashkiliy shart-sharoit yaratish imkoniyatlari ham paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda ta'lim va sport tizimidagi islohotlarni uyg'un tarzda jismonan sog'lom, aqlli va bilimli yoshlarni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirish bo'yicha ko'pgina amaliy ishlar qilinmoqda.

Ishlab chiqarishda esa, mehnat unumdorligini oshirish omili sifatida tabiiy resursdan olinadigan mahsulot hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatning kuchli iqtisodiy rivojini, uning kelajagini ta'minlab beruvchi bebaho manbaa xalqdir. U qancha ko'p yuqori bilimga ega, jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol topgan, buyuk kelajakka intilgan odamlarni birlashtirgan bo'lsa, farovon hayot va yuqori iqtisodiy tarraqqiyot bosqichiga shuncha tez erishadi. Bu jismoniy-tarbiya va sportga bo'lgan qarashlarni qayta o'rganib, barkamol avlodni tarbiyalash tamoyillarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Eng muhimi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning barkamol avlodni tarbiyalash to'g'risidagi fikrlari ijtimoiy tafakkurni ham o'zgartirmoqda. "Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida "Yoshlar - kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda "

Biz mazkur yo'nalishga asosan insonning barkamollik darajasini sifat va miqdor jihatdan ko'rsatuvchi **"jismoniy-intellektual resurs"** degan tushunchani qabul qildik.

Shu paytgacha qadar "resurs" degan tushuncha faqat iqtisodiy yoki tabiiy manbaa ma'nosini anglatgan. U, asosan, foydalanish mumkin bo'lgan boylik va imkoniyat, odamlarning turmush sharoitini yaxshilash uchun ishlatiladigan zaxira ma'nosida qo'llanilgan. **"Intellekt"** so'zi esa aql-idrok, zehn ma'nosini bildirib, kishilarning ma'naviy yetukligini ham ifoda etadi.

Shunga ko'ra, jismoniy va intellektual resurslarni bir-biridan ajratmagan holda, o'zaro uyg'unlikda rivojlantirish yoshlardagi yillar davomida shakllangan hali ishga solinmagan jismoniy-intellektual salohiyatdan yaratuvchanlik, salomatlik, barkamollik va go'zallik manbai, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini, xalq turmushini tobora yaxshilash va Vatan xavfsizligini ta'minlash vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi. "XXI asrda qaysi davlat qudratli, qanday xalq kuchli bo'ladi? Bu savolga, aholisi intellektual nuqtai nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo'lib unib-o'sayotgan davlat, deb javob qaytarish mumkin".¹⁴

Yoshlarning jismoniy-intellektual resurslarini uyg'un rivojlantirishda, ayniqsa, sportning imkoniyatlaridan keng foydalanish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi bejiz emas. Chunki sport mazkur resurslarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashning zarur omilidir. Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev: "Sport nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga yetishishda ham muhim omildir. U irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi", deganlarida mutlaqo haqdir-

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy -axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim- tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori. 14.08.2018- yil.

lar. Boshqacha aytganda, jismoniy tarbiya va sport mamlakatimiz milliy istiqloq g'oyasining tarkibiy qismidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy faol fuqaro, mustaqil shaxs, barkamol inson tarbiyasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'sib kelayotgan yosh fuqarolarning avvalo o'z haq-huquqini taniydirgan va buning uchun kurasha oladigan, ikkinchidan, o'z kuchi va imkoniyatlariga (resurslariga) tayanadigan, uchinchidan, atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildiradi oladigan, to'rtinchidan esa, mamlakat va xalq manfaatini shaxsiy manfaatidan yuqori qo'yadigan insonlar bo'lib voyaga yetishlarini maqsad qilib olgan.

Bu talablarga to'liq javob bera oladigan komil insonlarni tarbiyalash uchun ularning jismoniy-intellektual salohiyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini oshirish lozim. Mazkur talab ommaviy sportni Kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida bosqichma-bosqich keng rivojlantirish va amalga oshirib borishni taqozo qiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga mos ravishda shakllantirilgan uzluksiz ommaviy sport harakati jismoniy-intellektual resurslarni vujudga keltiruvchi asosiy kuchlardan biri sifatida umumiy o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari talabalarining jismoniy tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydi.

Jismoniy-intellektual resurslarni o'zaro rivojlantirish, tasarruf etish jarayoni tabiiy resurslardan foydalanish jarayonidan tubdan farq qiladi.

Barkamol insonni shakllantirish jarayoni jismoniy-intellektual resurslardan foydalanish va ularni rivojlantirish ishini milliy-ma'naviy resurslar bilan uyg'unlashtirgan holda olib borishni talab qiladi. Demak, jismoniy-intellektual resurslar tabiiy resurslardan ham miqdoriy, ham sifat jihatidan davriy takrorlanishi va qaytarilishi bilan farq qiladi. O'zini fiziologik jihatdan qayta tiklash va kamol toptirib borish jismoniy-intellektual resursning o'zidan keyingi bosqichi imkoniyatlari miqdor va sifat jihatdan

samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Bu avlodlarning genetik o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilib, ularni har jihatdan barkamollashtirish xususiyatiga ega. Ya'ni, jismoniy-intellektual resurs, o'zini yana qayta sifatli qilib yarata oluvchi kuchdir.

Inson barkamolligini belgilovchi uch asosiy omil –jismoniy, aqliy va ma'naviy salohiyat jamiyatda mislsiz ijobiy o'zgarishlar joriy etish imkoniyatiga ega. Bu, avlodlar hayotida yanada yangilanib, rivojlanib, yanada yangi mazmun-mohiyat kasb etib bora-veradi.

Barkamol avlodning shakllanishi, ulardagi intellektual va jismoniy resurslarning ortishi yoki, aksincha, kamayishi jamiyatning har bir a'zosi ma'naviy salohiyatiga bog'liq. Jismoniy-intellektual resursning yaratuvchanlik harakati uning muntazam rivojlanib borishini kafolatlaydi.

Komil insonning jismoniy va intellektual qobiliyati ma'lum davrda qanchalik rivojlanib bormasin, u milliy xususiyatlar, xalqning turmush tarzi va kayfiyatlarini e'tiborga olgan holda, jamiyat ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, kompleks yo'naltirilmasa, to'liq barkamol bo'la olmaydi. Negaki, jismoniy chiniqish, intellektual qobiliyat hamda ma'naviy yetuklik barkamol inson resursini to'la shakl-lantiruvchi asosiy ustunning tarkibiy qismlaridir.

Ma'lumki, uch oyoqda o'rnatilgan konussimon qurilmalar juda mustahkam bo'ladi. Xuddi shuningdek, barkamollik-jismoniy, aqliy, ma'naviy ustunlari mustahkam poydevor sifatida shakllanganidagina jamiyat va davlat manfaatlariga samarali xizmat qila boshlaydi.

Jismoniy yetuklik intellektual va ma'naviy kamolot bilan uyg'un shakllanmasa, vayronkor yoki buzg'unchi kuchga aylanib ketishi mumkin. Jismoniy-intellektual va ma'naviy resurslar doimo yangilanadigan kuch, tuganmas yaratuvchanlik energiyasi hamdir. Barkamol avlodning mavjud salohiyati jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan yuksalib borishi natijasida jamiyat Prezidentimiz aytganlaridek, "yuksalish-portlash effektiga" tez erishadi.

Bu, o'z navbatida, jamiyat rivojlanishini yanada tezlashtiradigan bunyodkorlik kuchini ruhlantiradi.

Shu bois inson vujudidagi jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyatlar mujassamlansa, bunyodkor kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur harakat O'zbekistonda barpo etilayotgan yangi jamiyat taqdiriga daxldor masala sifatida e'tirof etilgan. Uzlüksiz om-maviy sport harakatlari jismoniy-intellektual salohiyatni yuksaltirish omillaridan biri ekan, mana shunday rejali harakat orqali barkamol avlodni shakllantirish, jamiyatimiz hayotini ma'naviy yangilash, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, har bir O'zbekiston fuqarosining yurtimizning buyuk kelajagi poydevorini mustahkamlashga safarbar etish bosh maqsad bo'lib qolaveradi.

Yuqoridagi mulohazalarni e'tiborga olgan holda, ushbu ishda jismoniy tarbiya va sport sohasida mamlakatimiz jismoniy-intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, bu boradagi zaxiralarni tarbiyalash va kamol toptirishning o'rni va ahamiyati tadqiq etildi. Unda keyingi yillarda mazkur yo'nalishda olib borgan kuza-tishlarimiz, mustaqillik yillarida yurtimizda jismoniy-intellektual resurslar samaradorligini oshirish, ularni to'g'ri boshqarish bo-rasida qilingan salmoqli ishlar, bu sohada istiqbolda qilinadigan vazifalar tahlil etildi. Bu boradagi ishlar aniq maqsadga yo'naltirilgani bois mazkur mavzudagi tadqiqot dastlabki tajriba bo'lib inson vujudida uyg'unlashgan jismoniy, aqliy va ma'naviy resurslar bunyodkor kuch manbai sifatida belgilandi.

Dunyo tajribasida ilk bor jismoniy-intellektual resurslarni maqsadli rivojlantirish va ularni samarali boshqarish tizimiga O'zbekistonda asos solindi, uning amaliyotga joriy qilinishi aso-sida ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Mustaqilligimizning birinchi kunlaridan boshlab mamlakatimizda jismoniy-intellektual re-surslarni samarali boshqarish masalalariga alohida e'tibor qa-ratildi. "Jismoniy tarbiya va sport insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga erishishida ham ulkan omildir. U iro-dani toblaydi, odamni aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'a-

labaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi. Vatan, xalq shuhratini dunyoga tarannum etishda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda sportning o'rni beqiyosdir. Sog'lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq, albatta, o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini ta'minlash, uni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalash-ning muhim shartidir".

Jismoniy-intellektual resurslarni maqsadli rivojlantirish va ularni samarali boshqarish tizimi xalqimiz o'z oldiga qo'ygan Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi oliyjanob maqsadlarni amalga oshirish jarayoni orqali shakllantirilmoqda. "Sport sport uchun emas, eng avvalo, odamlar uchun, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan komil insonlar etib tarbiyalash uchun, yer yuzidagi barcha kishilarning tinchlik, osoyishtaligi, do'stlik va hamkorligi, baxt-saodati uchun xizmat qilishi darkor". Shuning uchun ham mamlakatimizda bu borada quyidagi strategik yo'nalishlar belgilab olingan:

- jismoniy-intellektual resurslarga davlat siyosati darajasidagi ustuvor masala sifatida yondashish;

- jismoniy-intellektual resurslarni samarali boshqarish tizimini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirishning ilg'or mexanizm va vositalarini amaliyotga joriy qilish;

- ommaviy sportni ustuvor rivojlantirish, professional sportdagi iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash;

- jismoniy-intellektual resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, insoniy barkamollik va milliy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ulkan ahamiyati, yuksak maqomi hamda o'ziga xos o'rnini ta'minlash, bu yo'nalishda tegishli shart-sharoitlarni yaratish;

- bu sohada bozor munosabatlari va ijtimoiy boshqaruv tamoyillari rivojiga erishish.

O'tgan davr ichida jismoniy-intellektual resurslarni maqsadli rivojlantirish va samarali boshqarishning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratishga ham katta ahamiyat berildi.

Jismoniy-intellektual resurslarni samarali boshqarish ishiga, yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodologik talablar asosida, yaxlit ti-

zim sifatida yondashuvga erishish uning faoliyat samaradorligini ta'minlashning muhim omili bo'ldi.

Ushbu boshqaruvda ko'zlangan maqsad va marraga erishish yo'llari, vosita va mexanizimlarining uyg'un holda faoliyat yuritishi nazarda tutiladi.

Mazkur yo'nalishdagi boshqaruvni yaxlit tizim asosida amalga oshirishning bosh maqsadi aholining barcha ijtimoiy qatlam va guruhlarini qamrab olish, bu jarayonda uzviylik va davomiylikni ta'minlash, oxir-oqibatda yuqori natijalarga erishishga qaratilgandir. "Sog'lom oila vujudga kelishi uchun, eng avvalo, jamiyat va davlat qayg'urishi, shunga zamin yaratib berishi lozim. Shundagina mustahkam oila dunyoga keladi. Oila sog'lom bo'lsa, jamiyat sog'lom, mamlakat qudratli, yurt tinch, osoyishta bo'ladi" deyilishi bejizga emas.

Boshqaruv nazariyasi va amaliyotining rivojlanish jarayoni uzoq tarixga ega. Zero, turli darajadagi boshqaruv tizimlari birdaniga shakllanib qolmagan. Ular juda katta makon va zamondagi nazariy, amaliy jarayonlar natijasida, asrlar davomida shakllanib, hozirgi darajaga yetgan.

Boshqaruvning tarixiy rivojlanish jarayoni to'g'risida fikr yuritilganda, bizningcha, uning quyidagi uch xususiyatini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:

1. Tarixiy rivojlanish xususiyati
2. Fan sifatida rivojlanish xususiyati
3. Mintaqaviy omillarni hisobga olgan holda takomillashib borish xususiyati.

Boshqaruvning tarixiy rivojlanish xususiyati iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Boshqaruv nazariyasi va amaliyotining mazkur davrida qomusiy olimlar, buyuk sarkarda va davlat arboblarning faoliyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Buyuk vatandoshlarimizning jahon boshqaruv ilmi va amaliyoti taraqqiyotiga qo'shgan salmoqli hissalarini o'zligimizni anglashda, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Buyuk ajdodimiz Amir Temur (1370-1405) Jahonda boshqaruv nazariyasi va amaliyoti rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'sh-

gan. Buyuk ajdodimiz, jumladan, makro darajadagi boshqaruv tamoyillari, boshqaruv tuzilmasi, boshqaruv subyektlarining vakolati va mas'uliyati kabi yo'nalishlar nazariyalariga asos solgan va ularni mohirona amaliyotga tatbiq qilgan. Saltanatni boshqarishning o'n ikki tamoyilini asoslab bergan va ular bugungi boshqaruv tizimida ham qo'l kelmoqa. Xususan, har ishni kengash va maslahat bilan amalga oshirish, adolatpeshalik, muhtojlarga mu ravvat ko'rsatish, hamkorlik kabi tamoyillar bugungi kunda ham boshqaruv borasida muhim ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvida Amir Temur tomonidan vazirlarga nisbatan ishlab chiqilgan talablar - aql-farosatlilik, sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lish, sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik tamoyillari ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida fan-texnika taraqqiyotining shiddatli o'sishi, bozor munosabatlarining chuqurlashib borishi, iqtisodiy munosabatlarning takomilla-shuviga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida boshqaruvni maxsus fan va faoliyat sohasiga aylantirish zarurati tug'ildi. Shu bois 1880-1920-yillarda boshqaruvga maxsus fan va faoliyatning muhim sohasi sifatida alohida ahamiyat berildi. Fredrek U.Teylor tomonidan nashr qilingan "Ilmiy boshqaruv printsiplari" asari ham ana shu ehtiyoj mahsuli sifatida yuzaga keldi.

Boshqaruv tafakkuri rivojida mintaq va ishlab chiqarish xususiyatlarini hisobga oladigan bo'lsak, boshqaruv nazariyasi va amaliyotining moslashuvi hamda takomillashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, U.Teylor tomonidan taklif qilingan fikrlar Angliya, Germaniya korxonalarini boshqarishda aynan qabul qilinmagan, balki nazariy, amaliy tajribalar bilan boyitilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda boshqaruv sohasida amalga oshirilayotgan makro-mikro darajadagi ishlarda ham shu yo'ldan borilmoqda. Amir Temurning yuqorida zikr etilgan kontsepsiya va yondashuvlari esa, tarixiy ma'nodagi nazariya va amaliyot uyg'unligining namunasi hisoblanadi.

Boshqaruv tafakkuri rivojiga nisbatan qator yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning quyidagi turlarini alohida ko'rsatib o'tish lozim:

1. Tarixiy yondashuv. Ushbu yondashuv makro-mikro darajadagi boshqaruv obyekti va boshqaruv maqsadiga ko'ra yuzaga chiqdi, boshqaruv ilmi va amaliyoti rivoji uchun mustahkam asos yaratib berdi.

2. XIX asr oxirlari va XX asr boshlaridagi iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar, munosabatlarning murakkablashuvi boshqaruv sohasidagi tajribalarni umumlashtirish, ishlab chiqarishni obyektiv boshqarish borasida samarali uslublarni izlash zaruratini yuzaga chiqardi.

Amerikalik muhandis Frederik Teylor "Ilmiy boshqaruv tamoyillari" (1911- yil) asarida boshqaruvga "qilish kerak bo'lgan ishni eng arzon va yaxshi usulda qanday amalga oshirishni aniq bilish san'ati" deb ta'rif bergan. U boshqaruv vazifalarini uch amal - tanlash va vositalarni tiklash, vositalarni tayyorlash, natijalarni nazorat qilishdan iborat, deb ko'rsatdi. F.Teylor ishlab chiqarishni samarali tashkil etish borasida o'sha davr nuqtai nazaridan qulay usullarni taklif qildi. Unga ko'ra ishchining har bir operatsiya uchun sarflaydigan harakatini o'rganish natijasida berilgan ish hajmining yagona, eng muvofiq bajarish usuli aniqlanar edi. Befoyda xatti-harakatlar bartaraf etilib, ulardan eng samaralilari tanlab olinar, nisbiy ish haqining maxsus tizimi qo'llanib, berilgan normani bajarmagan ishchilar ish haqini 20-30 foiz kamaytirish bilan jarima solinar edi. Shu bilan birga, berilgan vazifalarning yuqori darajada bajarilishi uchun sharoitlar yaratilar edi (maxsus asboblardan ta'minlash, hisob yuritish, nazorat qilish, mehnatni batafsil rejalashtirish va boshqalar).

F.Teylorning boshqaruv tizimi yuzasidan takliflari qo'llangan korxonalarda o'rtacha ishlab chiqarish unumdorligi uch yil mobaynida ikki marta oshdi va u rivojlangan mamlakatlarning deyarli hamma kompaniyalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llandi. F.Teylor bu usulni ishlab chiqarishning

muvaffaqiyati bevosita xodimning o'ziga, uning jismoniy kuchiga bog'liq bo'lgan sharoitda yaratgan bo'lib, uning asosida ishni ratsionalizatsiya qilish tamoyili yotadi.

F.Teylor o'zigacha yaratilgan ta'limotlardan oqilona foydalalanib, boshqaruv fanida ratsionalistik ilmiy maktabni yaratdi. Boshqaruv ishiga an'anaviy yondashuv uning uslubiy asosini tashkil etadi. Unga ko'ra, muayyan kompaniya (firma) bir-biridan alohida, mustaqil tarkiblardan tashkil topgan, lekin ularning barchasi boshqaruvning umumiy qonuniyatlari asosida rivojlanadi, deb qaralgan. Bu esa, kompaniyaning yaxlit bir tizim ekanini inkor etish bo'lib, salohiyatidan to'liq foydalanishga imkon bermasdi.

3. Menejment fani rivojlanishiga ma'lum darajada hissa qo'shgan yana bir fransuz olimi Anri Foyol (1841-1925) menejmentda tarixiy va ratsionalistik qarashlarga asoslangan, F.Teylordan farqli o'laroq, yaxlit holda olingan tashkilot va boshqaruv masalalari bilan shug'ullangan. O'zining boy amaliy tajribasini "Umumiy va sanoat boshqaruvi" (1916) nomli asarida umumlashtirgan. Mazkur maktabning boshqaruv fani oldidagi xizmati shundan iboratki, avvalo, boshqaruv tamoyillarini rivojlantirgan, o'ziga xos boshqaruv vazifalarini shakllantirgan, nihoyat, tashkilotni boshqarish ishiga, tarixiy tajribalarni umumlashtirgan holda, tizimli yondashuvga asoslagan.

A.Foyol korxonada amalga oshirilayotgan hamma operatsiyalarni oltita guruhga bo'lgan: texnik, tijorat, moliyaviy, mulk va shaxslarni muhofaza etish, hisob hamda ma'muriy. U boshqarishni oltinchi guruh zimmasiga yuklatilgan va boshqarish-korxona resurslaridan oqilona foydalanishga harakat qilib, ushbu olti asosiy funktsiyaning turli harakatini ta'minlashi uni maqsad sari olib borishi lozim, deb hisoblagan va boshqarish tamoyillarini quyidagilardan iborat deb qaragan:

- kelajakni ko'rish (kelajakni o'rganish va harakat dasturini aniqlash);

- tashkillashtirish (korxonani ikki: moddiy va ijtimoiy tarkibdan iborat qilib qurish);

- idora qilish (korxona xodimlarini faol harakatga keltirish);
- kelishish (harakat va tashabbusni uyg'unlashtirish va pag'batlantirish);

- nazorat qilish (buyruqlar asosida harakatni kuzatish). Bu tasnif hozirgi davrgacha boshqarish fanining asosini tashkil etadi.

4. XX asrning 20-yillariga kelib mashinalashgan ishlab chiqarishda jismoniy imkoniyatlardan foydalanish yuqori darajaga yetdi. Ishlab chiqarishda intellektual resurslardan foydalanish davri keldi. Bu esa, boshqaruvga yangicha yondashuvni talab etdi. Natijada, menejment masalasiga insoniy munosabatlar sifatida yondashuv amaliyoti vujudga keldi. Uning asoschilari Elton Mey (1880-1949) va Meri Parno Folett (1868-1933) hisoblangan. Ushbu nazariyasi, asosan, mustahkam birlashgan jamoani tarkib toptirish, unda yaxshi mikromuhitni shakllantirish, xodimlarga mehribonlik qilish, ularga yordam berishni menejning asosiy vazifasi sifatida talqin etadi.

5. XX asrning 50-yillaridan boshlab boshqaruvga yuqori estetik did va namunali hulq-atvor asosida yondashuv tamoyili shakllana boshladi. Chunki "insoniy munosabatlar" maktabi asosiy e'tiborni jamoaga qaratgan bo'lib, ishlab chiqarish faoliyatining murakkablashuvi va individuallashuvi davrida buning o'zi yetarli emas edi. Endilikda e'tiborni jamoaga emas, uning asosi bo'lgan har bir xodimga alohida qaratishni taqozo etardi. Ushbu yondashuv alohida olingan xodimning o'z imkoniyatlari va layoqatini tashkilot manfaatlariga mos ravishda namoyon qilishini ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu yo'nalishga mansub olim - Duglas Mak-Gregor (1906-1964) "Korxonaning insoniy tarafi" asarida tarixiy tajribalardan kelib chiqqan holda, "X" va "U" nazariyasini ilgari surdi.

Birinci nazariyaga muvofiq, inson tabiatan dangasa, uni harakatga keltirish uchun jazolash yoki yo'qchilik bilan qo'rqitish zarur. Ikkinchi nazariyaga asosan esa, insonlarga yoqimli mehnat bilan shug'ullanish, qarorlar qabul qilishda qatnashish, jonbozlik ko'rsatishdan xursandlik, xayrixohlik zarur. Bundan kelib

chiqqan holda D. Mak-Gregor "xodimlarga mayda vasiylik qilishdan voz kechish, ularning ijodiy harakatlari va mustaqilligi uchun sharoit yaratib berish, ishlab chiqarishga insoniy munosabatlarni tatbi, etish kerak. Birinchi nazariya eskirdi, shu bois menejerlar ikkinchi nazariya bilan qurollanmog'i zarur", deb ta'kidlaydi.

Ilg'or kooperatsiyalarda menejment ushbu tamoyillarni hisobga olgan holda "qisqartirilgan ish haftasi", "surilgan ish jadvali" va boshqa shakllardagi yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etadi.

6. Tashkilotning ishlab chiqarish, moliyaviy, marketing, ijtimoiy, ekologik va shu kabi faoliyatlari o'zaro bog'liqligi, shuningdek, ichki va tashqi munosabatlarning kuchayishi XX asrning o'rtalarida boshqarishga tizimiy yondashuvning shakllanishiga olib keldi. Ushbu yondashuvga muvofiq tashkilotning hamma tarkiblari bir-biriga bog'liq va o'zaro uyg'un holda harakat qiladi. Ularning biridagi o'zgarish, muqarrar ravishda, boshqalaridagi o'zgarishga, pirovard natijada esa, butun tashkilotdagi o'zgarishlarga olib keladi. Bu har qanday muammoning atroflicha o'rganilishi va hal etilishini talab qiladi.

Tizimiy yondashuv namoyondalaridan biri amerikalik Chester Bernard bu boradagi tarixiy tajribalarni umumlashtirgan holda, birinchi marta tashkilotga ijtimoiy tizim sifatida qaragan, shundan kelib chiqib, menejmentning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat deb ta'kidlagan: tashkilotning maqsadlarini belgilash, ularning alohida tarkiblari o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish hamda o'zaro uyg'un va samarali harakat qilishini ta'minlash.

Tizimiy yondashuvga asoslanib, Bernard "korporatsiyaning ijtimoiy mas'uliyati" kontseptsiyasini yaratdi. Unga muvofiq, alohida tashkiliy tizimlar va ularda qabul qilinayotgan qarorlar tashkilot faoliyatida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun, menejment tashkilotning kelajakdagi rivojida buni, albatta, inobatga olishi zarur.

Hozirgi davrda fan va texnika inqilobi, oldingi davrdan farqli o'laroq, ichki va tashqi muhitning tez va kutilmagan tarzda o'zgarib turishiga olib keldi. Demak, bu davrda menejment oldida

o'zgaruvchan muhitga moslashish masalasi ustuvor bo'lib qoldi. Bunday o'zgarishlarni "ahvoliyl yondashuv" nazariyasi o'zida aks ettirdi va shu asosda hozirgi kunda faol ishlayotgan strategik boshqaruv kontsepsiyasi yaratildi. Uning mohiyati shundan iboratki, menejment har xil vaziyatlarda turlicha qo'llanadi, shuning uchun ham menejmentning asosiy vazifasi vaziyatga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishdan iborat.

Boshqaruv turlari to'g'risida gapirganda, uning quyidagi ko'rinishlari mavjudligini ko'rsatib o'tish mumkin: davlat boshqaruvi, hududiy va tarmoq boshqaruvi, xo'jalik subyekti darajasidagi boshqaruv. Menejment oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar uning tuzilmalari orqali ro'yobga chiqariladi. Shu munosabat bilan menejmentning ikki - umumiy-tashkiliy va funksional turi mavjud.

Umumiy-tashkiliy menejment kompaniya (firma) faoliyatining bir maqsadga yo'naltirilganini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvdir. Yanada aniqroq, aytganda, u kompaniyaning turli bo'linmalari va xizmatchilar faoliyatini yagona bir maqsadga buy-sundirishni yoki muvofiqlashtirishni tashkiliy, tizimiy, uslubiy jihatdan ta'minlash vazifasini amalga oshiradi.

Funktsional menejment kompaniya (firma) faoliyatining maxsus sohalarini boshqarishni anglatadi.

Jumladan:

- mehnat resurslari menejmenti;
- marketingni boshqarish;
- ishlab chiqarish menejmenti;
- moliya menejmenti;
- investitsiyalar menejmenti;
- ekkauentingni boshqarish.

Mehnat resurslari menejmenti orqali xodimlarni tanlash, joylashtirish, o'qitish, ularning malakasini oshirish, mehnatini rag'batlantirish va motivatsiyalash, mehnat sharoitlarini yaratish, xodimlarning mehnat qilish va dam olish sharoitlarini yaxshilash va shu kabi masalalar hal etiladi.

Marketingni boshqarish-marketingning tashkiliy tuzilmalarini shakllantirish, uni harakatga keltirish, bozor imkoniyatlari tahlili va maqsadga muvofiq, bozorni tanlash, ishlab chiqarish va bozor mutanosibligini ta'minlash hamda rejalashtirish hamda nazoratni amalga oshirishni qamrab oladi.

Ishlab chiqarish menejmenti - ishlab chiqarishni tashkil etish, texnika va texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlash, oldindan aniqlangan parametrlar asosida ish yuritish, yuqori sifatni ta'minlash, unumdorlikni oshirish va shu kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan.

Moliya menejmenti - kompaniya (firma) moliyasini shakllantirish, uning manbalarini aniqlash, samarali joylashtirish, moliyaviy ahvolni mustahkamlab borish va istiqbol rejalarini asoslash kabi masalalarni boshqaradi.

Investitsiyalar menejmenti-kompaniya (firma) investitsion faoliyatining hamma jabhalari samarali va foydali bo'lishini ta'minlaydi.

Moddiy texnika ta'minoti menejmenti-kompaniya (firma) faoliyatini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kompleks masalalarni boshqaradi. U o'z faoliyatida marketing xizmati bilan uzviy aloqada bo'ladi.

Ekkauntingni boshqarish-tashkilot faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, reja ko'rsatkichlarini boshqa tashkilotlarning ma'lumotlari bilan solishtirish, uning asosida kamchiliklarni aniqlash, rivojlanish imkoniyatlarini yaratish bilan bog'liqdir.

Menejment jarayoni amalda quydagilar asosida harakat qiladi:

- ijtimoiy - iqtisodiy qonunlar;
- menejment qonuniyatlari;
- menejment tamoyillari.

Menejment asosan, quyidagi tamoyillar asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi:

- ilmiylik;
- maqsadga yo'naltirilganlik;

- ketma-ketlik va bir-birini to'ldirish;
- doimiylik;
- o'ziga xos xususiyatni hisobga olish;
- boshqaruvning doimiy takomillashib borishi;
- boshqaruvning samaradorligi.

Ilmiylik tamoyili-boshqaruvning har bir masalasi ilmiy asoslangan faoliyat asosida hal qilinishini talab etadi va uning amalga oshirilishini bildiradi. Masalan, qaror qabul qilish jarayonida ilmiy bashorat qilish usullaridan keng foydalanish talab etiladi. Bu esa, qarorlarning kelajak talablarini hisobga olgan holda qabul qilishini ta'minlaydi.

Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili-boshqaruv faoliyatining tizim oldiga qo'yilgan maqsad yoki vazifani bajarishga qaratilishini ta'minlaydi. Masalan, kompaniya rahbariyati ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini yaxshilashni ustuvor vazifa deb belgilagan bo'lsa, hamma boshqaruv subyektlarining faoliyatlari ushbu ustuvor vazifani bajarishga qaratiladi.

Ketma-ketlilik va bir-birini to'ldirish tamoyili-boshqaruv faoliyatining to'laqonliligi va tizimning yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan. Masalan, kompaniyani inqiroz sharoitidan olib chiqish uchun boshqaruv rejasida eng muhim iqtisodiy, texnik va ijtimoiy chora-tadbirlar aniqlanadi, ularning bajarilishida ketma-ketlikka asoslaniladi va ular asosida boshqaruv jarayoni yuzaga chiqadi.

Doimiylik tamoyili-ishlab chiqarish samaradorligini boshqaruv faoliyati ta'sirida ta'minlashga qaratilgan. Masalan, faraz qilaylik, kompaniyada marketing menejmenti doimiy amalga oshirilmaydi, natijada boshqaruv tizimi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajara olmaydi, oxir-oqibatda ishlab chiqarishga katta zarar yetadi.

Menejmentda o'ziga xos xususiyatni hisobga olish tamoyili - har bir boshqaruv obyektining individual xususiyatlarini hisobga olishni anglatadi. Masalan, F.Teylorning Amerika zavodlari tajribasida ishlab chiqilgan boshqaruvga oid taklif va tavsiyalaridan

Germaniya, Angliya va Rossiya sanoat korxonalarida o'zlariga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanganlar.

Tizimli va komplekslilik tamoyili - boshqaruv jarayonida uning har bir obyekti va muammosiga tizimli hamda kompleks tarzda yondashish kerakligini bildiradi. Masalan, unumdorlikni boshqarishda unga bir tizim deb qarash va uni hal etishda kompleks omillarni boshqarish zarurligi taqozo etiladi.

Boshqaruvning doimo takomillashib borish tamoyili-iqtisodiyot, ishlab chiqarish, fan-texnika taraqqiyoti va ehtiyojlarning doimo rivojlanib borishiga mos ravishda boshqaruv faoliyatining takomillashib borishini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, boshqaruv faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyasining qo'llanilmasligi oxir-oqibatda ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga sabab bo'ladi.

Menejmentning yuqori malakalilik, mas'uliyat va ijodkorlik tamoyili-boshqaruv faoliyatida mashhur bo'lgan xodimlar, menejerlar faoliyatining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Masalan, boshqaruv va ishlab chiqarish samaradorligi, birinchi navbatda, menejerlarga bog'liq. Kompaniya juda qulay moliyaviy, texnik va boshqa imkoniyatlarini chalasavod, mas'uliyatsiz va ijodkor bo'lmagan menejer qo'liga topshirsa, u bankrot bo'lishi mumkin.

Boshqaruv samaradorligi tamoyili-boshqaruv faoliyati natijalarining samaradorlik mezonlariga javob berishida namoyon bo'ladi.

Menejment faoliyatining hayotiy zarurati uning quyidagi vazifalarida aks etadi:

1. Strategik rejalashtirish.
2. Strategiyaning amalga oshirish uchun uzoq va qisqa muddatli rejalashtirish.
3. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi va o'zaro munosabatlarni tashkil qilish.
4. Motivatsiya.
5. Muvofiqlashtirish.

6. Nazorat.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, strategik qarorlar yuqori tashkilot, rahbariyat tomonidan qabul qilinadi.

Strategiyani amalga oshirishda uzoq va qisqa muddatli rejalashtirish strategik qarorlarning quyi bo'g'inlar tomonidan amalga oshirilishini bildiradi.

Mamlakatimizda jismoniy-intellektual resurslarni samarali boshqarishni ikki davrga bo'lish mumkin.

Birinchi davr-mustaqillikkacha bo'lgan davrni qamrab olib, u ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimi xususiyatlarini aks ettiradi va xalqimiz, mamlakatimiz manfaatlariga mos bo'lmagan mazmun kasb etgan.

Ikkinchi davr-mustaqillik yillarida jismoniy-intellektual resurslarni samarali boshqarishning mutlaqo yangi sifat davrini tashkil etadi. Mazkur davrning boshqaruvi quyidagi tamoyillarda namoyon bo'ladi:

- jismoniy va intellektual resurslarni uyg'unlikda boshqarish;
- jismoniy-intellektual resurslarni tizimli boshqarish;
- jismoniy-intellektual resurslarni milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda, samarali boshqarish.

"Biz tanlagan yondashuvlar ko'p jihatdan tajriba, izlanish tarzidagi yondashuvlar edi. Lekin biz bu tajribalarni dadil amalga oshirdik. Ularni o'zini obro'sizlantirib qo'ygan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tuzog'idan qat'iyon xalos bo'lishning, jadal o'zgarib borayotgan iqtisodiy sharoitlarga mos bo'lgan yangi muassasalar tizimini tezlik bilan joriy etishning birdan-bir yo'li deb bildik".

O'zbekistonda jismoniy-intellektual resurslarni samarali boshqarish modeli va unga mos ravishda yondoshuv natijasida jismoniy-intellektual resurslar barkamol avlodni kamol toptirish hamda jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida yanada samaraliroq xizmat qila boshladi.

TAYANCH SO'Z VA TUSHUNCHALAR

Inson resurslari, tushuncha, boshqarish sohasi, funksiyalari, prinsiplari, nazariy, uslubiy, asoslari, inson resurslarini strategik boshqaruvi, jismoniy chiniqish, intellektual qobiliyat, jismoniy, aqliy, ma'naviy, Amir Temur, Fredrek U.Teylor, menejment, jaryon, ilg'or kooperatsiyalar, Amerika zavodlari, tajriba, Germaniya, Angliya va Rossiya, sanoat korxonalari, Chester Bernard, ijtimoiy – iqtisodiy qonunlar, menejment qonuniyatlari, menejment tamoyillari, ilmiylik, maqsadga yo'naltirilganlik, ketma-ketlik, bir-birini to'ldirish, doimiylik, boshqaruv samaradorlik.

MAVZU YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Inson resursini to'la shakllantiruvchi asosiy ustunning tarkibiy qismlari nimalardan iborat va har bir tushunchaga izoh bering?

2. Jismoniy chiniqish, intellektual qobiliyat hamda ma'naviy yetuklik nimaning asosini tashkil qiladi?

3. Uch oyoqda o'rnatilgan konussimon qurilmalarning mustahkamligi nimaga o'xshatilgan, asoslab bering?

4. Barkamollik - jismoniy, aqliy, ma'naviy ustunlar qanday shakllanganda jamiyat va davlat manfaatlariga samarali xizmat qiladi?

5. Jismoniy yetuklik intellektual va ma'naviy kamolot bilan uyg'un shakllanmasa, qanday natijalarga olib kelishi mumkin?

6. "Jismoniy-intellektual va ma'naviy resurslar doimo yangilanadigan kuch, tuganmas yaratuvchanlik energiyasidir" ta'rifiga izoh bering?

7. Dunyo tajribasida ilk bor jismoniy-intellektual resurslarni maqsadli rivojlantirish va ularni samarali boshqarish tizimiga qayerda asos solindi va uning amaliyotga joriy qilinishi asosida qanday natijalar qo'lga kiritildi?

8. Mamlakatimizda jismoniy-intellektual resurslarni samarali boshqarish masalalariga qachondan boshlab alohida e'tibor qaratila boshlagan?

9. "Jismoniy tarbiya va sport insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga erishishida ham ulkan omildir", jumlagi izoh bering.

10. Boshqaruvning tarixiy rivojlanishining uch xususiyatini sanang.

11. Amir Temurning jahonda boshqaruv nazariyasi va amaliyoti rivojiga hissasini qo'shgan hissasi haqida gapiring. Asos solgan boshqaruv nazariyalari va ularni amaliyotga qanday tatbiq qilinganini tushuntiring.

12. Amir Temurning saltanatni boshqarishdagi bugungi kun tizimida ham qo'llanilib kelayotgan o'n ikki tamoyili qaysilar?

13. Davlat boshqaruvida Amir Temur tomonidan vazirlarga nisbatan ishlab chiqilgan talablar nimalardan iborat bo'lgan?

13. Boshqaruvning maxsus fan va faoliyat sohasiga aylantirishiga qanday zaruratlar sabab bo'lgan va qachondan va boshqaruvga maxsus fan va faoliyat sifatida qaysi yillardan e'tibor kuc-haygan?

14. Fredrek U.Teylor tomonidan nashr qilingan "Ilmiy boshqaruv printsiplari" asari mohiyati haqida gapiring.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN TOPSHIRIQLAR:

1. Oilada jismoniy tarbiyani tashkil qilish shakllari.
2. Adaptiv jismoniy tarbiyani tashkil qilish va u bilan shug'ullanuvchilarni sog'lomlashtirishdagi ahamiyati.

11-MODUL. INSON RESURLARINI BOSHQARISH TIZIMI

REJA:

1. Inson resurslarini boshqarish sohasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari to'g'risida.

2. Tashkilotning inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlarni tahlil qilishning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish.

Keyingi yillarda mamlakatimizda jismoniy-intellektual resurslarni rivojlantirish borasida juda katta imkoniyatlar vujudga keldi.

Nodavlat tuzilmalar, hukumatga qarashli bo'lmagan va jamoat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishda alohida o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, nodavlat va jamoat tashkilotlarining rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptirish va mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Bu tizim davlat idoralari faoliyatini muayyan ma'noda to'ldirishi, ularga nisbatan ma'lum bir muvozanatni ta'minlovchi vosita va-zifasini bajarishi kerak.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda jismoniy-intellektual resurslarning samarali boshqaruvini ta'minlashning quyidagi imkoniyatlaridan to'liq foydalanish taqozo etiladi, ya'ni:

- ijtimoiy boshqaruv imkoniyatlaridan unumli foydalanish;
- mavjud moliya resurslarini oqilona akkumulyatsiyalash va jalb qilish mumkin bo'lgan manbalarni aylanma jarayonlarga tortish;
- ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga javob beruvchi mutaxassislar ta'minotini amalga oshirish.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jismoniy-intellektual resurslarni rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hisobiga qator ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, ijtimoiy boshqaruv tizimini yaratishda sezilarli ishlar qilindi.

Xususan, O'zbekiston Milliy sport assotsiatsiyasi, 70 dan ortiq sport turlari bo'yicha federatsiyalar, tennis, boks, futbol kabi sport turlarini rivojlantirish jamg'armalari tashkil etildi, 300 dan ortiq sport-sog'lomlashtirish klublari tuzildi. Bu jamoat tashkilotlari mustaqil faoliyat ko'rsatib, xalqaro sport tashkilotlari bilan bevosita hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, jumladan, 2000-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunda davlat va jamoat boshqaruvi organlarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari aniq belgilab berilgan. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarishning davlat va jamoat tizimlari o'zaro yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgani tufayli, sohaning qariyb barcha ko'rsatkichlari bo'yicha o'sishga erishildi. O'zbekistonning xalqaro sport maydonidagi o'rni va nufuzi yil sayin o'sib boryapti.

Shu bilan birga, sohani boshqarish tizimida quyidagi muayyan muammolar mavjudligi ko'rsatilgan edi:

- sport harakatining jamoat boshqaruvida sport federatsiyalarining faoliyati talabga yetarlicha javob bermaydi;

- sohani moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag'lar salmog'i yil sayin o'sib borayotganiga qaramay, jismoniy tarbiya va sport harakati, asosan, davlat tomonidan moliyalashtirilayapti;

- sport federatsiyalari va klublar o'zini o'zi to'liq moliyalashtirish chora-tadbirlarini ko'rishda sustkashlik qilmoqda;

- mamlakatimizda o'z faoliyatini mustaqil va to'liq xo'jalik hisobida yuritadigan klublar hali shakllanib ulgurmagan. Hatto, futbol klublari berilgan soliq imtiyozlari va qo'llab-quvvatlashlarga qaramay, o'zini o'zi moliyalashtirishga to'liq o'tmaganligi ta'kidlanadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni ijobiy hal etishda hamda jismoniy-intellektual resurslarni boshqarishning jamoatchilik tamoyillarini kuchaytirishda bir qator ishlarni, jumladan, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi aytilgan:

- jamoat boshqaruvi rolini kuchaytirish yuzasidan sport federatsiyalari va klublarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish borasidagi huquqlarini kengaytirish. Ularning sportchilar zaxiralarini tayyorlash borasidagi faoliyatini rag'batlantirish (davlat grantlari joriy etish, soliqlar to'lashda imtiyozlar berish);

- xususiy klublar, ochiq va yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi sport klublarini tashkil etishga, ularning foyda olishini ko'zlab faoliyat ko'rsatishlariga, bunday klublar mulkdorlari, aktsionerlari yoki mutaxassislarining klublar tashkil etishdan manfaatdorligini qo'llab - quvvatlash;

- malakali sportchilar zaxiralarini tayyorlash, ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish, xalqaro maydonda mamlakat sharafigi munosib himoya qilish faoliyatini muvaffaqiyatli yuritayotgan sport federatsiyalari va klublariga shartnoma asosida davlat dasturlarini amalga oshirishlari uchun moliyaviy yordam ko'rsatish;

- sport federatsiyalari va boshqa jamoat tashkilotlarini boshqarishda ularning quyi bo'g'inlari rolini kuchaytirish;

- ixtiyoriy asosda klublar, sportchilar, mutaxassislarni birlashtiradigan professional sport ligalarini tashkil etish;

- sport klublari va federatsiyalarini o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash tizimiga to'liq o'tkazish.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport harakatining rivojlanishini ta'minlash, uni boshqarish tamoyillarini takomillashtirish uchun jamoatchilik tamoyili asosida faoliyat ko'rsatuvchi "Sport maslahat forumi"ni shakllantirish maqsadga muvofiqlidir.

Ramziy ma'nodagi "Sport maslahat forumi"ni shakllantirishdan maqsad - respublikada jismoniy tarbiya va sport harakatini yanada rivojlantirish, ijtimoiy boshqaruv tamoyillari asosida

mazkur yo'nalishdagi harakatlarni muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirishdan lozimligi ko'rsatilgan.

Mazkur ijtimoiy boshqaruv tuzilmasining asosiy vazifasi sifatida esa quyidagilar ko'rsatib o'tilgan:

- ijtimoiy boshqaruv tamoyillarini samarali qo'llash;
- boshqaruvning turli tizimlarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli faoliyatlarni muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish;
- boshqaruv tizimlari, sport federatsiyalari, kasaba uyushmalari va boshqalar faoliyatlari reytingini aniqlash hamda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida mazkur forumning ishchi organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligini belgilash maqsadga muvofiqdir. Mazkur forumni ta'sisчилari tarkibiga birinchi navbatda quyidagilarni jalb qilish maqsadga muvofiqligi ko'rsatilgan:

Jismoniy-intellektual resurslarni samarali boshqarishni ta'minlashda bozor munosabatlari sharoitida malakali faoliyat ko'rsatuvchi sport-biznes yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlash ishi ham sohadagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki, sport menejmenti, sport turizmining vazifalari shunday belgilangan:

- sport va biznes hamda sport va turizmning uyg'unlashib borishi;
- sportning "takror ishlab chiqarish" qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish va shu asosda uning optimal rivojini ta'minlash;
- o'quv jaryonlarining ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlash maqsadida "Ilmiy markaz" tarkibida "Sport va biznes" yo'nalishini shakllantirish.

Ko'rsatib o'tilgan muammoni ijobiy hal etishda O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda manfaatdor tashkilot va muassasalar hamkorligida maxsus "Sport iqtisodiyoy-

ti, menejment va biznesni tashkil etish" qo'shma fakultetini shakllantirish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan edi.

Hamda mazkur fakultetni quyidagi tamoyillar asosida tashkil etish taklif etilgan:

- mavjud intellektual salohiyatdan unumli foydalanish va uni aniq maqsadga yo'naltirish (O'zDJTSU, O'zMU, TDIU, TMI va boshqalar hamkorligida);

- nazariya bilan amaliyotning uyg'unligini ta'minlash va faoliyatni shartnomaviy munosabatlar asosida tashkil etish (fakultet, makro va mikro darajadagi sport hamda turistik muassasalar, moliya institutlari, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar);

Maxsus fakultetni tashkil etishning taklif etilayotgan tamoyillari o'quv-amaliy va kelishuv-ta'minot jarayonlarining uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ya'ni, mazkur tamoyillar o'quv (A), amaliyot (B), talab (V), taklif (G) va ta'minot (D) bo'g'inlarining bir nuqtada kesishishini ta'minlaydi. Natijada, intellektual-jismoniy resurslarni samarali boshqarish jarayoni kutilgan ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirish quyidagilarni taqozo etishi ko'rsatiladi:

- tegishli me'yoriy hujjatlar turkumini shakllantirish, muhokamadan o'tkazish va tasdiqlash;

- fakultetni shartnomaviy munosabatlar asosida tashkil etishning byudjetdan tashqari manbalarini aniqlashtirish.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tarkibida maxsus fakultet tashkil etish bozor munosabatlari sharoitida sport-biznes yo'nalishida malakali faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshiradi. Bunday o'zgarish natijasida ushbu bilim yurti zamonaviy tarkibiy tuzilishga ega bo'ladi.

Bugun jismoniy-intellektual resurslarni maqsadga muvofiq rivojini ta'minlash jarayoniga qator omillar, jumladan, quyidagilar salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ko'rsatiladi:

- moliyaviy resurslarning aniq maqsad yo'lida to'liq akkumulyatsiyalanmagani;

– moliya institutlari bilan sport muassasalarining hamkorlik faoliyati yo'lga qo'yilmaganligi.

Yirik tashkilotlarda mehnat resurslariga umumiy rahbarlik mas'uliyati kadrlar bo'limining malakali xodimlariga yuklatilgan bo'lib, u odatda, shtab xizmatlari tarkibiga kiradi. Bu mutaxassislar tashkilot maqsadlarini amalga oshirishga yordam berishi uchun, ular faqat o'z sohalarini emas, balki quyi bo'g'in rahbarlarining ehtiyojlarini ham bilishlari zarur. Shu bilan birga bu rahbarlar mehnat resurslarini boshqarish xususiyatlarini, uning mexanizmi, imkoniyatlari va kamchiliklarini tushunmasa, kadrlar mutaxassislari xizmatlaridan umumli foydalana olmaydilar. Shuning uchun barcha rahbarlar insonlarni boshqarish usullari va metodlarini bilishi va tushunishi muhim.

Inson resurslarini boshqarish tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Resurslarni rejalashtirish: inson resurslariga kelgusi ehtiyojlarni qondirish rejasini ishlab chiqish.

2. Personalni to'plash: barcha lavozimlar bo'yicha potentsial nomzodlar rezervini tashkil etish.

3. Tanlash: ish joylariga nomzodlarni baholash va rezervdan eng yaxshilarini tanlash.

4. Ish haqi va imtiyozlarni aniqlash: xizmatchilarni jalb qilish, yollash va saqlab qolish maqsadida ish haqi va imtiyozlar tarkibini ishlab chiqish.

5. Kasbga yo'naltirish va moslashuv: yollangan ishchilarni tashkilot va uning bo'linmalari bilan tanishtirish, ishchida undan nima kutilayotganligi haqida tushuncha hosil qilish va qanday mehnat yaxshi baholanishini tushuntirish.

6. O'qitish: ishni samarali bajarish uchun kerakli mehnat ko'nikmalarini o'rgatish uchun dasturlar ishlab chiqish.


7. Mehnat faoliyatini baholash: mehnat faoliyatini baholash metodikasini ishlab chiqish va uni xodimga yetkazish.

8. O'stirish, pasaytirish, o'tkazish, bo'shatish: xodimlarni lavozimlarga yoki boshqa ish uchastkalariga o'tkazish usullarini ishlab chiqish.

9. Rahbar kadrlarni tayyorlash, xizmat ko'rsatishlarini boshqarish: rahbar xodimlarni mehnat samaradorligini ko'tarishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish.

"Personal" ("inson resurslari") tushunchasining mazmuni.

"Personal" termini korxona mehnat jamoasining tarkibiy qismlarini birlashtiradi. Personalga ishlab chiqarish yoki boshqaruv operatsiyalarni bajaruvchi va mehnat predmetlari, mehnat vositalaridan foydalangan holda qayta ishlash bilan band bo'lgan barcha xizmatchilar kiritiladi. Bunda "kadrlar", "xizmatchilar", "personal" tushunchalari bir xil ma'noni anglatadi. Boshqaruv nazariyalarida personalni tasniflashda xizmatchining kasbi va mansabi, boshqaruv darajasi, xizmatchi kategoriyalaridan kelib chiqqan holda turli yondashuvlar mavjud. Ishlab chiqarish jarayonida ishtirokiga qarab personal ikki asosiy qismga ajratiladi: ishchilar va xizmatchilar.



2- Personalning tasniflanishi

Chet el tajribasida personal muammolarini hal qilishga doir ikkita asosiy yondashuv mavjuddir. Birinchi yondashuv diqqat - e'tiborni shunga qaratadiki, "Inson resurslarini boshqarish" mazkur muammoni hal qilishning strategik jihatlarini, shu jumladan, ijtimoiy rivojlantirish masalalarini qamrab oladi, "personalni boshqarish" esa ko'proq kadrlar bilan operativ ish olib borishga taalluqlidir. "Inson resurslarini boshqarish", avvalo, mehnat va

bandlik sohasidagi munosabatlarni davlat yo'li bilan tartibga solish masalalariga, "personalni boshqarish" esa korxona darajasi-dagi mehnat munosabatlariga qaratilgan.

Fan-texnika jadal taraqqiy etayotgan hozirgi davrda shuni ta'kidlash zarurki, eng tez rivojlangan tarmoqlarda xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning keng miqyosli tizimini vujudga keltirish muammosi ko'ndalang bo'lib qoldi. Bu muammoni hal qilish uchun barcha o'quv yurtlarida, kasb dargohlarida ta'lim-tarbiya tuzilishini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keldi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" shu zarurat tufayli ishlab chiqilgan edi. Bozor islohotlari talablaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat, jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan mazkur dastur Respublikada inson resurslaridan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti malakali kadrlardan imkoni borida ko'proq foydalanishni taqozo etadi: lekin, O'zbekistonda eng murakkab muammolardan biri-mahalliy aholini, ayniqsa, yoshlarni industrial mehnatga jalb etishdir. Uni hal qilish uchun masalaga milliy iqtisodiyot, iqtisodiy mustaqillik hatto Vatan fidoyilarini tarbiyalash nuqtayi nazaridan yonlashish zarur. Nega o'zbek millatiga mansub ishsizlar industrial ishlab chiqarishdagi bo'sh joylarni egallashga unitilmaydilar? Fikrmizcha, buning uchun: Birinchidan, yetarli texnik bilimga, malakaga ega bo'lish kerak. Maqsadga erishish uchun: bandlik jamg'armasi mablag'lari hisobidan kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash uchun turli xildagi kurslar ochilishini keng yo'lga qo'yish; Ikkinchidan, korxonalar qurilayotganda ularning yo'nalishi, vazifalari to'g'risida aholini oldindan xabardor qilish; Uchinchidan, industrial mehnatga mehrni bolalikdan singdirish; To'rtinchidan, mehnatni rag'bantlantirish, ishchilarni ijtimoiy-maishiy jihatdan ta'mirlash masalalarida korxonalar to'la mustaqilligini ta'minlash kerak; Beshichidan, ommaviy axborot vositalari orqali sanoat korxonalari mehnatini targ'ib etish, ishchilar obro'-etiborini ko'rsatish ayni muddaodir. Umumlashti-

rib aytganda, miliy industrial kadrlarni shakllashtirish Respublikaning iqtisodiy jihatidan mustaqilligini ta'minlashning muhim shartidir. Bozor iqtisodiyoti jarayonida Respublikada inson resurslarida oqilona foydalanish uchun, Farg'ona vodiysidagi aholining zichligidan kelib chiqadigan va, aksincha, shimoliy va g'arbiy zonalarda ishchi kuchining yetishmasligi bilan bog'liq muammolar o'z yechimini topishi zarur. Buning uchun aholi zich yashaydigan hududlarda mehnatni ko'proq talab qiladigan qo'shimcha sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Qishloqlarda mahalliy xom-ashyodan foydalanish hisobiga kulolchilik, tikuvchilik, konchilik, naqqoshlik, quruvchilik va boshqa bir qancha tarmoqli kichik hamda o'rta korxonalarni ko'paytirish lozim. Umuman hukumat qarorlarida belgilangan xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi korxonalarni jadal qurib bitkazish va ishga tushirish, ichki rezerv va imkoniyatlaridan butun choralari bilan foydalanishni ta'minlash kerak.

Shuningdek, Respublikada inson resurslaridan oqilona foydalanishda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining ham ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy istiqloq sharofati bilan inson resurslaridan foydalanishning yangi imkoni, ya'ni yosh va malakali inson resurslarini jahon mehnat bozoriga chiqarish, boshqa horijiy yurtlarda bolib islash imkoniyati yuzaga keladi. Yevropa Ittifoqiga kirgan bir qancha mamlakatlar ishchilari Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Portugaliya, Belgiya kabi rivojlangan mamlakatlarga borib ishlab daromad to'padilar, bu bilan o'z davlatlari ichki milliy mahsulotiga salmoqli daromad keltiradilar. Jahon mehnat bozorida O'zbekiston ishchi kuchlarini eksport, ham import qiluvchi davlat sifatida qatnashishi mumkin. Umuman olganda, aholi migratsiyasi obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Har bir mamlakat hududida bu jarayon doimo davom etadi. Faqat AQShda har yili mamlakat ichida aholining 42 million nafari yashash joyini o'zgartirib turadi.

Shuningdek, inson resurslarini boshqarish quyidagi vazifalarini hal qilish orqali amalga oshiriladi: -turli xildagi kasb-malaka

va ijtimoiy demografik ko'rsatkiclarga ega bo'lgan ishchilar soni bilan ish joylari tarkibi o'rtasidagi muvofiqlikni yuqori darajada ta'minlash; -ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonini mukammallashtirish; -mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy tizimini yaratish. Yoshlar-da mehnat tarbiyasini iloji boricha ertaroq boshlash.

Korxonada malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish shart. Korxona resurslari korxonada band bo'lgan hamma xodimlarning shaxsiy tarkibini o'z ichiga olib, unga ishchilar, rahbarlar va yollanma ishchilar bilan bir qatorda korxona egalari va mutaxassislar ham kiradi. Xodimlarning turli toifalari bo'yicha solishtirma salmog'i korxona inson resursining kasbiy- funksional va sotsial tarkibini namoyish etadi.

TAYANCH SO'Z VA TUSHUNCHALAR

Inson resurslari, boshqarish, faoliyat, yo'nalish, takomillashtirish, yangi yondashuv, amaliy ko'nikma, rivojlantirish, mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, zamonaviy tizim, yoshlar, mehnat tarbiyasi, O'zDJTSU, O'zZMU, TDIU, TMI, "Ilmiy markaz", "Sport va biznes", O'zbekiston Milliy sport assotsiatsiyasi, "Sport iqtisodiyoti, menejment va biznesni tashkil etish", ijtimoiy boshqaruv tizimi, O'zbekistonning xalqaro sport maydoni.

MAVZU YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Inson resurslarini boshqarish sohasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qaysi hujjatda belgilab berilgan?
2. Tashkilotlarda inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlarni qay tartibda amalga oshirish mumkin?
3. Inson resurslarini boshqarishni takomillashtirishda amaliy ko'nikmalarni qanday rivojlantirish mumkin?

4. Ramziy ma'nodagi jamoatchilik tamoyili asosida faoliyat ko'rsatuvchi "Sport maslahat forumi"ni shakllantirishdan maqsad nima edi?

5. "Ilmiy markaz" tarkibida "Sport va biznes" yo'nalishini shakllantirishdan kutilgan maqsad nima?

6. "Personal" ("inson resurslari") tushunchasining mazmuni haqida ma'lumot bering.

7. Davlat va jamoat boshqaruvi organlarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari aniq belgilab berilgan hujjat?

8. "Sport iqtisodiyoti, menejment va biznesni tashkil etish" qo'shma fakultetini shakllantirishdan ko'zlanagan maqsad nima edi?

9. Jismoniy-intellektual resurslarni samarali boshqarishni ta'minlashda bozor munosabatlari sharoitida malakali faoliyat ko'rsatuvchi sport-biznes yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlashni dolzarb muammolar qatoriga kiritish mumkinmi? Agar shunday deb hisoblasangiz nima uchun?

10. Inson resurslarini boshqarish tizimi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi? Har bir bosqichga izoh bering.

11. Jismoniy-intellektual resurslarni maqsadga muvofiq rivojini ta'minlash jarayoniga qanday omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda?

12. Ishlab chiqarish jarayonida ishtirokiga qarab personal nechta qismga ajratiladi?

13. Personalning umumiy tasniflanishini tushuntiring.

14. Chet el tajribasida personal muammolarini hal qilishga doir qanday yondashuvlar mavjud?

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN TOPSHIRIQLAR:

1. Jismoniy tarbiya-sport tadbirlarining shakllari.
2. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyada vrachlik-pedagogik nazoratning shakllari.

12-MODUL. JISMONIY TARBIYA VA SPORT ORQALI INSON RESURLARINI RIVOJLANTIRISH

REJA:

1. Jismoniy intellektual resurslar, resurslarni boshqarish, inson kapitali, insonning ijtimoiy faolligi, yoshlarning jismoniy-intellektual resurslari:

Resurslarni boshqarish;

Inson kapitali;

Insonning ijtimoiy faolligi;

Yoshlarning jismoniy-intellektual resurslari.

Inson resurslarini boshqarish (HRM yoki Kadrlar) bu kompaniya yoki tashkilotdagi odamlarni samarali boshqarishda strategik yondashuv bo'lib, ular o'zlarining bizneslariga yordam berishlari uchun raqobatbardosh ustunlikdir. U maksimal darajaga ko'tarish uchun mo'ljallangan xodimlarning ishlash ish beruvchining strategik maqsadlariga xizmat qilishdir. Inson resurslarini boshqarish, avvalambor, e'tiborni tashkilotlarning ichidagi odamlarni boshqarish bilan bog'liq siyosatlar va tizimlarga qatratish lozim. Nazorat qilish uchun kadrlar bo'limlari javobgardir. Xodimlarning imtiyozlari dizayn, xodim yollash, o'qitish va rivojlantirish, ishlash, baholash va mukofotni boshqarish kabi to'lash va foyda tizimlarini tashkil qiladi. HR ham o'ziga tegishli tashkiliy o'zgarish va ishlab chiqarish munosabatlari yoki tashkiliy amaliyotlarni kelib chiqadigan talablar bilan muvozanatlash, jamoaviy bitim va hukumat qonunlarining umumiy maqsadi va kadrlar bo'limining bu tashkilotning odamlar orqali muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini ta'minlashidir.

Kadrlar bo'yicha mutaxassislar inson kapitali, tashkilot, siyosat va jarayonlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Ular xodimlarni topish, jalb qilish, o'qitish va rivojlantirish, shuningdek,

xodimlar bilan munosabatlarni yoki imtiyozlarni saqlashga ixtisoslashishi mumkin. O'qitish va rivojlantirish bo'yicha mutaxassislar xodimlarning o'qitilishini va doimiy rivojlanishini ta'minlaydi. Bu o'quv dasturlari, ish faoliyatini baholash va mukofotlash dasturlari orqali amalga oshiriladi. Xodimlarning munosabatlari, xodimlarning siyosati buzilgan taqdirda, masalan, ta'qib qilish yoki kamsitish bilan bog'liq holatlar bilan shug'ullanilsa, xodimlarning imtiyozlarini boshqarish kompensatsiya tuzilmalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi, ota-ona ta'ili xodimlar uchun dasturlar, chegirmalar va boshqa imtiyozlar yaratadi. Maydonning boshqa tomonida kadrlar bo'yicha generalistlar yoki biznes sheriklari turib, ushbu kadrlar bo'yicha mutaxassislar barcha sohalarida ishlashlari mumkin yokimehnat munosabatlari bilan ishlaydigan vakillar birlashgan xodimlar bo'lishi mumkin

HR - bu mahsulot insonning munosabatlar harakati bo'lib, 20-asrning boshlarida, tadqiqotchilar mahsulotlarning yaratilish usullarini hujjatlashtirishni boshlaganlarida biznes qiymati orqali ishchi kuchini strategik boshqaruvni anglatgan. Dastlab, masalan, tranzaksiya ishlari ustunlik qilib, ish haqi va imtiyozlar ma'muriyati, lekin globallashuv tufayli kompaniyaning konsolidatsiyasi, texnologik yutuqlar va keyingi tadqiqotlar 2015 yildan boshlab iste'dodlarni boshqarish, merosxo'rlikni rivojlantirish, sanoat va mehnat munosabatlari, xilma xillik va qo'shilish kabi strategik tashabbuslarga e'tibor qaratadi. Hozirgi vaqtda global ish muhiti, xodimlar almashinuvi va ularning ishchi kuchi egallagan iste'dod va bilimlarni saqlab qolish uchun aksariyat kompaniyalar e'tiborni pasaytirishga qaratadilar. Yangi yollash nafaqat yuqori xarajatlarni keltirib chiqaradi, balki yangi ishchining olidingi ishchining o'rnini munosib bosa olmasligi xavfini ham os-hiradi. Kadrlar bo'limi ishchilarga ma'qul keladigan imtiyozlarni taklif qilishga intiladi, shu bilan xodimlarning majburiyatini kamaytiradi va psixologik egalik xavfini yo'qotadi.

Inson resurslari sohasi 18-asrda Evropada shakllana boshladi. Bu Robert Ouen (1771-1858) va Charlz Babbig (1791-1871)

davrida qurilgan oddiy g'oya asosidagi sanoat inqilobidir. Bu tashkilot odamlarning muvaffaqiyati uchun erkaklar hal qiluvchi ahamiyatga ega degan xulosaga kelishgan. Ular sog'lom ishchilarsiz tashkilot yashamaydi, xodimlarning farovonligi mukammal ish olib borishi bilan bog'liqligini asoslashdi.

HR 20-asrning boshlarida o'ziga xos soha sifatida paydo bo'lib, Frederik Uinslov Teylor (1856-1915) unga ta'sir ko'rsatdi. Teylor "ilmiy boshqaruv" (ba'zan "Teylorizm" deb ataladi) ishlab chiqarish ishlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga intilib, u nima deb atalganini o'rganib chiqdi, U oxir-oqibat ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy ma'lumotlardan biriga - mehnatga - uchqunli tergovga- ishchi kuchining samaradorligiga e'tibor qaratdi.

Ayni paytda, Angliyada C.S.Myers 1914-1918- yillardagi Birinchi Jahon Urushida generallar va siyosatchilarni xavotirga solgan askarlar orasida kutilmagan muammolardan ilhomlanib, 1921 yilda Milliy Sanoat Psixologiya Institutiga (NIIP) asos solgan. Shunday qilib, u inson munosabatlar harakatining rivojlanishiga asos soldi. Atlantika okeanining har ikki tomonida joylashgan ushbu harakat moliyaviy tovon va ish sharoitlari bilan bog'liq bo'lmagan rag'batlantirish Elton Mayo (1880-1949) va Hawthorne tadqiqotlari (1924-1932) va boshqa tadqiqotlar orqali hujjatlashtirish yanada samarali ishchilarni berishi mumkin edi. Ibrohim Maslou (1908-1970), Kurt Levin (1890-1947), Maks Veber (1864-1920), Frederik Gertsberg (1923-2000) va Devid Makkellandlar (1917-1998) sanoat va tashkiliy psixologiya, tashkiliy xatti-harakatlar va tashkiliy nazariya hamda talqin qilingan keyingi da'volarga javob beradigan tarzda amaliy intizom uchun qonuniylik, tadqiqotlar uchun esa asos yaratdilar.

Iqtisodiy tizim, jamiyatning evolyutsion taraqqiyoti odamning maqomi evolyutsiyasi bilan birga keladi. Ongli, maqsadli va samarali faoliyat bo'lgan mehnat inson hayotining eng muhim qismi bo'lib, bu sohadagi tushunchalar eng dinamik tarzda o'zgarib bormoqda.

Kapitalizmning boshlang'ich bosqichida ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy kontsepsiyasi "mehnat kuchi" yoki "mehnat qobiliyati" tushunchasi edi, "organizmga ega bo'lgan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarning umumiyligi, tirik odam qadriyatlardan foydalanadi". Bu yerda odam mehnat vositasi, ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraldi va uning qobiliyatlari faqat iqtisodiy tovarlarni ishlab chiqarish jarayonida baholandi. Jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar sifat jihatidan bor edi, lekin ular tizimli tarzda ifodalanmagan va soddalashtirilgan holda miqdoriy baholangan edi.

Resurslarni boshqarish.

Iqtisodiy o'sishda ilmiy -texnik taraqqiyotning roli oshishi bilan G'arb iqtisodchilarining ishchi kuchini qayta ishlab chiqarish muammolariga munosabati o'zgardi. Olimlarning diqqat markazida sifat jihatidan yangi ishchi kuchini yaratish muammolari bor edi, ilgari esa asosiy muammolar bu -ishchi kuchidan foydalanish edi. Ishlab chiqarish jarayonlarini har tomonlama avtomatlashtirish va boshqaruvda murakkab bo'lgan mexanizmlarni ishga tushirish "asosiy materiallar" ga bo'lgan munosabatni qayta ko'rib chiqishni talab qildi, bu esa "inson resurslari" kontsepsiyasini keltirib chiqardi. Mehnat va mehnat munosabatlarining boshqa sifati, inson resurslari, xodimlarning har tomonlama rivojlanishi uchun bilim darajasi, ijodkorligi va salohiyati, ularning salomatlik holati, umumiy madaniyat va axloq, mehnat munosabatlarini yaxshilash, motivatsiya, korxona va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Umumiy ishchi kuchining tarkibiy o'zgarishi, iqtisodiy o'sish omillari va iqtisodiy dinamikaga bo'lgan qiziqish inson kapitali nazariyasining paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Ilmiy -texnika inqilobi, mehnatni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash, transformatsiya ta'siri ostida ijtimoiy jamiyat tuzilishi, shartlarning malaka muhimligining oshishi, har bir shaxsning va umuman aholining ta'lim darajasi, ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida mehnat va hosila omili sifatida kapitalni

qat'iy farqlash bo'yicha an'anaviy nuqtai nazar, sanoat inqilobidan meros bo'lib, asl ma'nosini yo'qotdi.

Shu munosabat bilan, ish qobiliyati haqidagi fikrlar o'zgartirilmoqda. "Ishchi kuchi" tushunchasi endi nafaqat moddiy kapital bilan shug'ullanadigan, balki uni boshqaradigan odamning iqtisodiyotdagi rolini to'liq ifoda eta olmaydi; unga nafaqat professional bilim, balki ongli qaror qabul qilish qobiliyati ham talab qilinadi.

Inson kapitali

Inson qobiliyatlari - bu egasining o'zi ham, uning atrofidagi odamlar ham maqsadli harakatlari natijasidir. Demak, har qanday odamda u ishlatadigan va o'ziga xos kapital vazifasini bajaradigan, ya'ni yollanganlar tizimida sotiladigan yoki sotib olinadigan mehnatdan farqli o'laroq, ma'lum miqdordagi o'tmishdagi mehnat borligini ta'kidlash mumkin. Mehnat, inson kapitali asosiy kapital sifatida ilg'or va qaytariladi, uni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida katta sarmoyalarni talab qiladi.

Inson kapitalining nomoddiy tabiati va ko'p o'lchovlilikini inobatga olgan holda, turli mualliflar inson kapitali tushunchasini erkin shakllantiradi va uning alohida tarkibiy elementlariga noaniq urg'u beradi: ba'zilar inson kapitalining funksional tomoniga, ya'ni uning qobiliyatiga e'tibor qaratadilar. Daromad olish uchun, asosiy xarakteristikasi - shaxsiy ishlab chiqarish omili shakli sifatida boshqariladi. 60 -yillardan keyin deyarli barcha ta'riflarda, yigirmanchi asrda, inson kapitalini keng talqin qilish prinsipi kuzatiladi: nafaqat amalga oshiriladigan bilim, ko'nikma va ko'nikmalar, balki potensial (shu jumladan, ularni sotib olish imkoniyatlari ham); nafaqat tashqi stimulyatsiya, balki xodimning ichki motivatsiyasi, bu mohiyatan inson kapitalining iqtisodiy mazmunini o'zgartirmaydi.

Inson kapitalini to'liq tavsiflash mumkin: u ma'lum bir shaxs, guruhning investitsiyalar natijasida shakllangan va ma'lum bir darajadagi sog'liq, ta'lim, ko'nikma, qobiliyat, motivatsiya, energiya, madaniy rivojlanishidir. Iqtisodiy o'sish ijtimoiy ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasida qo'llaniladigan odamlar va umu-

man, jamiyat rag'batlantiradi va ularning egasining daromadiga ta'sir qiladi.

Inson kapitali umumiy kapitalning bir qismi bo'lib, ya'ni o'zining ichki tuzilishiga ega, uni tashkil etuvchi elementlarning birlashtirilishi.

Iqtisodchilarning aksariyati inson kapitalining tuzilishini har xil turdagi inson kapitaliga asoslangan xarajatlar asosida shakllantiradi.

Natijada I. V. Ilyinskiy quyidagi tarkibiy qismlarni ajratadi: ta'lim poytaxti, sog'liqni saqlash poytaxti va madaniyat poytaxti.

F.Neyman quyidagi to'rt komponentning kombinatsiyasini inson kapitalining asosiy komponentlari deb hisoblaydi: madaniy va etnik xususiyatlar; umumiy ta'lim; kasbiy ta'lim; asosiy malakalar.

Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish harakatini boshqarish masalalarini yechish birinchi navbatda maqsadli harakat dasturini reja asosida tuzish va uni tizim holatiga keltirishni hamda amalga oshirishni talab qiladi.

Har bir inson organizmida sog'liq uchun zarur bo'lgan genetik shart-sharoitlar bilan birga atrof-muhitning salbiy ta'sirini bartaraf qilishga keng moslashuv imkoniyatlari mavjud. Insoniyatning ko'p asrlik tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'rtacha jismoniy harakat va mashqlar uning jismi uchun foydalidir. "Inson jismini hech narsa uzoq muddatli jismoniy harakatsizlik kabi holsizlantirmaydi va ishdan chiqarmaydi," - deb yozgan edi yunon faylasufi Aristotel.

Doimiy jismoniy mashqlar orqali inson organizmi muskuli, yurak-qon tomir va nafas olish tizimining takomillashganligi ijobiy ta'sirining yaqqol isbotidir.

Mashq bajargan yurakning urishi, ya'ni, 1 marta qisqarishdagi qon hajmi mashq bajarmagan yurakka nisbatan 40-50 foiz katta ko'rsatkichga ega; jismoniy mashqlar orqali harakatlenganda skelet muskulining 100 ta muskul tolasiga mashq qilinmaganga nisbatan 2 marta ko'p kapillyarlar to'g'ri keladi. Bular asosida

to'qima va organlarning kislorod hamda ozuqa metabolik substratlar bilan ta'minlanishining fiziologik mexanizmlari va hujayra hayot faoliyatining mahsulotlaridan foydalanish samaradorligi oshadi.

Jismoniy mashqlar davomida harakatlanayotgan muskullarning ortiqcha metabolik substratlarga ehtiyoji oshadi va u glyukoza sarflanishining qisman ortishi hisobiga qoplanadi. Bunda qisqarayotgan muskullarda glikogenoliz tezligining sezilarli darajada ko'tarilishi ahamiyatga ega. Shuningdek, mashq-harakati "insulinga o'xshash ta'sir"ga ega bo'lib, bu muskullarning qon oqimida glyukoza iste'molining oshishi bilan ifodalanadi.

Muskullarning mashg'ulotlardan keyin glyukozani o'zlashtirish jarayoni mutanosiblashib, insulinga nisbatan ancha sezgir bo'lib qoladi va bu muskul zaxiralaridagi glikogenni qayta sintezni yengillashtiradi. Glyukozaning muskullar orqali o'zlashtirilishi va glikogen metabolizmiga jismoniy mashqlarning ta'siri insulin-rezistent shaxslar uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki bu o'zgarishlar glyukoza gomeostazining bir paytdagi boshqariluvini va doimiy metabolik nazoratini ta'minlaydi. Jismoniy mashqlar ham insulin kabi glyukoza-oqsil tashuvchilarining hujayra membranasini orqali o'tishiga ta'sir etadi, lekin ularning ta'sir mexanizmlari bir-biridan farqlidir.

Hujayra ichidagi signalning, avvalo, ferment tizimiga uzatishda insulindan foydalanilsa, jismoniy mashqlar esa endoplazmatik retikulyumdan kalsiy ionlarini ajratadi hamda boshqa auto va parakrin orqali boshqariluvchi mexanizmlarining ulanishini ham ta'minlaydi.

Glyukoza metabolizmining hujayra ichidagi boshqaruvchilari qatoriga "Insulinga bog'liq bo'lgan sitoplazmatik omil" - IZR ham kiradi (bunday nom uning insulin moddasi bilan faolligi orasida yuqori o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lgani uchun berildi). O'tkazilgan tajribalar davomida IZR ajratib olishning chizmasi ishlab chiqilgan, uning fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari har tomonlama o'rganilgan. IZR-molekulyar og'irligi 5-6 kD bo'lgan ter-

mostabil glikopeptid bo'lib, u gipoglikemik ta'sirga ega va insulin kabi hujayra mitoxondriyasida va endoplazmatik retikulimida kalsiy ionlarining to'planishini oshirgan. Natijalar yig'indisi IZRni insulin ta'siridagi hujayraning ichki mediatorlaridan biri sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Insonning ijtimoiy faolligi

IZRning faolligi jismoniy harakat hajmi tezlashgandan (eksperimental kalamushlarning 2 soat davomida suzishi) keyin aniqlanganda, harakat ta'sirida mitoxondriyalar sezgirligi va IZR faoliyati kamaygani kuzatilgan.

Bu nafaqat jismoniy harakatning ta'sirida, balki, paydo bo'layotgan ruhiy holat natijasida ham yuz bergan. Parallel olib borilgan tajribalar immobilizatsiya orqali paydo bo'lgan ruhiy zarba ham IZRning ta'sir kuchi kamayishiga olib kelishini ko'rsatgan. Ammo bunday ruhiy holatning yo'qotilishi IZR faolligining ortishiga olib kelgan. Undan tashqari ruhiy zarbaning yana bir bor ta'siri mitoxondriyalar IZR ta'siriga sezuvchanligini kamaytirmaydi va sitoplazmada uning faolligi sustlashishiga olib kelmagan.

IZR faolligining dinamik o'zgarishi undan organizm jismoniy harakatining me'yoriga nisbatan o'lchov sifatida samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi

Kuzatishlar natijasida olingan natijalar chet el mualliflarining ma'lumotlari bilan mos kelgan. Jismoniy harakatni me'yor darajasi oshganda IZR faolligining kamayishi endoplazmatik retikulumdan kalsiy ionlarining ajralishini yengillashtirilishi va shaxsiy natijalar, adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, birlamchi jismoniy kuchlanish asosan intensiv bo'ladi va bunga moslanmagan organizm uchun ruhiy zarba holati yuz berishi mumkin. Lekin uning moslashish imkoniyatlari jismoniy kuchlanish paytida qo'shimcha metabolik yo'lni ham o'z ichiga oladi. Jismoniy mashq hisobiga skelet muskullariga glyukozaning kirishida insulinga bog'liq bo'lmagan mexanizmlar orqali o'tkazilishi, asosan, insulin rezistent kasalliklarida muhim klinik ahamiyatga ega bo'ladi. Glyukozani "yondiruvchi" mashqlar bu 45-60 daqiqali yugurish, 30

daqiqali suzish va velosiped haydash mashg'ulotlarini qayd etish mumkin.

Insulin rezistentlikning pasayishi va insulinga nisbatan jismoniy mashqdan keyin sezgirlikning ortishi fakti alohida ahamiyatga ega. Yosh o'tishi bilan insulin rezistentlik ortadi va muskulning oksidlanish xususiyati kamayadi, lekin jismoniy faollik hayot tarzi, orqali buninormal holatda ushlab turish mumkin.

Shunday qilib, 21-87 yoshli ayollar va erkaklar guruhlarida aerobika bo'yicha o'tkazilgan 16 haftalik dastur amaliyoti shuni ko'rsatganki, yoshlarda o'rta va katta yoshlarga qaraganda insulinga nisbatan sezgirligi yuqori bo'lishi aniqlangan. Jismoniy mashqlar muskul mitoxondriyasi fermentlari faolligini 45-76 foizga, mitoxondrial genlarda mRNK 66 foizga, shuningdek, mitoxondrial biogeneza genlarni 85 foizga oshirgan, qorin bo'shlig'ida yog' to'planishini 5 foizga va qondagi triglitseridlar miqdorini 25 foizga kamaygan, eng asosiysi, o'zgarishlar yoshga bog'liq emasligi isbot qilingan.

Haftasiga 30 minutdan 3 marotaba bajariladigan zo'riqtiruvchi, kuch bilan bog'liq mashqlar sog'lom va ikkinchi guruh diabetli bemorlarda insulin faolligi oshadi. Aerobika bo'yicha saralangan muntazam jismoniy mashqlar natijasida insulinning ta'siri ortadi. Masalan, insulin retseptorining ko'payishi, ularning sezgirligi va samaradorligining ko'tarilishi hamda hujayra membranasida glyukoza tashuvchi GLUT miqdorining ko'payishi aniqlangan. Bularning tasdig'i aerobika bo'yicha 2 haftalik dastur mashg'ulotlarida (Trenajyorda o'tkazilgan 35 daqiqalik yurish bo'yicha 10 ta mashg'ulot inslinga bog'liq bo'lmagan diabet xastaligiga uchragan, to'ladan kelgan bemorlarning insulinga nisbatan sezgirligini oshirgan.

Bir maromda o'tkazilgan mashqlar (kuniga 30-60 daqiqadan haftasiga 3-5 marotaba) oksidlovchi fermentlar miqdorining 40-50 foiz ko'tarilishiga olib keladi. Mashg'ulotlar to'xtatilgach ularning ko'rsatkichi 4-6 haftadan so'ng yana pasayib ketadi. Juda ham jadal mashqlar glikoliz, glikogenoliz, glikoneogenolizlar fermentlarining 70-90 foizga kamayishiga olib keladi.

Holsizlantiradigan mashg'ulotlar granulotsitlarda hujayraning ichki kalsiy signal tizimini buzadi. Shuningdek, bunday mashqlar immun tizimining o'zgarishini keltirib chiqaradi. Bu jarayon mexanizmi haligacha noma'lum bo'lgan apoptoz, ya'ni, hujayralarning nobud bo'lishining programmalashtirish holati bilan qamrab olingan.

Oxirgi yillarning tadqiqotlari jismoniy mashqlarning markaziy va barcha asab tizimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini namoyon qilmoqda. Model holatlarda hayvonlar organizmini oddiy stress va jismoniy harakatlantirish sharoitida taqqoslash ishlari olib borilgan. Asab tizimida jismoniy mashqlarning ta'siri orqali namoyon bo'ladigan miyadagi neyrotrofik omil ko'pchilikda qiziqish o'yg'otgan. Bu oqsil neyronlarning yashash muddatini oshirib, bilim olish hamda eslash, o'rganish qobiliyatini yuqori darajada saqlab turadi.

Hayvonlarning g'ildiraklarda erkin yugurish ko'rinishidagi jismoniy faolligi ularning miyasida neyrotrofin genlarning ishlab chiqarilishini oshiradi. O'zgarishlar nafaqat miyaning harakatlar bilan bog'liq bo'lgan joylarida, balki, miyachada, orqa miyaning bel segmentlarida va bosh miyaning po'stloq qismida ham aniqlangan. Lekin eng katta o'zgarish miyaning gippokamp tuzilishida aniqlangan va u miyaning anglash qobiliyatiga ta'sir etadi. Olib borilgan ishlar jismoniy mashqlarning miya faoliyatini mustahkamlashi va qobiliyatini oshirishini ko'rsatgan.

Nazoratdagi sichqonlar va yugurib yurgan nasliy sichqonlarning neyrotrofin miqdori solishtirilganda, 7 sutkadan so'ng tajribadagi sichqonlarni neyrotrofinlar miqdori nazoratdagilarga nisbatan ancha yuqori bo'lgan va bu ko'rsatkich yugurish oraliqi hisobiga ortib borgan.

Og'ir ruhiy holatda model obyektlarga gippokampga "miya neyrotrofik omil" yuborilganda, u antidepressant sifatida ta'sir etgan.

Miyaning oraliq arteriyasi bog'lab qo'yilib, o'tkazilgan jismoniy mashqlarning neyroprotektor sifatidagi ta'siri imkoniyatlari-

ni o'rganish shuni ko'rsatadiki, yugurish bo'yicha 12 haftalik dastur natijasida infarktlar soni kamaygan, jismoniy mashqlardan keyingi neyroprotektsiya neyrotrofin-nerv o'sishi endogen omili ham ortgan.

Glyukoza metabolizmida ovqatni chegaralashning ijobiy ta'siri mana shu neyrotrofin orqali amalga oshadi. Funksional faolligi bilan miyadan olingan neyrotrofik omilni farmakologik manipulyatsiya qilish semizlikni to'xtatish va davolashda hamda insulin rezistentlik sindromi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni davolashda foydali.

Shunday qilib, jismoniy mashq va harakatning ta'siri quyidagilarni ko'rsatadi:

1) Jismoniy mashqlar organizmning asab va turli xil tizimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uning ruhini, intellektini yuksaltiradi hamda sog'lig'ini tiklaydi va mustahkamlaydi.

2) Jismoniy harakatga keltiradigan mashqlar uchun ishlab chiqarilgan dasturlar o'z ichiga mashg'ulotlarda "moslashish davri"ni qamrab oladi.

3) Jismoniy harakatlantirish dasturini tuzishda mashq qiluvchining yoshi va sog'lig'ini hisobga olgan holda me'yoriy va doimiy mashqlarni belgilash hamda bular asosida uzluksiz sport musobaqalari tizimini yaratish talab etiladi.

4) Jismoniy va sport harakati dasturlariga, avvalambor, inson immun tizimi va sog'lig'i, uning intellektini oshiruvchi mashqlarga asoslangan sport turlari kiritish aksincha holdan toydiradigan, xavfli mashqlarni kiritmaslik kerak.

Yoshlarning jismoniy-intelektual resurslari.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim va ustivor masaladir, chunki jamiyatimiz o'z oldiga qo'ygan oliyjanob maqsad-kelajagi buyuk davlat barpo etish vazifasi shuni taqozo etadi.

Shuning uchun jismoniy-sog'lomlashtirish va ommaviy sport harakatini rivojlantirishga va uni samarali boshqarishga alohida e'tibor berilib, mazkur jarayon Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va

xalq farovonligi metodologik talablari asosida amalga oshirilmoqda.

Qisqa davr ichida amalga oshirilgan ishlar orqali olingan natijalar asosida quydagi xulosalar qilish mumkin.

Yosh avlodni jismoniy, aqliy va ma'naviy salohiyatini rivojlantirish va ularning jamiyat miqyosida samarali boshqaruvini ta'minlashga qaratilgan "jismoniy-intelektual resurslar" JIR kategoriyasini birinchi marotaba asoslanib, ilmiy iboraga kiritilgan.

JIRni komillik darajasiga yekazish va yaratilgan tizim orqali samarali boshqarish hamda ta'minlashga yo'naltirilgan ilg'or mexanizm va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan.

Mazkur tizim ommaviy sport harakatini ustivorlik asosida rivojlantirishga turtki bo'lib, professional sportning yetakchi ahamiyati hamda iste'dodlarni yetishtirib, mamlakat nufuzini yanada oshirishga asos bo'lmoqda.

Insonning barkamollik darajasini belgilovchi sifat va miqdor jihatdan "jismoniy-intelektual resurs" tushunchasi joriy etilib, jismoniy-intelektual resurslarni uyg'un rivojlantirishda sportning imkoniyatlari beqiyosligi ko'rsatildi.

Jismoniy-intelektual resurslarning ham miqdoriy, ham sifat jihatdan barkamollashtirilish xususiyatiga egaligi, ularni qaytadan yanada sifatli qilib shakllantirishga turtki bo'ladi.

Barkamollik mustahkam uch tayanchga ega bo'lgan mustahkam konussimon qurilmaga o'xshab, jismoniy sog'lomlik, intellekt va ma'naviyat tayanchiga to'laonli resurs sifatida shakllanganligina kamolga yetadi.

Inson vujudiga uyg'unlashgan jismoniy, aqliy va ma'naviy resurslargina bunyodkor manbayi sifatida namoyon bo'la olishi belgilanadi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosini belgilovchi jismoniy-intellektual resurslarni maqsadli yondashuv asosida samarali boshqarishning tamoyillari umumuslubiy talablardan kelib chiqqan holda belgilanib, ularga uslubiy yondashuv prinsiplari ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

JIRni samarali boshqarishni baholash uslubiyati yuzasidan qator takliflar ishlab chiqilib, ommaviy sportni rivojlantirishda asosiy natijalar bilan bir qatorda, qo'shimcha iqtisodiy samarani taxminlashga qaratilgan boshqaruvni yangicha baholash usuli taklif qilingan. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichida jismoniy-intellektual resurslar rivojini hududiy moliyalashtirish jarayonini samarali boshqarishga qaratilgan uslubiy yondashuv va uni aniqlash uslubiyati ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda ommaviy sport harakatini shakllantirish va uni samarali boshqarishning yo'nalishlari va tamoyillari belgilanib, amaliyotga joriy etilgan.

Ommaviy sport harakatini samarali boshqarishning mexanizm va mezonlari joriy etilgan.

JIRni davlat standartlari asosida maqsadli boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tamoyillari ishlab chiqilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga mos ravishda JIR rivojini intellektual ta'minlashga qaratilgan "sport turlarini rivojlantirish ilmiy markazi"ni shakllanti-rishning mexanizmlari va markazni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

Jismoniy-iqtisodiy xavfsizlik tizimida jismoniy-intellektual resurslarni boshqarishni takomillashtirish, xususan, milliy xavfsizlik tizimida jismoniy-intellektual resurslarning o'rni asoslanadi, ommaviy sport hamda kasbiy-jismoniy tarbiyani rivojlantirishda maqsadli boshqaruvni amalga oshirish asosida mehnatga layoqatsizlikni kamaytirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy xavfsizlikni taxminlashning JIR asoslarini boshqarish yuzasidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan muammolarni hal etish yo'llari asoslanadi.

Mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, jismoniy-intellektual resurslarni rivojlantirish jarayonida moliyaviy resurslarning to'laqonli boshqarilishiga yo'naltirilgan tizim bo'yicha taklif ishlab chiqilgan.

Rekreatsioon jismoniy madaniyat - bu jamiyat taraqqiyoti-ning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadigan tarixiy shartli ijtimoiy hodisa. Ushbu naqshlar butunlay odamlar va tabiat o'rtasida, o'z hayoti davomida odamlar o'zlari o'rtasida o'rnatiladigan munosabatlarning tabiatiga bog'liq. Binobarin, UJTni bilish va ilmiy boshqarish odamlarning hayoti va faoliyatining majburiy atributi sifatida uning paydo bo'lishi, ishlashi va rivojlanishini belgilaydigan sabab-oqibat munosabatlarini o'rganmasdan imkonsizdir. Sabab-oqibat munosabatlariga asoslanib, tabiiy (tabiiy), ijtimoiy (ijtimoiy-iqtisodiy), obyektiv va subyektiv omillarni ajratishimiz mumkin.

Insonning barcha faoliyati, shu jumladan, jismoniy madaniyat va sog'liqni saqlash ma'lum tabiiy, tabiiy sharoitlarda amalga oshiriladi. "Tabiat" tushunchasiga insonning o'zi ham, uning barcha tabiiy tevarak-atroflari, yashash sharoitlari kiradi.

Insonning yashashi va rivojlanishi uchun tabiiy sharoitlar, qoida tariqasida, geografik, ekologik va iqlim muhitini o'z ichiga oladi.

Geografik va iqlim muhiti deganda tabiatning insoniyat jamiyati bilan bevosita aloqada bo'ladigan qismi tushuniladi. Bu UJT rivojlanishi uchun tabiiy asos bo'lib xizmat qiladi:

1) relyef, iqlim sharoiti jismoniy mashqlar va shu bilan bog'liq holda sun'iy sog'lomlashtirish vositalari (qishki va yozgi sport turlari, turizm turlari, suv sportlari, chang'i, konki, tabiatning tabiiy omillaridan (suv, havo, quyosh, har xil UJT turlarida ishlatiladigan havo namligi va boshqalar);

2) relyef, ob-havo sharoiti sport inshootlarining xarakterini, sog'lomlashtirish darslari vaqtini, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari va musobaqalarining mazmunini belgilaydi;

3) tabiiy, iqlim sharoiti odamni texnik vositalarni, transport tizimini, sun'iy quyosh nurlanish moslamalarini, suzish havzalarini, suv sporti majmualarini va boshqalarni ishlab chiqishga, sun'iy tramplinlar, qishki bog'lar va boshqalarni yaratishga majbur qiladi.

Ekologik muhit bu flora va fauna muvozanatida namoyon bo'ladigan jonli tabiatning sifatli holatidir. U havoda, suvda, qu-ruqlik qoplamida, o'simlik va hayvonot dunyosida fizik, kimyoviy, radioaktiv, magnit va boshqa elementlarning mavjudligi, harorat sharoitlari va havoning namligi bilan belgilanadi, bu barcha tirik tabiatning, shu jumladan odamlarning xavfsiz yashashlari uchun zarur, tabiiy sharoitni tashkil etadi. ... Ekologik muhit O'FKning ishlashi va rivojlanishining ikki jihati omiliga aylanadi: - - birin-chidan, sog'lomlashtirish yo'nalishi bilan jismoniy mashqlar uc-hun tabiiy fon sifatida (tog'yoki toza havo va suv, yashil maydon-larning nisbati o'rmonlarning kattaligi va boshqalar bilan);

- ikkinchidan, ishlab chiqarish, energiya manbalarini rivoj-lantirish, o'rmon va o'rmon bo'lmagan hududlar uyg'unligini bu-zish, hayvonot dunyosining tabiiy munosabatlari muvozanatini saqlash shartlari va boshqalarni buzishda odamlarning halokatli faoliyati omili sifatida va shu sababli inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Baxtsiz hodisaning ruhiy oqibatlarini mehnat jamoalarida, oila-larda noaniq muhitda tashvishlanish, o'z hayoti va yaqinlarining hayoti uchun qo'rquv, fanda "radiofobiya" nomi bilan tanilganlik-da namoyon bo'ladi; umidsizlikning o'sishi, hayot mazmunining yo'qolishi (12). Bularning barchasi jamiyat, davlat oldiga ushbu muammolarni hal qilish vazifalarini qo'yadi, bu esa radiatsiya zonalarida yashovchi odamlar uchun sog'lomlashtirish yo'nalti-rilgan yo'naltirilgan jismoniy mashqlarni o'rganish, uslubiy qo'l-lab-quvvatlash va tashkil qilishni oldindan belgilab beradi.

Inson hayotining geografik, iqlimiy va ekologik omillari aho-lining samarali hayoti va UJT rivojlanishi uchun fon shartlari hi-soblanadi.

Ilmiy tahlilning maqsadlari va amaliy maqsadlariga qarab, UJT rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni quyidagi guruh-larga ajratish mumkin: umumiy va o'ziga xos; to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita UJTga ta'sir qiluvchi omillar; ob'ektiv va sub'ektiv omillar; tashqi va ichki.

Umumiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarga (sharoitlarga) mamlatdagi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir etuvchi omillar kiradi. Ushbu omillar guruhiga quyidagilar kirishi mumkin: ijtimoiy-siyosiy tizim va ishlab chiqarish uslubining bog'liq bo'lgan tabiati, ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiyot samaradorligi, ushbu munosabatlarni tartibga solishning siyosiy mexanizmlari.

Odamlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, zamonaviy ishlab chiqarishga bo'lgan shoshilinch ehtiyojlarini qondirishning ilg'or vazifalarini hal qilish asosiy ishlab chiqarish kuchiga - insonga va uning atrof-muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jismoniy mehnat ulushining pasayishi, gipodinamiya va gipokinesiya ta'sirining ko'payishida namoyon bo'ladi; ishlab chiqaruvchi omillarning (ifloslanish, changlanish, gaz bilan ifloslanish, toksiklik, tebranish va boshqalar) ishchi odam tanasining turli tizimlariga ta'siri va natijada kasbiy kasalliklar sonining ko'payishi. Shu bilan birga, zamonaviy ishlab chiqarish inson - xodimning jismoniy, aqliy va motorli tayyorgarligiga ma'lum kasbiy talablarni qo'yadi.

Bularning barchasi insonni mehnatga tayyorlashga va ishdan keyin uning tiklanishiga qaratilgan barcha UJT turlarining mavjudligi va rivojlanishini belgilaydi, ya'ni. ishlab chiqarish jismoniy tarbiyasi, jismoniy reabilitatsiya, jismoniy dam olish.

Ijtimoiy ishlab chiqarish shartlari va tabiati, zamonaviy jamiyatning ilm-fan va texnologiyalarining rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lgan yosh avlodning ijtimoiylashuvi bolalar, o'spirinlar, yoshlarning ta'lim darajasiga talablarni kuchaytiradi, bu maktab mavzularining hajmining oshishi, aqliy ish hajmi va maktabdan keyin tiklanish uchun bo'sh vaqt ulushining pasayishi bilan namoyon bo'ladi. kun. Kunduzgi o'quvchilar va talabalarning 83,0% dan ortig'i harakatsiz holatda (darslar, ma'ruzalar, seminarlar, uy vazifalari, test sinovlari, imtihonlar va boshqalar). Bu, o'z navbatida, ushbu toifadagi aholining sog'lig'i, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi holatida salbiy oqibatlarga olib keladi.

Shunday qilib, talabalar orasida 58,9% birinchi tibbiy guruhga "sog'lom", ikkinchi guruhga "sog'liqdagi patologik bo'lmagan

og'ishlar" ga - 26,8%, uchinchi tibbiy guruhga "kasal" - 14,3%. Maktabni tugatgan o'quvchilarning 25 dan 35 foizigacha maxsus tibbiy guruhga a'zo bo'lib, sog'lig'ini tiklashga muhtoj.

Xalq ehtiyojlariga yo'naltirilgan davlat ijtimoiy-iqtisodiy omillarning salbiy ta'sirini yumshatish yoki yo'q qilishga qaratilgan kompleks va mahalliy dasturlarni ishlab chiqadi va amalda amalga oshiradi. Ushbu dasturlar orasida Belorusiya Respublikasi aholisining barcha kontingentlari uchun UJTni rivojlantirish dasturlari mavjud bo'lib, ular umuman hukumatning barcha darajalarida UJTning rivojlanishiga e'tiborning dolzarbligini ta'minlaydi.

Muayyan omillar - bu faqat UJT uchun xarakterli bo'lgan shartlar: ta'lim va taraqqiyotga qaratilgan ilmiy, pedagogik, boshqaruv omillari, jismoniy madaniyat yordamida odamlarning sog'lig'ini yaxshilash sohasidagi harakatlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish. Jismoniy mashqlarning ustun yo'nalishlari, turlari, shakllari va usullari ijtimoiy-iqtisodiy omilning namoyon bo'lish darajasi va yo'nalishiga bog'liq.

Xususiy omillar - bu muayyan mintaqalarda, mintaqalarda, odamlarning iqtisodiy yoki hududiy yashash joylarida, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida, aholining turli ijtimoiy-demografik guruhlari orasida paydo bo'ladigan UJT rivojlanishining shartlari.

UJT rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish darajasi, xususiyati va uslubiga ko'ra barcha ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ob'ektiv va sub'ektiv deb ajratish mumkin. UJTning rivojlanishi va faoliyatiga ta'sir qiluvchi ob'ektiv omillarga quyidagilar kiradi: demografik vaziyat va demografik jarayonlar, ya'ni. aholining soni, uning tabiiy harakati (tug'ilish koeffitsienti, o'lim, migratsiya), jinsi, yoshi va ijtimoiy tuzilishi, shahar aholisining qishloq aholisidan ustunligi, kasbiy tarkibi va rivojlanishi; butun aholi yoki uning alohida qismi jismoniy mashqlar uchun ish, o'qish, dam olish rejimida ajratishi mumkin bo'lgan vaqt; UJTni moliyalashtirish hajmi, shakli va tizimi; sport inshootlarining miqdori, sifati va ulardan foydalanish darajasi, ularni tashkil etish va joylashtirish tizimi; sport anjomlari va inventarlarini ishlab chiqarish, savdo, ijaraga berish

va foydalanishni tashkil etish; kadrlar mavjudligi, ularni tayyorlash va ulardan foydalanish, jismoniy tarbiya ishchilarini tashkil etish va ularga haq to'lash; UJTni boshqarish, tashkil etish, rejalashtirish va ularning mukammallik darajasi; jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish yo'nalishini mashg'ulotlarga jalb qilish usullari va shakllari; sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish shakllarini ta'komillashtirish va samaradorligini oshirish; jismoniy tarbiya darajasi, ijtimoiy guruhlarining jismoniy madaniyati darajasi, shaxs, jismoniy tarbiya va sport imtiyozlari.

UJT rivojlanishi va faoliyatining sub'ektiv omillari ikki jihatdan namoyon bo'ladi: odamlarning real hayot tarzida, ularning bo'sh vaqtlarini o'tkazish usullarida; sog'lom turmush tarziga, insonning jismoniy madaniyati darajasiga va uning jismoniy tarbiya sohasida jismoniy tarbiya sohasidagi ta'limiga ehtiyojni anglashda.

Ajitatsiya (lot. Agitatio dan - biron bir narsaga turtki berish) nimanidir ishontirish, nimanidir ishontirish vazifasini bajaruvchi harakat deb tushunilishi kerak.

Targ'ibot (lot. Propaganda - tarqatish) dan g'oyalar, ta'limotlar, qarashlar, nazariyalarni tarqatish va tushuntirish tushunilishi kerak.

Agitatsiya va targ'ibot - bu o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita yo'naltirilgan ta'sir, ularning maqsadi ma'lum g'oyalarni, qarashlarni, ta'limotlarni, nazariyalarni shaxsning ongi, hissiyotlari va hissiyotlariga etkazishdir va shu asosda muayyan harakatlar, faoliyatlarga bo'lgan ehtiyojga bo'lgan ishonchni shakllantirish va saqlash (saqlash). ... sog'lomlashtirish jismoniy madaniyatidagi faoliyatning namoyon bo'lishi - jismoniy tarbiya faoliyati.

Targ'ibot va tashviqot jarayonida shaxsга yo'naltiruvchi ta'sir institutsional va institutsional bo'lmagan darajada amalga oshiriladi.

atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy merosni, tarixiy-madaniy muhitni, dafn etish joylarini saqlab qolish bilan bog'liq tadbirlar o'tkazish;

ommaviy sport, madaniy tadbirlarni va boshqa jamoat tadbirlarini tashkil etish bilan bog'liq milliy hamda xalqaro ahamiyatga molik tadbirlarni o'tkazishga ko'maklashish;

alohida davr va favqulodda holat huquqiy rejimlarining amal qilishi vaqtida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga, boshqa harbiy idoralarga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga volontyorlik yordami ko'rsatish.

Volontyorlik faoliyati qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin.

Volontyorlik dasturi.

Volontyorlik dasturi volontyorlik tashkiloti, volontyorlar yoki volontyorlar guruhi tomonidan tadbirlarni va kutilayotgan natijalarni ko'rsatgan holda bajariladigan, ijtimoiy yo'naltirilgan, jamoat uchun foydali bo'lgan vazifalarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.



Dastur:

volontyorlik faoliyatini rivojlantirishga;
fuqarolarning va volontyorlik tashkilotlarining volontyorlik faolligini rag'batlantirish tizimini rivojlantirishga;

volontyorlarni va volontyorlarni muvofiqlashtiruvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga;

turli volontyorlik tashkilotlari hamda volontyorlik mehnatidan foydalanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi sheriklik tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

Volontyorlik faoliyatini hisobga olish.

Volontyorlik faoliyatini hisobga olishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Volontyorlik faoliyatini hisobga olish ixtiyoriy xabardor qilish xususiyatiga ega bo'ladi.

Volontyorlik faoliyati sohasini davlat tomonidan tartibga solish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining volontyorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

volontyorlik faoliyati sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

volontyorlik faoliyati sohasidagi davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqadi;

volontyorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarining ishini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqadi;

volontyorlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga va tajriba almashishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining volontyorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

joylarda volontyorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan volontyorlik faoliyati sohasida hamkorlik qiladi;

volontyorlik faoliyatining monitoringini amalga oshiradi;

volontyorlik faoliyati amaliyotini tahlil qilish, yig'ish va umumlashtirishni amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning volontyorlik faoliyati sohasida ishtirok etishi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar volontyorlik faoliyati sohasida ishtirok etishga haqlidir hamda ommaviy volontyorlik aksiyalarini qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

Volontyorlik faoliyati subyektlari. Volontyorlik sohasidagi munosabatlar.

Volontyorning faoliyati.

O'n sakkiz yoshga to'lgan jismoniy shaxslar volontyorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan jismoniy shaxslar volontyorlik faoliyatini, basharti, bu faoliyat ularning sog'lig'iga hamda axloqiy rivojlanishiga zarar yetkazmasa va o'quv jara-yonini buzmasa, amalga oshirishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga doir ishlarni amalga oshirish uchun faqat o'n sakkiz yoshdan katta bo'lgan volontyorlarga ijozat beriladi.

Volontyor quyidagi huquqlarga ega:

o'zining volontyorlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etishini ushbu Qonunda belgilangan talablarni hisobga olgan holda erkin tanlash;

agar volontyor hamda volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi o'rtasida tuzilgan volontyorlik shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, har qanday vaqtda volontyorlik faoliyatini erkin ravishda tugatish;

volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi va volontyorlik tashkiloti to'g'risida ishonchli axborot olish;

volontyorlik dasturlarini bajarish, volontyorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan yoki tavsiya qilinadigan volontyorlik aksiyalarini va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

volontyorlik faoliyati tashkilotchisidan va volontyorlik tashkilotidan maxsus kiyim-bosh olish hamda yo'l haqiga, yashashga, ovqatlanishga, zarur yakka tartibda himoyalaniş vositalarini, asbob-uskunalarini olishga sarflangan xarajatlarning va boshqa xarajatlarning o'rni qoplanishi;

volontyorlik faoliyati tashkilotchisidan va volontyorlik tashkilotidan tavsiyanoma tusidagi xatlarni olish;

ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport tashkilotlariga va tabiatni muhofaza qiluvchi hamda o'rmon muassasalarining hududiga mazkur tashkilotlar va muassasalar rahbariyati bilan kelishuvga ko'ra volontyorlik faoliyatini amalga oshirish uchun kirish;

volontyorlik tashkilotining, volontyorlik faoliyati tashkilotchisining mablag'lari hisobidan hayoti va sog'lig'ini sug'urta qil-dirish.

Volontyor:

volontyorlarni muvofiqlashtiruvchidan, volontyorlik tashkilotidan hamda volontyorlik faoliyatining tashkilotchisidan olingan topshiriqlarni vijdonan bajarishi;

fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi, o'z faoliyati bilan uchinchi shaxslarga va atrof-muhitga zarar yetkazmasligi;

volontyorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan maxfiy xususiyatga ega ma'lumotlarni oshkor etmasligi;

volontyorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida o'ziga berilgan moddiy resurslar hamda asbob-uskunalariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi va ish tugaganidan keyin ularni qaytarishi;

davlat organlarining mansabdor shaxslariga o'z vakolatlarini amalga oshirishida to'sqinlik qilmasligi shart.

Volontyor qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Volontyorlarni muvofiqlashtiruvchining faoliyati.

Volontyorlarni muvofiqlashtiruvchi - volontyorlik faoliyati tashkilotchisi tomonidan yoxud volontyorlik dasturini, volontyorlik aksiyasini amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan volontyorlik tashkiloti tomonidan tayinlanadi yoki volontyorlar guruhi tarkibiga kiruvchi volontyorlar tomonidan ular orasidan saylanadi.

Volontyorlarni muvofiqlashtiruvchi volontyorlarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, ular o'rtasida ishni taqsimlaydi, har bir volontyorning ish joyi va ish hajmini belgilaydi, ishning ular tomonidan bajari-lishini nazorat qiladi.

Volontyorlarni muvofiqlashtiruvchi davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek, volontyorlar guruhlar bilan hamkorlik qiladi.

Volontyorlik tashkilotining faoliyati.

Volontyorlik tashkiloti - volontyorlik dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi hamda volontyorlik faoliyati tashkilotchisi bilan birgalikda yoki volontyorlarni jalb qilgan holda mustaqil ravishda volontyorlik aksiyalarini o'tkazadi.

Volontyorlik tashkiloti - volontyorlarni muvofiqlashtiruvchini tayinlaydi, u o'z faoliyatini ushbu Qonunning 13-moddasiga muvofiq amalga oshiradi.

Volontyorlik tashkiloti - volontyorlarni o'qitish uchun ta'lim faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni jalb etish, maxsus seminarlar, ishchi uchrashuvlar va volontyorlarning uchrashuvlarini o'tkazish huquqiga ega.



YSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



O'ZBEKISTON
VOLONTYORLARI
AGENTLIGI



Respublikamizning barcha hududlarida
"VOLONTYORLAR MAKTABI"
tashkil etiladi



Sen ham
bizning safimizga qo'shil!



Volontyorlik tashkiloti - qonunchilikda belgilangan tartibda volontyorlarni rag'batlantirishni amalga oshiradi, shuningdek, eng ko'p o'zini ko'rsatgan volontyorlarni rag'batlantirish va (yoki) mukofotlash uchun nomzodlarni volontyorlik faoliyatining tashkilotchisiga, shu jumladan, volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi bo'lmagan davlat organlariga belgilangan tartibda taqdim etadi.

Volontyorlik tashkiloti - nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi shart.

Volontyorlik faoliyati tashkilotchisining vakolatlari.

Volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi:

volontyorlik dasturlari amalga oshirilishini va volontyorlik aksiyalari o'tkazilishini tashkil etadi;

volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga va rag'batlantirishga oid davlat dasturlarining amalga oshirilishida ishtirok etadi;

volontyorlik tashkilotiga va volontyorga rejalashtirilayotgan hamda amalga oshirilayotgan volontyorlik dasturlari va volontyorlik aksiyalari, ular ishtirokchilarining soni, aksiyalar o'tkaziladigan joy hamda vaqt, ularni o'tkazishga doir talablar to'g'risida axborot taqdim etadi, shu jumladan, o'z rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali axborot taqdim etadi;

volontyorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida volontyorning hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz shart-sharoitlar yaratadi;

volontyorlik tashkilotiga va volontyorga tavsiya tusidagi xatlar taqdim etadi;

volontyorga maxsus kiyim-bosh beradi hamda uning haqiqiy yashash joyidan volontyorlik aksiyasi o'tkazilayotgan joyga kelishi va u joydan qaytishi uchun yo'l haqi, yashash, ovqatlanish, zarur yakka tartibda himoyalaniish vositalarini, uskunalarni sotib olish xarajatlarining va boshqa xarajatlarining o'rnini qoplaydi;

xavfli, zararli hamda noqulay omillar bilan bog'liq ishlarni bajarishga jalb qilingan volontyorlarning hayoti va sog'lig'ini majburiy tartibda sug'urta qilishni amalga oshiradi.

Volontyorlik shartnomasi.

Volontyorlik - volontyor va volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi o'rtasida, ushbu Qonunning qoidalariga rioya etgan holda yozma shaklda tuzilgan shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi, agar u volontyorlik faoliyati bilan oyiga 20 soatdan ko'proq band bo'lsa, volontyor bilan volontyorlik shartnomasini tuzishi shart.

Volontyorlik shartnomasi ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ulardan biri volontyorlik faoliyatining tashkilotchisida, ikkinchisi esa volontyorda saqlanadi.

Volontyorlik shartnomasining mazmuni.

Volontyorlik shartnomasi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: volontyor volontyorlik dasturi, aksiyasi vaqtida amalga oshiradigan faoliyatning tavsifi;

volontyorlik faoliyatini amalga oshirish davri;

ish soatlari va kunlari;

ishonib topshirilgan moddiy qimmatliklarning qiymati ko'rsatilgan holdagi tavsifi;

shartnoma taraflarning huquq va majburiyatlari;

volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi tomonidan beriladigan imtiyozlar;

belgilab qo'yiladigan kasbiy talablar, ijtimoiy ko'nikmalar, rivojlanish manfaatlar, zarur bo'lganda, sog'lig'ining holatiga doir talablar;

taraflarning yetkazilgan zarar uchun javobgarligi;

shartnomani bekor qilish va uni haqiqiy emas deb topish shartlari.

Agar volontyorlik shartnomasini bajarish jarayonida volontyorning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni amalga oshirishni qiyinlashtiradigan holatlar taraflarga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuzaga kelsa, shartnoma qayta ko'rib chiqiladi.

Agar volontyorlik shartnomasini bajarish jarayonida taraflarga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra shartnomani bundan buyon bajarish mumkin bo'lmay qoladigan holatlar yuzaga kelsa, shartnoma taraflardan birining tashabbusiga ko'ra bekor qilinadi.

Volontyorlik shartnomasini bir tomonlama tartibda bekor qilish, agar volontyorlik shartnomasida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, volontyor tomonidan yoki jalb etilgan tashkilot tomonidan bu haqda yetti kun oldin dastlabki tarzda xabardor qilish sharti bilan va sabablarni ko'rsatish majburiyatlarisiz amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi mehnat shartnomasini yoki xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi fuqarolik-huquqiy shartnomasini yoxud shu kabi har qanday boshqa shartnomani tuzishdan bosh tortish maqsadida volontyorlik shartnomasini tuzish taqiqlanadi.



Volontyorlik faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Volontyorlik faoliyatini rag'batlantirish choralari.

Volontyorlik faoliyatini ilgari surish hamda amalga oshirish borasidagi xizmatlarini e'tirof etish va baholash belgisi sifatida jismoniy va yuridik shaxslar qonunchilikka muvofiq mukofotlanishi mumkin.

Davlat organlari volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda volontyorlik faoliyati sohasidagi xizmatlarni e'tirof etish bo'yicha turli festivallar o'tkazishi mumkin.

Volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va moliyaviy ta'minlash.

Volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari xayriya yordami tarzida quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

moddiy-texnika ta'minoti;

mulkiy ta'minot;

qo'llab-quvvatlashning qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa shakllari.

Volontyorlik faoliyatining moliyaviy ta'minoti jismoniy va yuridik shaxslarning o'z mablag'lari yoki jalb etilgan mablag'lari,

shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Yakunlovchi qoidalar.

Volontyorlik faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish.

Volontyorlik faoliyati ommaviy axborot vositalarida, Internet jahon axborot tarmog'ida yoritilishi mumkin.

Nizolarni hal etish.

Volontyorlik faoliyatini amalga oshirish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

Volontyorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik.

Volontyorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.



Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

Ushbu Qonunning kuchga kirishi.

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

TAYANCH SO'Z VA TUSHUNCHALAR.

Volontyor, volontyorlik harakati, "volontorlik" termini, soha rivojlanishi, maqsadi, vazifasi, Qonun, Qonunning ijrosi, volontyorlik dasturi, volontorlar guruhi, sport musobaqalari, yordamchi volontyorlar, shartnoma, taraflar, huquq, majburiyat, tashkilotchi, imtiyozlar, kasbiy talablar, ijtimoiy ko'nikmalar, rivojlanish manfaatlar, javobgarlik, haqiqiy, shartlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, qonunchilikka muvofiq, vakolatlar, fuqarolar, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy volontyorlik aksiyalari, qo'llab-quvvatlash, volontyorlik faoliyati subyektlari.

MAVZU YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Volontyorlik harakati haqida tushuncha bering. Volontyorlik o'zi nima?

2. "Volontyor" terminiga izoh bering va ushbu sohaning rivojlanishi haqida gapiring.

3. Volontyorlik harakatini tashkil qilishdan asosiy maqsad nimalardan iborat?

4. Volontyorlar guruhi, sport musobaqalarida yordamchi volontyorlarning vazifalari nimalardan iborat?

5. Chet el grantlari komissiyalari nomzodlarning volontyorlik tajribasiga alohida e'tibor berishlarining sabablarini ko'rsating?

6. Yoshlarning volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanishining qanday foydali tomonlari bor?

7. Hozirgi paytda volontyorlikni ko'pchilik yaxshi tushunadimi?

8. Inson o'z xohishi bilan vaqti va mehnatini qandaydir jamoat ishiga, ko'p hollarda hech moddiy foydasiz yordam berishi qanday faoliyatni yuzaga keltiradi?

9. Siz ko'ngilli ravishda o'z vaqtingiz va kuchingizni qandaydir ijtimoiy ishlarni amalga oshirishga sarflarmidingiz? Agar shunday bo'lsa, nima uchun?

10. Ko'ngilli faoliyatning maqsadlari nimalardan iborat?

11. Volontyorlik faoliyati uchun Qonunan qanday yuridik yordam belgilangan?

12. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi haqida nimalarni bilasiz?

13. Bola huquqlari deklaratsiyasi qachon ishlab chiqilgan?

14. O'zbekiston Respublikasining "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan, Qonun necha bob va necha moddadan tashkil topgan?

15. Qonunning maqsadi nimadan iborat

16. Volontyorlik faoliyati to'g'risidagi qonunda keltirilgan "Asosiy tushunchalar" bilan tanishib, har bir tushunchaning izohli ma'nosini chuqur o'zlashtirib oling.

17. Volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi kim?

18. Volontyorlik faoliyatining maqsad va vazifalari Qonunda qanday belgilangan?

19. Volontyorlik faoliyatining asosiy prinsiplari haqida gapiring.

20. Volontyorlik faoliyatining shakllari va asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

21. Qonunda volontyorlik faoliyati yo'nalishlar bo'yicha qanday amalga oshiriladi?

22. Volontyorlik dasturi qanday tuzilishga ega?

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining volontyorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari nimalardan iborat?

24. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining volontyorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari mazmuni nimalardan iborat?

25. Volontyorlik faoliyati subyektlari haqida ma'lumot bering?

26. Volontyorlik sohasidagi munosabatlar va faoliyat mazmuni bilan tanishtiring?

27. Qonunan Volontyor qanday huquqlarga ega?

28. Qonunga ko'ra volontyorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun qanday javobgarlik belgilangan?

**MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN
TOPSHIRIQLAR:**

1. O'quvchilar organizmining jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va funksional holatini baholash shakllari.
2. Talabalarning sog'lom turmush tarzi shakllari.
3. Mutaxassislarni tayyorlash jarayonida jismoniy tarbiya va sport vositalarini qo'llashning uslubiy asoslari.
4. Talabalarni jismoniy tarbiya-sport faoliyatiga bo'lgan ehtiyojlarini amalga oshirish shakllari.

15-MODUL.VOLONTYOR (KO'NGILLILAR , IXTIYORIY) JAMIYATNI INSTITUTSIONALIZATSIYA QILISH BO'YICHA AMALIY ISHLARNING SHAKLLARI VA VOLONTYORLIKKA OID LOYIHANI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYALARI.

REJA:

1. Volontyorlar guruhining sport musobaqalarida amalga oshirishi mumkin bo'lgan ishlar.
2. Yordamchi volontyorlarni rag'batlanish va ularni kerakli kim-kechak, jihozlar bilan ta'minlash.
3. Volontyorlik harakati - davlat rahbarlari e'tiborida.

Volontyorlik asli fransuzcha "volontaire" so'zidan olingan bo'lib "ko'ngili", "o'z xohshiga ko'ra ish qiluvchi" ma'nolarini anglatishini o'tgan mashg'ulotda ta'kidlab o'tgan edik..

Volontyorlik harakati – hozir dunyoda keng tarqalgan mashhur sohalardan bo'lib, istalgan soha, maqomli lavozimdagi odamlar, ko'ngililar qatorida bo'lib jamiyat, insonlarni turli muammolari yechimiga, ularni hayotini har tomonlama yaxshilashga xizmat qiluvchi, shunga doir turli loyihalar tuzuvchi va eng asosiysi, mablag` yoki biror moddiy yordam talab qilmaydigan, bir ezgu maqsad sari birlashgan guruhlariga aytiladi. Bunda esa kishi o'z xohshiga binoan, savob qilish, yordam berish istagi orqali volontyorlarga yordam berishi mumkin.

Guruhli volontyorlar ochish aynan bizning Sport tadbirlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar volontyorlik vazifasida sport musobaqalarida faoliyat olib borishlari, ular uchun amaliyot vazifasini bajaradi va shu sohada malakali mutaxassis bo'lishlarida xizmat qiladi. Ular kelajakda O'zbekistonda ommaviy sport tadbirlarini sifatli, kamchiliklarsiz tashkil etilishini ta'minlab beradilar.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Sport tadbirlarini tashkil etish kafedrasida tahsil olayotgan tala-

balar ishtirokida guruhli volontyorlar ochish orqali ularni sport musobaqalariga jalb qilib, o'z mutaxassisliklari bo'yicha yetuk, malakali kadr bo'lishlarini ta'minlash va O'zbekistonda ommaviy sport tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazilishini tashkil etish bugungi kun tartibidagi eng dolzarb bazifalardan biridir.

Volontyorlik harakatini tashkil qilishdan asosiy maqsad esa aholini, ayniqsa, yoshlarni jamiyat hayotiga yana ham jalb qilish bilan, bag'rikenglik, o'zaro yordam, hurmat, o'zgalar muammosiga befarq bo'lmaslik, daxldorlik hissi va boshqa fazilatlarini rivojlantirish orqali, fuqarolik jamiyatini barpo qilish belgilangan. Aynan shuning uchun butun dunyo beg'araz volontyorlikni targ'ib qilmoqda.

Volontyorlar guruhi, boshqa sohalar kabi o'z maqsadlariga erishishda, oldilariga turli vazifalarni qo'yganlar. Volontyorlar faoliyatlari orqali o'zlarida;

Mustaqilik;

O'zaro birlik;

Universallik;

Insonparvarlik;

Xolislik;

O'zaro hurmat kabi harakatlarni shakillantiradilar.



Ishning qiyosiy tahlili.


"Volontyorlik" termini va ushbu soha rivojlanishi ko'p yillik tarixga ega emas.

U ilk marta Yevropada 1990-yili jamiyatning madaniy, iqtisodiy, ekologik yo'nalishlarida tuzilgan. Volontyorlikning om-

malashishi esa xalqaro ko'ngillilar Assotsiatsiyasining XI Kongressida volontyorlik harakati tuzilgandan boshlab, ommalasha boshladi.

Agar volontyorlar soni 1987-yilda 80 million bo'lsa, 2009-yilga kelib 130 millionni tashkil etadi. Hozirda esa ularning soni cheksiz oshib bormoqda. Ularning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi.

Mamlakatimizda ham volontyorlik harakatiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratila boshlandi. Buning isboti o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning barcha sohalar qatori volontyorlik harakatini rivojlantirish borasida ko'plab qaror va farmonlar qabul qilayotganida ko'rishimiz mumkin.



Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 4-dekabr kuni 959-son bilan "O'zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasi" davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Adliya vazirligi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi xabariga ko'ra, assotsiatsiyaning asosiy maqsadi volontyorlik faoliyatini tashkil etishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish, insonparvarlik, bag'rikenglik hamda hamjihatlilikni qo'llab-quvvatlash, volontyorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Assotsiatsiyaning tashkil etilganligini "5-dekabr Xalqaro volontyorlar kuni"ga munosib sovg'a deb hisoblash mumkin.



Volontyorlik faoliyatini rivojlantirishga doir talab va takliflar.

Xususan, volontyorlik xizmatidan sport musobaqalarida, hatto olimpiyada o'yinlarida ham foydalanib kelinmoqda. Chunki bunday katta tadbirlarda har bir kichik yordam ham kerak bo'lishi hammamizga ayon. Bunda volontyorlik xizmatidan foydalanish sport musobaqasining sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Misol uchun Rossiyaning Sochi shahrida bo'lib o'tgan 22 - Qishki olimpiyadadan keyin Olimpiyada tashkilotchisi bergan interviyusida shunday degan edi:

"Shu qatori Volontyorlar guruhida alohida ajralib turgan jismoniy tarbiya va sport akademiyasi o'quvchilari juda ham katta yordam berishdi, chunki ular bilan ishlash anchagina oson, ular sportni yaxshi ko'rishadi va tushunishadi, ularga katta rahmat," deb takidlab o'tgan edi. Harakat tashkilotchisi fikrini davom ettirib " Meni bu qishki Olimpiyadada ko'p narsa quvontirdi, asosiy ulardan 2 tasini ta'kidlab o'tmoqchiman. Ular: 1) Rossiyanı umumiy reyting bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritishi 2) Volontyorlarning xizmatidan va ularning ko'p qismini yoshlar tashkil etganidan", deb takidlab o'tgan.

Sport musobaqalarini yordamchi volontyorlarsiz tasavvur qilish qiyin, ularni mehnatini alohida e'tiborga olish, sport mu-

sobaqalarini tartibli, kamchiliklarsiz, yuqori sifatli va qiziqarli bo'lib o'tishini ta'minlaydi .

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir sohadagi rivojlanishda volontyorlar xizmati juda samaradorligi va foydasi jihatidan ko'proq hisoblanadi. Shu qatorida biz ham Sport tadbirlarini tashkil etish kafedrasida tahsil olayotgan talabalar a'zolicida guruhli Volontyorlar xizmatini tashkil etish taklifini bermoqchimiz.


Bu qanday bo'ladi:

Guruhli Volontyorlar jamoasi tashkil qilinadi - unga ko'ra 3 ta volontyorlar guruhl tuziladi:

Tarjimonlar - bu guruhga rus yoki ingliz tilini biladiganlarni qo'shamiz, mayli rus, ingliz tillarini mukamal bilmasinlar, lekin musobaqa jarayonida qo'ldan kelgancha talabgorlarga til bo'yicha yordam bera olsinlar.

Spor turlari bo'yicha tushinchaga ega bo'lgan yoshlar - ya'ni sport musobaqasida sport turi qoidalarini bilishi, uning tarixi bo'yicha talabgorga ma'lumotlarni yetkazib bera oladigan volontyorlar guruhi.

Ko'makchilar - tadbir jarayonlariga ko'maklashuvchilar guruhi. Bu guruh sport musobaqalari davomiyligida kamchiliklarni bartaraf etadi va ushbu musobaqani sifatli, kamchiliklarsiz yakun topishida xizmat qiladi.




Guruhli volontyorlar ochish aynan bizning Sport tadbirlarini tashkil qilish va boshqarish yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari volontyorlik vazifasida sport musobaqalarida faoliyat olib borishlari, ular uchun amaliyot vazifasini bajaradi va shu sohada malakali mutaxassis bo'lishlarida xizmat qiladi.

Buning uchun tashkil etiladigan volontyorlar gurihiga nimalar kerak bo'ladi:

Forma - yani volontyorlar formasi, guruhli volontyorlar jamoasidan ekanligini musobaqa ishtirokchilari, tashkilotchilari, musobaqaga tashrif buyurgan mehmonlar va tomoshabinlar anglashlari maqsadida.

Bejik - volontyorlar shaxsini bildirish maqsadida.



Ishonch guruhli - volontyorlar jamoasini qo'llab-quvatlab turish maqsadida Mustaqillik yillari O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun yetarli darajada huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va ularning ijrosi ta'minlandi. Davlatimiz rahbarlari tomonidan Volontyorlar harakatini rivojlantirish farmonlari, qonun qarorlari va chora-tadbirlari ijrosini ta'minlanishi bu yo'nalishni yurtimizda barqaror rivoj topishiga xizmat qiladi. Bu islohotlardan kelib chiqib shuni aytib o'tish jo'izki, biz volontyorlar xizmatini ochib, har bir musobaqa eng zo'r bo'ladi, deya olmaymiz. lekin yaqin kelajakda ko'plab musobaqalarga mezbonlik qiladigan O'zbekistonda boshqa mu-

sobaqalardagidek, kichik xatoliklarga yo'l qoyilmaydi, deb bemaol ayta olamiz.

Bunday olib qaraganda, Volontyorlik ko'p zerikarli va qiziqishsiz ish kabi ko'rinadi. Biroq, bunday tadbirlarda ishtirok etish uchun taqdim etilayotgan barcha imkoniyatlar va sharoitlar haqida ko'p narsa bilmaymiz. Ayniqsa, yoshlar orasida qiziqishga sabab bo'lgan: xalqaro dasturlar va volontyorlar sayohatlair haqida bilmaydilar. Har bir inson o'ziga xos qiziqarli faoliyat (madaniyat, sport, ekologiya, arxeologiya, qurilish, ta'lim) va ajoyib sayohat (Yaponiyadan Irlandiyagacha) bo'lishni istaydi, barcha istaklarini osongina ro'yobga chiqarishni jamlab olgan. Odatda bunday dasturlar yoshlarga mo'ljallangan. Barcha sarf-harajatlar (oziq-ovqat, yo'l harajati va boshqa harajatlar) dastur doirasida to'lab beriladi. Bunday loyihalar chet davlatlarda juda rivojlanganligini guvohi bo'lamiz.

Tashkilotchi volontyorlar (sport va madaniy). Tanlovlarini, ommaviy sport tadbirlarni va yangi hayriya dasturlari (festival, forum va konfrensiyalarni) amalga oshirish. Olimpiyada o'yinlari, Jahon kubogi, Universiyada kabi keng ko'lamli sport musobaqalari haqida so'z yuritar ekanmiz, ularni volontyorlarning yordamisiz ta'savur etish qiyin. Bunday musobaqalarda chet ellik mehmonlarga yordam berish va boshqa tashkilotchilik tajribasiga ega bo'lgan yoshlar zarur bo'ladi. Hattoki, tarjimon sifatida ham faoliyat ko'rsatadilar

Sport musobaqalari davomida ko'ngillilar sportchilarning chiqishlari uchun musobaqa maydonchalarini tayyorlaydilar, taqdirlash marosimlarida yordam beradilar, doping nazorati punktlari, protokol xizmatlari va matbuot xizmatlarida qatnashadilar.

Sport ko'ngilliligi Moskvadagi ko'ngillilikning eng mashhur va keng ko'lamli yo'nalishlaridan biridir.

Masalan, o'tgan yili Moskvada 700 dan ortiq ko'ngillilar yirik xalqaro va Rossiya turnir va musobaqalariga jalb etilgan.

"Mosvolonter poytaxtda sport volonterligini faol rivojlantirmoqda. Aynan shu yo'nalishdan Moskvada ezgu ishlar madani-

yatining shakllanishi boshlandi. G'amxo'r yordamchilar sakkiz yildan ortiq vaqt davomida shahardagi barcha yirik sport tadbirlarida qatnashib keladi", – deydi "Mosvolonter" resurs markazi direktori Aleksandr Levit.

2021-yilda sport ko'ngillilari og'ir atletika bo'yicha Evropa chempionatida, FIVB 2022 voleybol bo'yicha jahon chempionatiga qur'a tashlash marosimida, Moskvada baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha Evropa chempionatida, qayiqda uchish bo'yicha Rossiya chempionatida, Butunrossiya qor voleyboli "Chumchuq tepaliklari" festivalida (Chumchuq tepaliklari). Bu yil snoubord bo'yicha Grand Prix de Russie, Freestyle Jahon kubogi va boshqa ko'plab musobaqalarda 130 ga yaqin ko'ngillilar jalb qilingan. Tadbirlarda ko'ngillilar musobaqa maydonlarini sportchilar musobaqasiga tayyorlash, taqdirlash marosimlarini o'tkazish, doping nazorati punktlari va shifokorlar, protokol xizmatlari, matbuot xizmatlari ishlarida ishtirok etishgan, shuningdek, tarjimonlik qilishgan.

Xalqaro sport kunida ko'ngillilar o'z hikoyalari bilan o'rtoqlashganlar va nima uchun ko'ngillilik sport yo'nalishini tanlaganliklarini aytib berishgan.

Vladislava Kulakova: "Sport - bu yuqoriga intilish harakati", deydi.

Vladislava Kulakova dzyudo bilan shug'ullangan. O'zi ko'ngillilar guruhi rahbari bo'lgan singlisining maslahati bilan qiz Moskva ko'ngillilari jamoasiga qo'shilishga qaror qilgan va o'zi uchun sport yo'nalishini tanlagan.

"Mega sport tadbirlarida qatnashish, ularning ajoyib muhitiga sho'ng'ish va sportchilarni qo'llab-quvvatlash yoqadi. Sport - bu yuqoriga qarab harakat. Hozir figurali uchish bilan shug'ullanaman. Ushbu sport haqida ko'proq ma'lumot olishim uchun tadbirlarni tanlashga harakat qilaman, - deydi ko'ngilli.

Vladislava baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha chempionat va Yevropa chempionatida jamoa yetakchisi sifatida ishtirok etdi. U nafaqat keng ko'lamli tadbirga qo'shildi, balki do'stlari

va hamfikrlarini ham topdi, ular bilan kelajakda poytaxtda ko'ngillilar aksiyalari va boshqa tadbirlarda qatnashishni rejalashtirmoqda.

Lyudmila Gorelova: "Ko'ngillilik - bu voqeaga ichkaridan qarash uchun eng yaxshi imkoniyat" - deb aytgan edi.

Lyudmila Gorelova 2018-yildan beri ko'ngillilar harakatining faol ishtirokchisi bo'lib, Mosvolonter jamoasi bilan birgalikda 50 ta tadbirda ishtirok etgan. Ko'ngillilikdagi sport yo'nalishi u uchun yangi. Lyudmila uni do'stlarining maslahati tufayli tanlagan.

Lyudmilaning cho'chqachilik bankida allaqachon ikkita sport musobaqasi bor. Grand Prix de Russie snoubord musobaqalarida u rejissyor va ishlab chiqarish guruhiga yordam berdi, shuningdek, boshqa ko'ngillilar uchun guruh rahbari bo'lib xizmat qildi. Bundan tashqari, qiz VDNKhdagi inklyuziv WheelGo poygasida ko'ngilli bo'lgan.

"Sport tadbirlarida ishtirok etish sport hayoti parda ortidan ko'rish imkonini beradi: sportchilar musobaqalarga qanday tay-yorgarlik ko'rishlari, murabbiy bilan qanday muloqot qilishlari, taqdirlash marosimlari va doping-testlar qanday o'tayotganini. Ko'ngillilik - bu voqeaga ichkaridan qarash uchun eng yaxshi imkoniyat. Jamoamiz har doim sportchilarni qo'llab-quvvatlashga, bayramona muhit yaratishga va barcha mehmonlar va ishtirokchilarga tabassum ulashishga harakat qiladi", - deydi ko'ngilli.

Lyudmila sportdagi ko'ngillilik tajribasini kengaytirishni rejalashtirmoqda va sport tadbirlarida ko'proq soatlik yordam ko'ngillilar kitobida paydo bo'lishiga umid qilmoqda.

Dmitriy Plujnikov: "Sport tadbirlari har doim kuchli harakatdir", deydi. Dmitriy Plujnikov 2018- yilda FIFA Jahon chempionati yordamchi jamoasiga qo'shilganida sport ko'ngilliligini tanlagan. U matbuot markazi ishida ishtirok etdi, buning natijasida jahon chempionatida ishtirok etuvchi deyarli barcha shaharlarga tashrif buyurdi.

"Sport tadbirlari har doim kuchli harakatdir. Ko'ngillilar esdalik sovg'asi sifatida ishtirok etish, musobaqalarni tomosha qi-

lish, sevimli sportchilarni jonli efirda ko'rish va suratga tushish imkoniga ega. Biz har doim yangi do'stlar topamiz. Sport tadbirlari ko'ngillilar orasida doimo katta talabga ega, ro'yxatga olish bir necha soatdan keyin yopiladi", – dedi ko'ngilli.

2021-yilda Dmitriy Moskvada baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha Evropa chempionatida ko'ngillilar ishtirokida qatnashdi. Ushbu tadbirda u jamoa sardori sifatida harakat qildi. Uning jamoasi matbuot markazida yordam berish va suv tarqatish uchun javobgar bo'lgani tufayli, ko'pincha yigitlar daryo bo'yida bo'lishgan. Ular o'z vazifalarini bajarishga va ba'zi musobaqalarni jonli tomosha qilishga muvaffaq bo'lishdi.

"Sport - bu g'alaba va ishtiyoq muhiti", degan Svetlana Bilibina Moskvadagi eng yirik sport tadbirlarida ishtirok etgan. 2018-yilgi futbol bo'yicha Jahon chempionatida u Paveletskiy temir yo'l stansiyasining ma'lumot stollarida yordam berdi. 2019-yilda u Snoubord bo'yicha Jahon kubogida ishtirokchilarni Chumchuq tepaliklarida navigatsiya qilish funksiyasini bajardi.

Vladislava baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha chempionat va Yevropa chempionatida jamoa yetakchisi sifatida ishtirok etdi. U nafaqat keng ko'lamli tadbirga qo'shildi, balki do'stlari va hamfikrlarini ham topdi, ular bilan kelajakda poytaxtda ko'ngillilar aksiyalari va boshqa tadbirlarda qatnashishni rejalashtirmoqda.

2022-yilda Moskva ko'ngillilari VDNHda "Hayotga 10 000 qadam" Butunrossiya aksiyasida, qayiqda uchish bo'yicha Rossiya chempionati finallarida, XXX ochiq shahar yengil atletika festivali "Yugurish kuni"da, Butunrossiya musobaqalarida ishtirok etishni rejalashtirmoqda. Generalissimo A.V nomidagi Rossiya sport festivali. Suvorov futbol va poytaxtning boshqa sport tadbirlarida kadetlar korpusi orasida qatnashadilar. Ko'ngillilar navigatsiya va ishtirokchilarni xabardor qilish, ovqatlanish, tantanali marosimlarni kuzatib borish, akkreditatsiyada yordam berish, hakamlar va musobaqalarda matbuot xizmatida ishtirok etadilar.

Poytaxtdagi sport tadbirlari va ko'ngillilik haqida ko'proq ma'lumotni resurs markazi veb-saytida, "VKontakte" ijtimoiy tarmog'idagi "Mosvolunteer" sahifasida va Telegram kanalida bilib olishingiz mumkin. Bu haqda "The Rambler" nashri xabar bermoqda.

Zamonaviy sportning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu ko'ngillilar harakati yoki ko'ngillilikdir. Ushbu kontsepsiyaning mohiyati juda oddiy. Bizning kundalik harakatlarimizda ko'p narsa iroda bilan belgilanadi. Bolaligimizdan biz: "Men falon o'yinchoq, velosiped yoki rolikli konkiga ega bo'lishni xohlayman", "O'qishni xohlamayman", "Kelajakda men falon bo'lishni, falon kasbni egallashni xohlayman", "Men xohlayman (yoki qilaman)" deymiz. Bu barcha iboralar, shuningdek, shaxsning ichki impulslarini aks ettiruvchi boshqa ko'plab iboralar irodaning ko'rinishidir. Lotincha "voluntas" so'zi "iroda, istak, xohish" degan ma'noni anglatadi, "ko'ngilli" esa ezgu niyat, ichki intilish va intilishlar bilan boshqariladigan shaxsdir. Rus tilida bu atamaning sinonimi "ko'ngilli" bo'lishi bejiz emas - ikki so'z - yaxshilik va iroda. IN VA Dahl "Tirik buyuk rus tilining izohli lug'ati"da shunday tushuntiradi: "Ko'ngilli - o'z ixtiyoringiz bilan biror narsa qiling, biror narsaga erkin rozilik bering", degani.

Shunday qilib, biz volonter va ko'ngilli bir xil tushunchani bildiruvchi sinonim so'zlar ekanligini aniqladik. Zamonaviy rus amaliyotida sportga, jismoniy tarbiya va sport munosabatlariga beg'araz yordam ko'rsatish amaliyotida ruslarning ongida harbiy mavzular bilan mustahkam o'rnashgan ko'ngillilik va ko'ngillilar bilan chalkashmaslik uchun ko'ngilli va ko'ngillilar atamalari ko'proq qo'llaniladi.

Endi keling, sport ko'ngilliligining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy qatlamini o'rganishga, ushbu hodisaning o'ziga xos xususiyatlarini va uning xayriya va homiylikdan rasmiy farqlarini aniqlashga harakat qilaylik.

Yuqorida biz sportdagi xayriya, homiylik va ko'ngillilik hodi-salariga to'xtalib o'tdik. Endi qisqacha eslaylikki, donorning (do-

orning) alohida sportchilar, klublar, murabbiylar va sport jamoalariga foyda keltiruvchi har qanday harakati xayriya sifatida tan olinadi. IN VA. Dahlning ta'kidlashicha, xayr-ehson qiluvchi yoki xayr-ehson qiluvchi - xayr-ehson qiluvchi, xayr-ehson qiluvchi; boshqalarga yaxshilik qilish. Xayr-ehson - xayr-ehson qiluvchi-ning mulki (qarang: T.1, 94-bet, "Jonli buyuk rus tilining izohli lug'ati"). Xayriyachi o'z mol-mulkini ma'lum jismoniy va yuridik shaxslarga vasiyat qilishi, sport ehtiyojlari uchun ma'lum miqdorda pul jo'natishi, moddiy va intellektual mulkni xayriya qilishi mumkin.

Homiy - sportga qoplanadigan, tijorat asosida yordam ko'rsatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Masalan, sport o'q-dorilarini ishlab chiqaruvchi kompaniya reklama tadbirlari evaziga sportchilarga o'z mahsulotlaridan bepul foydalanishni ta'minlaydi.

Ko'ngillilik xayriya, ehson va homiylik tushunchalarining chorrahasida bo'lib, faoliyatning maxsus sohasi, ko'ngillilar sportga pul bilan yordam bera olmagan holda, o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan yordam berishadi

E'tibor bering, biz qayd etgan hodisalarning kesishish chegaralari statik bo'lib qolmaydi, ular u yoki bu darajaga o'tishi mumkin, boshqa tushunchalar bilan umumiy maydonlarni tashkil qiladi.

Aniqroq aytganda, bu shunday ko'rinadi. Patronaj xayriyadan farq qiladi, chunki xayriyachi o'zi uchun bergan ehsonini reklama qilishni xohlamaydi, maxfiy yordam beradi. Jamiyat manfaati uchun moddiy, moliyaviy yoki boshqa boyliklarni xayriya qiladigan xayriyachi - hurmat, obro'-e'tibor, ijtimoiy mavqeyini oshirishi mumkin. (siyosiy faoliyatda yoki saylangan lavozimga ko'rsatilganda foydalanish mumkin). Homiy, ta'kidlaganimizdek, ochiqchasiga tijorat maqsadlarini ko'zlaydi.

Gradatsiyada atamalarning semantik mazmuni turli xil ma'nolarga (konnotatsiyalarga) ega bo'lishi mumkin. Sovet davrida tug'ilgan barcha odamlar "Subbotniklar"ni bilishadi, bu ham umummilliy ko'ngillilar harakati sifatida talqin qilinishi mumkin. A.Gaydarning "Temur va uning jamoasi" (1940) qissasi qahra-

monlari ham ko'ngillilik bilan shug'ullangan. 1937-yilda Ispaniya bolalari uchun futbol orqali mablag' yig'ish maqsadida SSSRga kelgan Baskoniya jamoasi a'zolari ham ma'lum darajada ko'ngilli bo'lishgan.

Bask mamlakati futbolchisi Luis Regueiro. (1937 yil.)

Stadionlarimizga pul emas, balki Sovetlar yurtiga rahmat basklarni olib keldi. Basklar jamoasining sardori Luis Regueiro stadiona yig'ilganlar oldida so'zga chiqib, Bilbaodan qayiqda Leningradga yetib kelgan bir yarim ming bola haqida gapirdi. "Siz, - dedi u, - urush dahshatlarini erta bilgan bolalarni qabul qildingiz va shu bilan dunyoda mardlik, tinchlik va do'stlik mamlakati borligini yana bir bor isbotladingiz". (Batafsil ma'lumot uchun qarang: "Spartak"ning eng shov-shuvli g'alabasi).

Shunday qilib, ko'ngillilik yuqorida sanab o'tilgan manfaatlarning butun spektrini - martaba, tijorat, imidj, kognitiv, ijtimoiy-madaniy va hatto diniy qiziqishlarni birlashtirishi mumkin. Alohida komponent sifatida korporativ ko'ngillilik ajralib turadi, ya'ni o'z korxonalarining ijtimoiy, imidj va ishlab chiqarish dasturlari xodimlari tomonidan ixtiyoriy yordam berish.

TAYANCH SO'Z VA TUSHUNCHALAR

Volontyor, volontyorlik, ko'ngillilik, ko'ngillilar harakati, xayriya, ehson, korxona, ixtiyoriy, korporativ, tarjimon, ko'makchi, ommaviy sport, manfaaat, qo'llab-quvvatlash, bayramona, sportchilarning chiqishlari, musobaqa maydonchalari, tayyorlamoq, taqdirlash, marosimlar, doping nazorati punktlari, protokol xizmatlari, matbuot xizmatlari, qatnashmoq, ijtimoiy, imidj, ishlab chiqarish dasturlari, xodimlar, sport ko'ngilliligi, Moskvadagi ko'ngillilik, keng ko'lamli, yo'nalish, martaba, tijorat, kognitiv, ijtimoiy-madaniy, diniy qiziqishlar, birlashtirish, yangi hayriya dasturlari, festival, forum va konfrensiya, amalga oshirish, Olimpiyada o'yinlari, Jahon kubogi, Universiyada, ko'lamli sport musobaqalari, chet ellik mehmonlarga yordam berish, tashkilotchilik tajribasi, tarjimon sifatida faoliyat ko'rsatish.

MAVZU BO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Volontyorlar guruhining sport musobaqalarida amalga oshirishi mumkin bo'lgan ishlar haqida ma'lumot bering.

2. Yordamchi volontyorlarni rag'batlanish va ularni kerakli kiyim-kechak, jihozlar bilan ta'minlash qanday amalga oshiriladi, kimlar tomonidan?

3. Bugungi kunda volontyorlik harakatlari uchun hukumati-miz tomonidan qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

4. Ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishda volontyorlik harakat faoliyatini samaradorligi haqida gapiring.

5. "Volontyorlik" so'zi qaysi tildan olingan, anglatgan ma'nosini izohlang? "Volontyorlik" termini va ushbu soha rivojlanishi ko'p yillik tarixga egami va u qachondan rivojlana boshlagan?

6. "Ko'ngili", "o'z xohshiga ko'ra ish qiluvchi" ma'nolarini qaysi so'z anglatadi?

7. Volontyorlik harakati faoliyati haqida fikr yuriting.

8. Kishilarda o'z xohshiga binoan, savob qilish, yordam berish istagi qaysi holatlarda yuzaga chiqishi mumkin, bu jarayonni siz, o'zingiz biror marta his qilganmisiz?

9. Siz tahsil olayotgan universitet – kafedrada Guruhli volontyorlar ochish fikriga munosabatingiz?

10. Talabalarining volontyorlik vazifasida sport musobaqalarida faoliyat olib borishlari amaliyot vazifasini bajaradimi, shaxsiy qarashlaringiz bilan o'rtoqlashing?

11. Talabalarining volontyorlik vazifasida faoliyat yuritishlari malakali mutaxassis bo'lishlarida xizmat qiladimi? Ular kelajakda O'zbekistonda ommaviy sport tadbirlarini sifatli, kamchiliklarsiz tashkil etilishini ta'minlab bera oladilarmi?

12. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Sport tadbirlarini tashkil etish kafedrasida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida guruhli volontyorlar ochish orqali ularni sport musobaqalariga jalb qilib, o'z mutaxassisliklari bo'yicha yetuk, malakali kadr bo'lishlarini ta'minlash va O'zbekistonda ommaviy sport tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazilishini tashkil etish

bugungi kun tartibidagi eng dolzarb bazifa bo'la oladimi? Agar shunday bo'lsa, nima uchun?

13. Volontyorlik harakatini tashkil qilishdan asosiy maqsad haqida batafsil gapiring.

14. Yoshlarni jamiyat hayotiga yana ham jalb qilish orqali qanday ijobiy fazilatlarni rivojlantirish mumkin?

15. Nima uchun aynan, butun dunyo beg'araz volontyorlikni targ'ib qilmoqda? Asoslab bera olasizmi?

16. Volontyorlar guruhi, boshqa sohalar kabi o'z maqsadlariga erishishda, oldlariga turli maqsad va vazifalarni qo'ya oladilarmi?

17. Volontyorlar faoliyatlari orqali o'zlarida qanday harakatlarni shakillantiradilar?

18. Ilk marta Yevropada 1990-yili jamiyatning madaniy, iqtisodiy, ekologik yo'nalishlarida tuzilgan faoliyat turi haqida ma'lumot bering.

19. Volontyorlikning ommalashishi uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilgan?

20. Xalqaro ko'ngillilar Assotsiatsiyasining XI Kongressida volontyorlik harakati tuzilganligi va shundan keyin ommalasha boshlashi haqida nimalarni bilasiz?

21. Taxminiy Dunyo bo'yicha volontyorlar soni qancha va ularning asosiy qismini kimlar tashkil etadi?

22. Mamlakatimizda volontyorlik harakatiga davlatimiz tomonidan e'tibor qaratila boshlanganmi? Fikringizni aniq ma'lumotlar bilan asoslang.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN TOPSHIRIQLAR:

1. Tadbirning sarf-xarajatlari smetasini tuzish.

2. Ommaviy jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tadbirlaridagi targ'ibot-tashviqot ishlari.

3. Ommaviy jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tadbirlarini boshqaruv strukturasi.

3. Bolalar sog'lomlashtirish markazida ommaviy jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tadbirlarini rejalashtirish.

FANNI O'QITISHNING INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARI

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar sharhi

INTERFAOL USULLAR

Interfaol usullar «o'qituvchi = talaba» va «talaba = talaba» o'zaro ta'sir sxemalariga asoslangan. Ya'ni, endi nafaqat o'qituvchi talabalarni o'quv jarayoniga jalb qiladi, balki o'quvchilarning bir -biri bilan o'zaro aloqasi har bir talabaning motivatsiyasiga ta'sir qiladi. O'qituvchi faqat yordamchi rolini o'ynaydi. Uning vazifasi - talabalarning tashabbuskorligi uchun sharoit yaratish.

O'QITISHNING INTERFAOL USULLARINING MAQSADLARI

Mustaqil izlanishga, axborotni tahlil qilishga va vaziyatga to'g'ri echim topishga o'rgatish.

- Jamoaviy ishlashga o'rgatish: boshqa birovning fikrini hurmat qilish, boshqa nuqtai nazarga bag'rikenglik ko'rsatish.

INTERFAOL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY QOIDALARI

- Birinchi qoida. jarayonga barcha ishtirokchilar jalb qilinishi kerak. Shu maqsadda barcha ishtirokchilarni munozara jarayoniga kiritishga imkon beradigan texnologiyalardan foydalanish.

- Ikkinchi qoida. Ishtirokchilarning psixologik tayyorgarligi haqida bilish o'ta muhim qoidalardan biri. Gap shundaki, darsga kelganlarning hammasi ham ish, dars, ta'lim jarayonida qandaydir ish bilan bevosita shug'ullanishga psixologik tayyor emas. Shu munosabat bilan ta'lim jarayonida faol ishtirok etish uchun doimo rag'batlantirish va o'z-o'zini anglash imkoniyatini berish.

- Uchinchi qoida. Interfaol texnologiyani o'rganuvchilar ko'p bo'lmasligi kerak. Ishtirokchilar soni va mashg'ulotlar sifati bevosita bog'liq bo'lishi zarur. Ishtirokchilarning optimal soni 25 kishiga qadar.

- To'rtinchi qoida. Xonani shunday tayyorlash kerakki, ishtirokchilar katta va kichik guruhlarda ishlashga qulay bo'lishi lozim.

- Beshinchi qoida. Tartib va qoidalarning aniq (fiksatsiyasi) vaqt reglamentini. Bu boshida kelishilgan bo'lishi kerak va uni buzmaslikka harakat qilish kerak. Masalan: barcha ishtirokchilar har qanday nuqtai nazarda bag'rikenglik, har kim boshqaqalarning so'z erkinligi huquqini hurmat qilishi, uning qadr-qimmatini hurmat qilishi darkor.

- Oltinchi qoida. Seminar ishtirokchilarini guruhlarga bo'lishga e'tibor berish. Uni dastlab ixtiyoriy asosda qurish yaxshi. Keyin tasodifiy tanlash tamoyilidan foydalanish o'rinli bo'ladi.

INTERAKTIV TRENINGNI TASHKIL QILISHNING MAJBURIY SHARTLARI

- o'qituvchi va talaba o'rtasida ishonchli, ijobiy munosabatlar;
- demokratik uslub;
